

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

---

S. Gazinazarova, O. R. Yuldashev

# AVARIYA-QUTQARUV ISHLARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
tomonidan 5640100 – «Hayot faoliyati xavfsizligi» yo'nalishi  
bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv qo'llanma  
sifatida tavsiya etilgan*

*Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi  
Toshkent–2014*

UO'K: 656.087 (075)

KBK 68.9

A 21

G 14

**Tuzuvchilar:**

*S. Gazinazarova, O.R. Yuldashev*

**Taqrizchilar:**

*T.J. Turagalov – FVV «Fuqaro muhofazasi instituti»*

*kafedrası boshlig'i, t. f. n;*

*M. Hojiyev – TIMI dotsenti t. f. n.*

A 21 Avariya-qutqaruv ishlari / S. Gazinazarov [va boshq.]. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – T.: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014, – 160 b.

ISBN: 978-9943-05-677-0

Mazkur o'quv qo'llanma tabiiy va ijtimoiy favqulodda vaziyatlarning turlari, tavsifi, muhofaza tadbirlari haqida tushuncha berilgan. Asosiy e'tibor favqulodda vaziyatlarda avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni olib borish, tashkillashtirish masalalariga qaratilgan.

Shuningdek, avariya-qutqaruv ishlarini tashkil qilishda qutqaruvchilarning faoliyati va jabrlanganlarning hayot xavfsizligi, ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, aholini evakuatsiya qilish kabi masalalar yoritilgan.

O'quv qo'llanma oliy o'quv yurtlarining 5640100 – «Hayot faoliyati xavfsizligi» yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, o'quv qo'llanmadan fuqaro muhofazasi sohasi mutaxassislari ham foydalanishlari mumkin.

UO'K: 656.087 (075)

KBK: 68.9

ISBN: 978-9943-05-677-0

© S. Gazinazarov va boshq., 2014

© Cho'lpon nomidagi NMIU, 2014

## SO‘ZBOSHI

Yer kurrasida insoniyat taraqqiyotining tarixi azal yuz berib kelayotgan dahshatli tabiiy talofat va falokatlar bilan bog‘liq. XXI asrga kelib ham takrorlanib turayotgan bunday favqulodda vaziyatlar yildan yilga ko‘payib, qamrovi kengayib borayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Favqulodda hodisalarni o‘rganish, bashoratlash va oldini olish, ogohlantirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biriga aylangan. Ko‘rilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirish turli ofat-talofatlar keltiradigan iqtisodiy zararni va inson omili sabab bo‘lgan talofat, shikastlanish ko‘rsatkichlarini kamayishiga olib keladi. Bu esa yashash sharoitida inson bilan atrof-muhit o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muammosini yechish, buning uchun esa zaruriy me‘yoriy-huquqiy asoslar, maxsus ilmiy izlanishlar olib borilishini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda, bu borada ya‘ni, favqulodda vaziyatlarda, fuqaro muhofazasi sohasida qator qonun va hujjatlar ishlab chiqilmoqda. Binobarin, aholi va hududlarni turli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish o‘ta muhim va dolzarb masala ekanligini hisobga olgan holda, 1996-yili O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (keyingi o‘rinlarda FVV) tashkil etildi. FVVning asosiy vazifalaridan biri aholi hayoti, sog‘lig‘i hamda moddiy va madaniy boyliklarini mamlakatimiz hududida yuz berishi ehtimoli bo‘lgan favqulodda vaziyatlar (FV)da muhofaza qilishdan iboratdir. Ayniqsa favqulodda vaziyatlar yuz bergan taqdirda, avariya-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish, yil sayin ko‘payib borayotgan FV oqibatini yumshatish, zararlanish hududlarida aholi hayoti va sog‘lig‘ini saqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish fuqaro muhofazasi (FM) sohasida malakali kadrlar mavjudligi bilan bevosita bog'liqdir. Hozirgi kunda turkum oliy o'quv yurtlarida hayot faoliyati xavfsizligi (HFX) yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda va zaruriy o'quv uslubiy baza shakllantirilib, zamonaviy va yangi sharoitlarni jamlagan holda, tobora takomillashtirilmoqda. Ushbu o'quv qo'llanma avariya-qutqaruv ishlarini olib borish, favqulodda vaziyatlar zararini imkon qadar kamaytirish, zararlanish hududlarida insonlarni qutqarish kabi masalalar va ularning yechimlari bilan tanishtiradi. FVdagi sharoitda insonlarni qutqarish va boshqa shoshilinch-tiklash ishlarni amalga oshirish bo'yicha zaruriy ko'nikmalarni beradi.

## KIRISH

Insoniyatning hayot tajribasi shuni ko'rsatadiki, favqulodda vaziyatlar natijasida jamiyatga, tabiatga, atrof-muhitga juda katta moddiy-madaniy, ma'naviy zarar yetadi. Yangi asrimizda ham favqulodda vaziyatlarning soni tobora oshib borib, namoyon bo'lish xususiyatlari esa dahshatli tus olmoqda. Xususan, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida tabiiy jarayonlar nihoyatda keskinlashib bormoqda. Masalan, 2011-yil mart oyida Yaponiyada zilzila yuz berdi va uning oqibatida chamasi 10 metrli suv to'lqini qirg'oqqa yaqin hududlarda to'fon va talofatlarni keltirib chiqardi. Natijada minglab uylar vayron bo'lib, 30 ming odam nobud bo'ldi, son-sanoqsiz oilalar uy-joysiz qoldi. Ushbu zilzila boshqa bir o'ta xavfli favqulodda vaziyat – atom elektrostansiyasida falokatni yuzaga keltirdi. Shuningdek, 1995-yil 27-may kuni Neftegorsk shahrida 8 balli zilzila oqibatida 95 foizdan ortiq binolar vayron bo'ldi, ko'plab odamlar hayotdan ko'z yumdi. Bunday misollarni istalgancha keltirish mumkin.

Jahon statistik ma'lumotlariga ko'ra, FV yuz berish hududlari bo'yicha Osiyoda 39 foiz, Amerikada 26 foiz, Afrika va Yevropada 13 foiz, Avstraliya va Okeaniyada 9 foiz, boshqa hududlarda 13 foizni tashkil etadi. Yer yuzasida yuz berayotgan tabiiy FV quyidagicha tartibda joylashgan: tayfunlar 34 foiz, toshqinlar 32 foiz, zilzila 13 foiz, qurg'oqchilik 9 foiz va boshqa ofatlar 12 foiz atrofida ekanligi mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgan. FV ayrim mamlakatlarning iqtisodiyotiga juda katta zarar yetkazishi bilan birga, insonlar sog'lig'i yo'qolishiga, hayotiga zomin bo'layotganligining guvohi bo'lmoqdamiz.

Bu holni nafaqat ahyon-ahyonda sodir bo'layotgan zilzilalar, balki sel, ko'chki va boshqa turdagi tabiiy ofatlarning ko'payib borayotgani bilan izohlash mumkin. Yurtimiz O'zbekistonda ham turli xildagi FV yuz berishi ehtimoldan holi emas. O'zbekiston hududi-

da sodir bo'lish ehtimoli bo'lgan tabiiy ofatlardan: zilzila, sel, toshqin, ko'chkilar ko'proq uchraydi. Masalan, Yer yuzida O'zbekiston seysmik faol 5–9 balli hududda joylashgan bo'lib, unda Andijon 9 ball, Toshkent, Samarqand Farg'ona – 8 ball, Buxoro, Guliston, Jizzax, Qarshi hududlarida 7 ball zilzilalar yuz berishi ehtimoli kuzatiladi. Sel hodisasi – Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlari va Farg'ona vodiysining tog'li hududlarida ko'proq uchraydi.

Toshqin – mamlakatimiz miqyosida mavjud daryolar, ko'llar, suv omborlari, yirik gidrotexnik inshootlari joylashgan, ya'ni suv havzalari atrofidagi hududlarda sodir bo'ladi. Ko'chki jarayoni tarqalgan hududlarga Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Namangan viloyatlarini misol keltirish mumkin.

Hozirgi paytda Respublikamiz miqyosida muhim ahamiyatga ega bo'lgan yirik iqtisodiyot obyektlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Bular, katta suv omborlari: Toshkent, Chorvoq, Andijon kabi hududlarda mavluddir. Shuningdek, neft va gaz mahsulotlarini qayta ishlash obyektlari, masalan, Muborak gazni qayta ishlash, Buxoro neftni qayta ishlash zavodlari va energetika obyektlari, avtomobil sanoati va boshqa ishlab chiqarish markazlari ham shular jumlasidandir. Shuningdek, yurtimizda, hozirgi kunda kimyo sanoatida 200 dan ziyod kimyoviy inshootlar faoliyat olib bormoqda. «O'zbekkimyosanoat» korxonalari: Qo'qon, Chirchiq, Olmaliq, Samarqand, Buxoro, Navoiy shaharlarida joylashgan bo'lib, kimyoviy moddalardan foydalanadigan obyektlar «O'zqishloqxo'jalik», «O'zgo'shtsut» korxonalari, Bekobod metallurgiya kombinati va boshqa ishlab chiqarish korxonalari hisoblanadi. Bundan tashqari, havo, transport, temiryo'l, avtomobil, metropoliten transporti tizimlari ham keng miqyosda rivojlanib bormoqda. Iqtisodiyot obyektlari potensial texnogen FV manbasidir.

Yuqorida keltirilgan tabiiy ofatlar sodir bo'lgudek bo'lib, mamlakatimizda joylashgan iqtisodiyot obyektlarida o'ziga xos, turli tusdagi favqulodda vaziyatlarni yuzaga keltirsa, aholi xavfsizligi, salomatligini ta'minlash o'ta muhim va dolzarb masalalardan biriga aylanadi.

Hozirgi sharoitda mamlakatimiz aholisini va iqtisodiyot obyektlarini muhofaza qilish ishlarini ustuvor vazifaga ko'tarish, ularni turli falokatlardan saqlab qolish borasidagi ishlar, davlat miqyosida olib borilayotgan islohotlar qatorida, alohida o'rin egallaydi. Shunday ekan, mamlakatimizda buni hisobga olgan davlatimiz rahbariyati mazkur masala bilan maxsus shug'ullanuvchi tashkilot Respublika Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini tashkil etdi.

Uning asosiy vazifasi favqulodda vaziyatlarning oldini olish bilan bir qatorda, yuz bergan taqdirda uning oqibatlarini bartaraf etish, zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq. Ayniqsa, favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini bartaraf etishda avariya-qutqaruv ishlarini qisqa muddatlarda tezkor o'tkazilishi birlamchi vazifalarga kiradi.

Ushbu vazifalarni bajarish uchun «Hayot faoliyati xavfsizligi» yo'nalishi bo'yicha tayyorlanadigan mutaxassislar quyidagi ishlarni amalga oshira bilishlari kerak. Bular avariya holatida o'z vaqtida harakat qilish, oqibatlarni bartaraf etish chora-tadbirlarni tezkor amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarda insonlarning hayotini, sog'lig'ini saqlab qolish, zararini kamaytirish vazifalari kiradi. Ushbu ishlarni malakali mutaxassislar amalga oshirsa avariya-qutqaruv ishlari (AQI)ni muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

FVda soha mutaxassislari quyidagi ishlarni amalga oshirishlari zarur bo'ladi:

- favqulodda vaziyatga tezkor kirishish, uni cheklash va oqibatlarini bartaraf etishda samarali harakatlarga shay turish;

- razvedka o'tkazish, vaziyatni baholash va yuqori tashkilotlariga tezkor ma'lumot yuborish;

- jarohatlanganlarni, moddiy boyliklarni qidirib topish, qidiruv-qutqaruv ishlarni o'tkazish va shu kabilar;

Qutqarish ishlarining mazmuni quyidagicha:

- tuzilmalarning harakat yo'nalishlari va ish uchastkalarini qidirish;

- tadbirlarni amalga oshirish uchastkalarida va ularga o'tish yo'llarida yong'inning kengayishini oldini olish, uni o'chirish,

- buyumlar, qulagan va yonayotgan binolardan, gaz va tutun bosgan xonalardan shikastlanganlarni qidirish va olib chiqish;
- buzilgan, shikastlangan, ustini uyumlar bosib qolgan inshootlarni ochish va ulardagi odamlarni qutqarish;
- shakastlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, ularni davolash muassasalariga olib borish;
- odamlarni kuchli ta‘sir etuvchi zaharli modda (KTZM) bilan zararlangan xavfli joylardan, suv bosadigan hududlardan xavfsiz joylarga olib chiqish va shu kabi ishlar.

Qutqaruv hamda shoshilinch avariya-tiklash ishlari murakkab sharoitlarda vayronalarda, kuchli yong‘inlarda, yer qimirlaganda, radioaktiv, kimyoviy va bakteriologik zararlenganda, suv toshqini, sel bosgan hududlarda amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot obyektlarida tabiiy ofatlar (zilzilalar, to‘fonlar, suv toshqinlari, tog‘ ko‘chkilari, o‘rmondagi yong‘inlar va boshqalar), har xil tabiiy va iqlim sharoitlarida, ulardan kelib chiqqan asoratlarni bartaraf qilish masalalari dolzarb hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda kechiktirib bo‘lmaydigan tibbiy yordamni ko‘rsatishdan iborat. Qutqarish va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar quyidagilardan iborat:

1. Odamlarni qutqarish va shikastlanganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish.

2. Yong‘inlar, falokatlarining kengayishiga yo‘l qo‘ymaslik va kommunal energetika hamda texnologiya tarmoqlaridagi avariyalarni bartaraf etish.

3. Iqtisodiyot obyektlarida bundan keyingi bo‘ladigan tiklash ishlarini o‘tkazish uchun sharoitlar yaratish va boshqalar.

Avariya-qutqaruv ishlari va tabiiy ofatlarning kelib chiqish sabablarini, nazariy-amaliy masalalarni, shuningdek, avariyalardan keyin tiklash ishlarini olib borish jarayonini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.



**FUQARO MUHOFAZASINING  
ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI**

Favqulodda vaziyatlardagi AQI fuqaro muhofazasi tizimiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar asosida olib boriladi.

Har qanday favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ularni bartaraf etish uchun zaruriy kuch va vositalar zarur bo'ladi. Favqulodda vaziyatlar yuz bergandan so'ng oqibatlarini bartaraf etishda, sodir bo'lgan favqulodda vaziyat o'chog'i holatiga qarab maxsus kuch vositalar jalb qilinadi. Bunday hollarda olib boriladigan ishlar, favqulodda vaziyatning vaqti, uning ta'sir o'chog'i, aholi yashash maskani va boshqa xususiyatlariga alohida e'tibor berilib, tezkorlik bilan amalga oshiriladi.

Ushbu ishlar fuqaro muhofazasi tizimi tomonidan amalga oshirilib, quyidagi vazifalarni bajarish bilan bog'liq:

– tinchlik va harbiy holatda mamlakat aholisini qirg'in qurollari va hujum vositalaridan himoya qilish;

– harbiy sharoitida xalq xo'jaligi obyektlarining barqaror ishlashini ta'minlash;

– halokat o'choqlarida qutqarish va tiklash ishlarini samarali amalga oshirish hayot tajribasining ko'rsatishicha, aholi hayotiga faqat qirg'in qurollari emas, balki boshqa xavf-xatarlar, turli tabiiy, texnogen va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar ta'sir qilishi ehtimoli oshib bormoqda.

Bunday vaziyatlar odamlar uchungina xavfli bo'lmay, balki iqtisodiyot obyektlarining ishdan chiqarishga, zararlanishiga olib keladi. Bunday hollarni yildan yilga ko'payib borishi fuqaro muhofazasi tizimining rivojlantirilishi, tashkiliy jihatdan keng qamrovli bo'lishi lozimligini ko'rsatib berdi. Bunday tizim aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, qutqaruv ishlarini o'tkazib tabiiy

ofatlar va boshqa xavf-xatarlarni o'rganishni talab etedi. Xususan, o'rta va uzoq muddatli bashoratlash ishlarini tashkil qilishi, monitoring tizimini, aholi tayyorligini amalga oshirish masalalari hal qilinishi kerak. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi (FVV) tomonidan tabiiy ofatlar va boshqa falokatlardan respublika aholisini va hududlarini muhofaza qilish borasida masalalarni yechish uchun talay vazifalar qo'yilgan. FVV faoliyati va muhofaza tizimidagi barcha kuch va vositalar talofatlarning oldini olish, sodir bo'lganda qutqarish va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlarni tashkil qilish ishlariga yo'naltirilgan.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish, oqibatlarini bartaraf etish, FVning jihatarini o'rganish va asosiy chorag-tadbirlar amalga oshirilishi bilan bog'liq:

Avvalo, favqulodda vaziyat – bu odamlar qurbon bo'lishi, ularning sog'lig'i yoki atrof tabiiy muhitga zarar yetishi, jiddiy moddiy talofatlar keltirib chiqarishi hamda odamlar hayot faoliyati sharoitining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin bo'lgan hodisaladir. Shuningdek, yuz bergan avariya yoki boshqa xavfli tabiiy ofat natijasida muayyan hududda yuzaga kelgan vaziyatdir.

Bunday vaziyatlarda:

– aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish choralari, usullari, vositalari tizimi hamda sa'yi-harakatlari majmuyi.

– favqulodda vaziyatlarning oldini olish – oldindan o'tkazilib, favqulodda vaziyatlar ro'y berishi xavfini imkon qadar kamaytirishga, bunday vaziyatlar ro'y bergan taqdirda esa odamlar sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar kompleksi.

– favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish ishlariga – favqulodda vaziyatlar ro'y berganda odamlar hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof tabiiy muhitga yetkaziladigan zarar va moddiy talofatlar miqdorini kamaytirish kabi chora-tadbirlar kiradi. Shuningdek, favqulodda vaziyatlar ro'y bergan hududlarni halqaga olib, xavfli omillar ta'sirini tugatishga qaratilgan avariya-qutqaruv ishlarini oz ichiga oladi.

Bu kechiktirib bo‘lmaydigan ishlar kompleksiga qaratilgan sa’y-harakat va tadbirlar kompleksidir. Ushbu ishlarni amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik organlari tomonidan fuqaro muhofazasi sohasida qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlari asosida olib boriladi.

### **1.1. Fuqaro muhofazasining me‘yoriy-huquqiy asoslari**

Fuqaro muhofazasi bo‘yicha aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qabul qilingan muhim hujjatlardan biri – avval, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qoshida Fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlar boshqarmasining, so‘ngra ushbu boshqarma negizida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 4-martdagi PF–1378-sonli Farmoni bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligining tashkil etilishi bo‘ldi. Vazirlik faoliyat yurita boshlagandan so‘ng aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining huquqiy asosini tashkil etuvchi bir qator qonun, qarorlar va me‘yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bular: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plamidir.

O‘zbekiston Respublikasi qonunlari:

«Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi (1999-yil 20-avgust) Qonun, aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi. Shuningdek, favqulodda vaziyatlar ro‘y berishi va rivojlanishining oldini olish, favqulodda vaziyatlar oqibatida keltiriladigan talofatlarni kamaytirish va bar-taraf etishni maqsad qilib qo‘yadi.

«Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida»gi (2000-yil 26-may) Qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga

oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek, fuqaro muhofazasi kuchlari hamda vositalarini belgilaydi.

«Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida»gi (1999-yil 20-avgust) Qonunning maqsadi, gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ulardan foydalanish, ularni rekonstruksiya qilish, tiklash, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdir.

«Radiatsiyaviy xavfsizlik to‘g‘risida»gi (2000-yil 31-avgust) Qonunning maqsadi esa radiatsiyaviy xavfsizlikni, fuqarolar hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulki, shuningdek, atrof muhitni ionlashtiruvchi nurlanishning zararli ta‘siridan muhofaza qilishni ta‘minlash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

«Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi (2000-yil 15-dekabr) Qonunning maqsadi terrorizmga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunning asosiy vazifasi shaxs, jamiyat va davlatning suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolar tinchligi va milliy totuvlikni saqlashdan iborat.

«Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida» (2006-yil 28-sentabr)gi Qonunning maqsadi xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori:

«Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko‘chish va yer ko‘chki hodisalari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi (2007-yil 19-fevral, PQ,–585-sonli) Qarori. Mazkur Qaror toshqinlar, sel oqimlari, qor ko‘chish va yer ko‘chki hodisalari bilan bog‘liq favqulodda vaziyatlardan aholi va hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha ishlarni o‘z vaqtida va samarali tashkil etish, shuningdek, ularning oqibatlarini tezkorlik bilan bartaraf etish maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari:

«O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi (1996-yil 11-aprel, 143-sonli) qaroriga «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi to'g'risida»gi Nizom ilova qilingan. Favqulodda vaziyatlar vazirligining asosiy vazifalari, huquqlari keltirilgan.

«O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida»gi (1997-yil 23-dekabr, 558-sonli) qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to'g'risida»gi Nizom va uning tuzilmasi tasdiqlangan, vazirlik va idoralarning aholini hamda hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha vazifalari belgilangan.

«O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida»gi (1998-yil 7-oktabr, 427-sonli) qaror mamlakat aholisi va hududini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida qabul qilingan. Qarorga «Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida tayyorlash tartibi to'g'risida»gi Nizom O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida, shuningdek, favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarlikdan o'tayotgan aholi guruhlarini tayyorlashning asosiy vazifalarini, shakllari va usullarini belgilanishi ilova tarzida keltirilgan.

«Tabiiy, texnogen va ekologik tUSDagi favqulodda vaziyatlarining tasnifi to'g'risida»gi (1998-yil 27-oktabr, 455-sonli) Qarori bilan favqulodda vaziyatlar vujudga kelish sabablariga ko'ra tasniflanishi keltirilgan. Ushbu vaziyatlarda zarar ko'rgan odamlar soniga, moddiy zararlarni miqdoriga va ko'lamlariga qarab turlari ko'rsatib o'tilgan.

«O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni ko'chaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (1996-yil 18-yanvar, 32-sonli) qarori odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurash chora-tadbirlarining samaradorligini oshirish, shuningdek, aholi yashash joy-

larida it, mushuk va boshqa uy hayvonlarining saqlashni tartibga solish maqsadida qabul qilingan.

«Ommaviy tadbirlarni o‘tkazish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi (2003-yil 13-yanvar, 15-sonli) qarori O‘zbekiston Respublikasi hududida ommaviy tadbirlar o‘tkazilishi paytida jamoat xavfsizligini ta’minlash va tartibni muhofaza qilish maqsadida qabul qilingan.

«Favqulodda vaziyatlarni bashoratlash va oldini olish Davlat dasturida tasdiqlash to‘g‘risida»gi (2007-yil 3-aprel, 71-sonli). qarori favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf etish sohasida olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish maqsadida joriy etilgan.

Davlat standartlari:

– «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Asosiy tushunchalarning atamalari va ta’riflari to‘g‘risida»gi (O‘zDst 981, 2000);

– «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar to‘g‘risida»gi (O‘zDst 982:2000);

– «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Texnogen favqulodda vaziyatlar. Atamalar va ta’riflar to‘g‘risida»gi (O‘zDst 014, 2002);

– «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozlash. Atamalar va tariflar to‘g‘risida»gi (O‘zDst 1015, 2002);

– «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Favqulodda vaziyatlar monitoringi va prognozlash. Asosiy qoidalar to‘g‘risida»gi (O‘zDst 1016, 2002);

– «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Texnogen favqulodda vaziyatlar manbalari. Shikastlovchi omillar va ular ko‘rsatkichlarining tasnifi va nomenklaturasi to‘g‘risida»gi (O‘zDst 1017, 2002);

– «Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik. Tabiiy favqulodda vaziyatlar manbalari. Shikastlovchi omillar. Shikastlovchi ta’sir ko‘rsatkichlarining nomenklaturasi to‘g‘risida»gi (O‘zDst 1018, 2002) muhim hujjatlardir.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish borasida o‘tkaziladigan tadbirlar fuqaro muhofazasi sohasida qabul qilingan me‘yoriy-huquqiy hujjatlar asosida olib boriladi.

## **1. 2. O‘zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilish tartibi**

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, ularning oldini olish va harakat qilish masalalari davlat tizimi tomonidan hal etilishi ko‘zda tutiladi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997-yil 23-dekabrda qabul qilingan 558-sonli «O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to‘g‘risida»gi qarori asosida boshqaruv organlari, Respublika va mahalliy hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish muhimdir. Ya’ni, fuqaro muhofazasi vazifalarini hal etish vakolatiga ega korxonalar va muassasalarning kuch hamda vositalari birlashtiradi. Shuningdek, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etish sohasidagi tadbirlarni amalga oshirish, ular yuzaga kelganda aholi xafsizligini, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish hamda tinchlik va harbiy davrda davlat iqtisodiyotiga zararni kamaytirishni ta’minlashga mo‘ljallangan.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining asosiy vazifalari:

1. Tinchlik va harbiy davrda aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida huquqiy va iqtisodiy, me’yoriy hujjatlarning yagona Konstitutsiya asosida belgilash, ishlab chiqish va amalga oshirish.

2. Respublika hududida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan texnologen va tabiiy xususiyatli favqulodda vaziyatlarni prognozlash, ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini baholash.

3. Favqulodda vaziyatlarning oldini olishga, odamlar xavfsizligini ta’minlashga, xavfli texnologiyalar va ishlab chiqarishlarning tavakkalchiligini pasaytirish, mulkchilik shaklidan va idoraviy bo‘ysunishidan qat’i nazar, iqtisodiyot tarmoqlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatishining barqarorligini

oshirishga qaratilgan maqsadli va kompleks ilmiy-texnik dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

4. Boshqaruv organlari va tizimlari favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning bartaraf etish uchun mo'ljallangan kuch va vositalarini doimiy tayyorligini ta'minlash.

5. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi axborotlarni yig'ish, ishlab chiqish, almashish va berish.

6. Aholini, boshqaruv organlarining mansabdor shaxslarini, favqulodda vaziyatlarda, ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining asosiy vazifalari kuchlari hamda vositalarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash.

7. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish.

8. Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida davlat ekspertizasi, nazorati va tekshiruvini amalga oshirish.

9. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish.

10. Favqulodda vaziyatlardan zarar ko'rgan aholini ijtimoiy muhofaza qilishga oid tadbirlarni amalga oshirish.

11. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida aholining, shu jumladan ularning oqibatlarini bartaraf etishda bevosita qatnashgan shaxslarning huquq va majburiyatlarini amalga oshirish.

12. Aholi va hududarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida xalqaro hamkorlik qilish.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining ish rejimlari:

– kundalik faoliyat rejimi – favqulodda vaziyatlar yuz berganda ishlab chiqarish sanoati, radiatsion, kimyoviy, biologik (bakteriologik), seysmik va gidrometeorologik vaziyatda, epkzootiya va epifitotiya holatlari bo'lmagandagi rejim.

– yuqori tayyorgarlik rejimi – bu rejimda ishlab chiqarish, radiatsiyaviy, kimyoviy, biologik (bakteriologik), seysmik va gidrome-



teorologik vaziyat yomonlashganda, favqulodda vaziyatlar yuzaga kelish ehtimoli yuqori bo'lib, prognoz olinganda amal qilinadi.

– favqulodda rejim – favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda va ushbu vaziyatlar davrida.

**Har bir rejimda aniq bir tadbirlar amalga oshiriladi.** Kundalik faoliyat rejimida: favqulodda vaziyatlarning oldini olish, yetkazilishi mumkin bo'lgan zarar qisqarish, favqulodda vaziyatlar chog'ida muhofaza qilish yo'llari va harakat qilishga o'rgatishni tashkil etish.

Yuqori tayyorgarlik rejimini o'rnatish huquqi fuqaro muhofazasi boshliqlari: O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri, Qoraqalpog'iston Respublikasi vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlariga berilgan.

**Yuqori tayyorgarlik rejimi.** Ushbu rejimda favqulodda vaziyatlar xavfi yuzaga kelishi to'g'risida tegishli organlarga, aholiga xabar beriladi. Favqulodda vaziyatlar boshqaruv organlari quyi tizimlari va bo'g'inlari faoliyatiga rahbarlik qiladilar. Zarur hollarda vaziyatning og'irlashishi sabablarini aniqlash uchun ofat yuz berishi mumkin bo'lgan hududda tezkor guruhlarni tashkil etiladi – favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi rahbarlar tarkibining doimiy dislokatsiya maskanlarida kecha-kunduz navbatchiligini joriy etilib, vazirliklar, viloyatlar, tumanlar favqulodda vaziyatlar bo'yicha boshqarmalar bo'limlarining tezkor-navbatchi xizmatlarini hamda idoralar va obyektlarning navbatchi-dispetcherlik xizmatlari ko'chaytiriladi. Atrof tabiiy muhitning ahvoli, o'ta xavfli obyektlar va ularga yondosh bo'lgan hududlardagi vaziyatni kuzatish va nazorat qilishni ko'chaytirish, favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelish ehtimollarini, ularning ko'lamlari va oqibatlarini prognozlash; favqulodda vaziyatlarda aholi, va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish., shuningdek, obyektlar va iqtisodiyot tarmoqdarining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish; kuchlar va vositalarni tayyor holga keltirish, ularning harakat rejalarini aniqlashtirish hamda zarur bo'lganda mo'ljallanayotgan favqulodda vaziyat hududiga yo'naltirish.

**Favqulodda rejimda:** favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganligi to'g'risida boshqaruv organlariga xabar berish va aholini xabardor qilish;

– tezkor guruhlarni favqulodda vaziyat hududiga yo'naltirish; aholini muhofaza qilishni tashkil etish;


– favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishni tashkil qilish;

– favqulodda vaziyatlar hududlar chegaralarini belgilash;

– sanoat tarmoqlari va obyektlarining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, zarar ko'rgan aholining hayotiy faoliyatini ta'minlash ishlarini birinchi navbatda tashkil etish;

– favqulodda vaziyat hududidagi atrof tabiiy muhitning holati, avariya obyektlari va ularga chegaradosh hududlardagi vaziyatni uzluksiz nazorat qilishni amalga oshirish;

– favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish, harakat qilish davlat tizimi hududiy quyi tizim va funksional quyi tizimdan iborat (1-rasm).



*1-rasm. Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari.*

Hududiy quyi tizimlar tarkibi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tuziladi va tegishli ravishda tumanlar, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullar miqyosidagi bo‘g‘inlardan iborat bo‘ladi. Ularning asosiy vazifasi o‘z ma‘muriy hududlari doirasida aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishdir.

Funksional quyi tizimlar vazirliklar, davlat qo‘mitalari, korporatsiyalar, konsernlar, uyushmalar va kompaniyalarda tarkibida tuziladi. Har bir idora bir yoki bir necha quyi tizimga ega bo‘lishi, yoki umuman quyi tizim tashkil etmasligi, biroq bir necha vazirlik va idoralar bitta quyi tizim tashkil etishlari mumkin. Ushbu masala «Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi to‘g‘risida»gi Nizomning 3-ilovasida (O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralarining aholini va hududlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha funksiyalari) bayon etilgan. Funksional quyi tizimlarning asosiy vazifasi atrof tabiiy muhit va kuchli potensial xavfli obyektlar holatini kuzatish va nazorat qilishni amalga oshirish, shuningdek, idoraga qarashli obyektlarda ularning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog‘liq ehtimoliy favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda ular yuz bersa oqibatlarini bartaraf etishdan iborat.

**Axborot-boshqaruv quyi tizimi.** Ular boshqaruv, axborot markazlari, axborot aloqalari bo‘lib o‘z ishiga o‘tadi. Favqulodda vaziyatlar vazirligining Favqulodda vaziyatlarda boshqaruv Markazi, Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining asosiy vazifalari hududiy va funksional quyi tizimlarining axborot-tahlil markazlari, atrof tabiiy muhit va potensial xavfli obyektlar holatini kuzatish va nazorat qilish organlarining axborot markazlari, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari, shuningdek, vositalarini boshqarishning harakatlanuvchi maskanlari, aloqa va axborot uzatish vositalari, shu jumladan boshqarish va axborot bilan ta‘minlanishini avtomatlashtirilgan tizimini o‘z ichiga oladi.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi 3 ta darajaga ega:

- respublika;
- mahalliy;
- obyekt.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining har bir darajasi quyidagilarga ega bo‘ladi:

- rahbar organlari;
- kundalik boshqaruv organlari.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish kuch va vositalari.

– favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari.

– xabar berish, aloqa, boshqaruv va axborot bilan ta’minlashning avtomatlashtirilgan tizimlari (BAT).

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi rahbar organlari – bu aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish masalalarini hal etish vakolatiga kiradigan davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat organlari va obyektlar ma’muriyatidir.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining kundalik boshqaruv organlari – bu FVda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining tegishli hududiy va funksional quyi tizimlarini, hamda uning bo‘g‘inlariga bevosita kundalik boshqaruvini amalga oshiruvchi boshqaruv organlaridir. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar favqulodda vaziyatlar boshqarmalari;

– shaharlar va tumanlar favqulodda vaziyatlar bo‘limlari;

– obyektlarning favqulodda vaziyatlar bo‘limlari (sho‘balar yoki maxsus tayinlangan mansabdor shaxslar);

– vazirliklar va idoralarning davlat nazorati organlari (nazorat inspeksiya xizmatlari);

– vazirliklar va idoralarning favqulodda vaziyatlar bo‘limlari (sho‘balar yoki maxsus tayinlangan mansabdor shaxslar);

- favqulodda vaziyatlar vazirligining favqulodda vaziyatlarni boshqarish markazi;
- favqulodda vaziyatlar boshqarmalari (bo‘limlari)ning tezkor-navbatchilik xizmatlari;
- vazirliklar, idoralar va obyektlarning navbatchi-dispetcherlik xizmatlari.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining kuch va vositalari 2 guruhga bo‘linadi:

1. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish kuch va vositalari ular davlat va idoraviy nazorat organlari, shuningdek, funksional quyi tizimning oldini olish kuch va vositalaridan iborat.

2. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish kuch va vositalari. Ular tarkibiga fuqaro muhofazasi tuzilmalari; favqulodda vaziyatlar vazirligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamda tezkor bo‘ysunuvchi Respublika ixtisoslashtirilgan tuzilmalari; vazirliklar va idoralarning harbiylashtirilgan professional ixtisoslashtirilgan avariya-qutqaruv va avariya-tiklash bo‘linmalari; mahalliy hokimiyat organlarining Qoraqalpog‘iston Respublikasi vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi qutqaruvchi komandalarning tuzilmalari; obyektlarning ixtisoslashtirilgan tuzilmalari; hududiy va obyektlarning umumiy va maxsus maqsadlardagi tuzilmalari; Qizil Yarim Oy Jamiyatining ko‘ngillilar otryadlari, komandalari, guruhlari; «Vatanparvar» Mudofaaga ko‘maklashuvchi tashkiloti kabi tuzilma, tashkilotlarning kuch va vositalaridan tashkil topgan.

Ular FV oqibatini bartaraf etishda jalb qilinib, ularning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- favqulodda vaziyatga tezkor kirishish, favqulodda vaziyatlarni cheklash va oqibatlarini bartaraf etishda samarali harakatlarga shay turish;

- razvedka o‘tkazish, vaziyatni baholash va Favqulodda vaziyatlar vazirligiga tezkor ma’lumot yuborish;

- jarohatlanganlarni, moddiy boyliklarni qidirib topish, qidiruv-qutqaruv ishlarini o‘tkazish.

Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi vositalari – aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy va moddiy resurslar majmuyidir.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari oldindan, favqulodda vaziyatlar ro‘y bergan taqdirda, shoshilinch tarzda jalb etish maqsadida yaratiladi. Moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, ulardan foydalanish va to‘ldirish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun quyidagi mablag‘lardan foydalaniladi:

– favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxiradagi moliyaviy jamg‘armasi va FVni tugatish chog‘ida birinchi navbatdagi ishlarni amalga oshirish uchun, Davlat zaxirasi tarkibi hisobidan yig‘iladigan moddiy resurslar zaxiralari sanaladigan Respublika budjet mablag‘lari hisobidan;

– idoraviy moliyaviy va moddiy resurslar zaxirasi – vazirliklar va idoralar mablag‘lari hisobidan;

– mahalliy hokimiyat organlarining moliyaviy va moddiy resurslari zaxirasi – mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan;

– obyektlarning moliyaviy va moddiy resurslari zaxirasi – korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan;

– Qizil Yarim Oy Jamiyatining tabiiy ofatlardan zarar ko‘rgan aholiga yordam ko‘rsatish uchun birinchi navbatda zarur bo‘lgan xomashyo omborlari va zaxiralari mablag‘lari hisobidan va boshqa turdagi mablag‘lardan foydalaniladi.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralari nomenklaturasi va hajmlari ularni tashkil etgan organ tomonidan belgilanadi. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda, agar bu birlashmalarning qutqaruvchilari attestatsiya tartibida tasdiqlangan tegishli tayyorgarlikdan o‘tgan bo‘lsa, jamoat birlashmalari ham ishtirok etishlari ko‘zda tutiladi.

Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish avariya obyektlari, vazirliklar va idoralarning, hududida favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan hokimliklarning balansida turadigan kuch va vositalari bilan amalga oshiriladi.

Ushbu ishlar obyektlarning, vazirliklar (idoralar) va, hokimliklarning tezkor guruhdari (mutaxassislari) rahbarlarining bevosita boshchiligida bajariladi.

Favqulodda vaziyatning ko‘lamini mavjud kuchlar va vositalar yordamida bartaraf etish mumkin bo‘lmagan holda, zaruriy yordam ko‘rsatish uchun Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining yuqori rahbar organiga yordam so‘rab murojaat qilinadi. Shu bilan birga favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish maqsadida hukumat komissiyasi tashkil qilinishi mumkin.

Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish bo‘yicha tadbirlarni mablag‘ bilan ta‘minlash favqulodda vaziyat sodir bo‘lgan hududda joylashgan obyektlarning, vazirliklar va idoralarning mablag‘lari, tegishli budjetlar, sug‘urta jamg‘armalari va boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Bunda ko‘rsatilgan mablag‘lar yetarli yoki mavjud bo‘lmagan taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining zaxira jamg‘armasidan ajratilishi ko‘zda tutiladi.

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular yuzaga kelganda keltirilgan talofat va zararning miqdorini kamaytirish bo‘yicha oldindan choralar ko‘rish yoki yuzaga kelganida harakat qilish bo‘yicha Respublika idoralarining rejasi asosida, obyektlarning harakat qilish rejalarini hokimliklar va boshqa organlar tomonidan davlat tizimining barcha darajalari favqulodda vaziyatlarda uning oldini olishda o‘zaro hamkorlikda harakat qilish rejaları ishlab chiqiladi.

Fuqaro muhofazasi barcha tadbirlarini favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi tomonidan amalga oshirish uchun kuch va vositalar avvaldan, iqtisodiy, tabiiy va boshqa ko‘rsatkichlarni, hududning xususiyatlarini va favqulodda vaziyatning yuz berish ehtimolligi darajasini hisobga olgan holda tashkil etiladi.


### 1.3. Favqulodda vaziyatlar, texnogen avariylar, halokatlar va tabiiy ofatlar tushunchalari, tavsiflari

Umumiy holda favqulodda vaziyatlar sababi va kelib chiqish manbayiga ko'ra tasniflanadi, jumladan: 1) tabiiy tUSDagi FV; 2) texnogen tUSDagi FV; 3) ekologik tUSDagi FV.

Tabiiy tUSDagi favqulodda vaziyatlar tabiiy ofat sodir bo'lish joyi, sababi, ko'lami, moddiy zarari va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ularga 3 xil turdagi xavfli hodisalar kiradi:

1) geologik xavfli hodisalar: zilzilalar, yer ko'chishlari, tog' o'pirlilishlari va boshqa xavfli geologik hodisalar;

2) gidrometeorologik xavfli hodisalar: suv toshqinlari, sellar, qor ko'chkilari, kuchli shamollar (dovullar), jala va boshqa xavfli gidrometeorologik hodisalar (2-3-rasmlar);



2-rasm. Gidrometeorologik hodisalar.




### 3) Favqulodda epizootik va epifitotik vaziyatlar:

– alohida xavfli infeksiyalar (o‘lat, vabo, sarg‘ayma, isitma), yuqumli kasalliklar, rikketsiyalar, Bril kasalligi, zoonoz infeksiyalar – Sibir yarasi, quturish, virusli infeksiyalar – tarqalish holati.

Texnogen tUSDagi FV insonlar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, shuningdek, mashina mexanizmlarni va jarayonlarni buzilishi kabi sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Bularga gidrotexnik inshootlardagi avariylar, halokatlar, yong‘in chiqishi xavfi bor obyektlardagi falokat va halokatlar, transport energetika va kommunal tizimidagi, kimyoviy va radiatsion xavfli obyektlardagi falokatlar va shu kabi-lar kiradi. Masalan,

- bino-inshootlarni buzilishi;
- kimyoviy, radioaktiv zararanishlar
- yong‘in-portlashlar, gidrotexnik inshootlarning buzilishi va shu kabilar.



3-rasm. Gidrometeorologik hodisalarning paydo bo‘lishi.

## **Ekologik tushdagi favqulodda vaziyatlar.**

1. Quruqlik (tuproq, yer ostining holati o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar: halokatli ko'chkilar – foydali qazilmalarni qazish chog'ida yer ostiga ishlov berilishi va insonning boshqa faoliyati natijasida yer yuzasining o'pirilishi, siljishi;

2. Atmosfera (havo muhiti) tarkibi va xossalari o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar, havo muhitini zararlovchi ingradientlar bilan ekstremal yuqori ifloslanishi:

3. Gidrosfera holatining o'zgarishi bilan bog'liq vaziyatlar:

Yer yuzasi va yer osti suvlarining zararli moddalar bilan ekstremal yuqori darajada ifloslanishi;

Hozirgi vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan keltirilgan favqulodda vaziyatlarning tasnifiga yana qo'shimcha qilib:

a) ijtimoiy siyosiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlar;

b) harbiy tavsifdagi favqulodda vaziyatlarni kiritish mumkin.

### **1.4. Tabiiy ofatlar va halokatlarning oldini olish chora-tadbirlari**

Respublikamiz hududida yuz berishi ehtimoli bo'lgan tabiiy favqulodda vaziyatlar, uning geografik o'rni, iqlim sharoitlariga bog'liq. Ularning yuz berish hududlari turli joylarda bo'lib, quyidagi tabiiy ofatlardir: zilzila, sel, toshqin, ko'chkilar ko'proq uchraydi. Bunday tabiiy ofatlar hududimizda joylashgan iqtisodiyot obyektlaridagi favqulodda vaziyatlarni tarqalishi sodir bo'lgudek bo'lsa, aholi xavfsizligi, inson salomatligini ta'minlash o'ta muhim va dolzarb jabhalardan biridir.

Zilzilalar – bu geofizik omillar ta'siri natijasida sodir bo'ladi va yer osti silkinishlari hamda yer usti tebranishlarini hosil bo'lishiga olib keladi. Yer qobig'ining chuqur tektonik kuchlari ta'sirida kuch-


lanishlar vujudga keladi, natijada yer qobig'ining jinslari siqiladi va paydo bo'lgan kuchlanishlar ma'lum chegaradan o'tganidan so'ng siljiydi, buziladi va yer yoriqlari paydo bo'ladi. Zilzila markazi, odatda, bir necha 10 metrdan – 100 kilometrgacha bo'lishi mumkin.



*4-rasm. Sel.*

Sel suvining mexanik faoliyatidan yuzaga keladigan murakkab jarayon turli omillar (iqlim, gidrologik, geologik va hokazolar) ta'siri natijasida paydo bo'ladi. Sel 2–10 m/soniya va undan katta tezlikda harakat qiladi. 1 kub metr sel oqimining og'irligi 2 ton-nagacha yetishi mumkin (4-rasm).

Bitta joyning o'zida kuchli sel oqimlarining hosil bo'lishi yog'ingarchilikning ko'p bo'lishi suv oqimi yo'lida tog' jinslarining yemirilishidan hosil bo'lgan tog' massasi bo'lganda paydo bo'ladi. Buning uchun 5–6-yildan 20–25-yilgacha vaqt ketadi.




5-rasm. Suv toshqini.

Sel suv-toshli, loyli va loy-toshli oqim tarzida bo'lishi ham mumkin. Oqim tarkibidagi tosh bo'laklari ayniqsa katta vayronagarchilik keltiradi (5-rasm).

Seldan muhofaza tadbirlari: uni prognozlash, sel kelish ehtimoli bo'lgan hududlarda kuzatuv ishlarini amalga oshirishdir. Sel hosil bo'lishida ishtirok etuvchi omillarning anchagina ko'pligi, murakkabligi uni o'z vaqtida prognozlashni qiyinlashtirib yuboradi. Shunga qaramay, sel mavsumining boshlanish vaqtini oldindan aytib berish mumkin.

Quyun – diametri bir necha o'ndan yuzlab metrga yetuvchi aylanuvchi havo ustunidir. Quyun kichik ko'lamdagi shamol bo'lib, ustundagi havo soat millariga teskari yo'nalishda 100 m/soniyadan ortiq tezlik bilan aylanadi. Quyun yer yuzi bo'ylab 50–60 km/s tezlikda harakat qiladi. Qayd qilingan eng yuqori tezligi – 300 m/soniya.



*6-rasm. Quyun ko‘rinishi.*

Quyunni sezmay qolish mumkin emas. Quyun yaqinlashganda quloqni qomatga keltiruvchi shovqin eshitaladi. U momaqaldiroq yoki boshqacha aytganda quyun bulutidan tug‘iladi, uzun xartum ko‘rinishida yergacha tushadi (6-rasm).

Toshqin-daryolarda iqlim omillari ta’siri, harorat ko‘tarilishi, xususan, qorlarning erishi va jala bilan bog‘liq mavsumiy suv ko‘payishlari natijasida ro‘y berishi bog‘liq. Ayrim hollarda bunday toshqinlar tabiiy ofatlarga aylanib ketadi. Suv toshqinlari to‘rtga bo‘linadi.

Pasttekislik daryolarida 5–10 yilda bir marta kuzatiladi. Bunday suv toshqinida qirg‘oq yaqinidagi maydonlar suv ostida qoladi. Bunday toshqinda unchalik katta bo‘lmagan moddiy zarar yetkaziladi va aholining hayot faoliyati buzilmaydi.

Yuqori – har 20–25 yilda bir marta yuz beriladi, daryo vodiylarining katta maydonlarini suv bosadi. Ayrim hollarda odamlarni xavfsiz joylarga ko‘chirishga to‘g‘ri keladi, anchagina sezilarli moddiy zarar yetkaziladi.

Taniqli – 50–100 yilda bir marta yuz berishi mumkin. U daryo havzalarini qamrab oladi, daryo qirg'oqlarida xo'jalik faoliyati to'xtab qolishi, jiddiy moddiy zarar yetkazilishi ehtimoli bor. Shuning uchun aholi ommaviy ko'chiriladi.

Halokatli – har 100–200 yilda bir marta yuz beradi. Hayot tarzi butunlay o'zgaradi. Halokatli suv toshqinlari ko'plab odamlarning qurbon bo'lishiga olib keladi, muhim xo'jalik obyektlarini muhofaza qilish uchun maxsus tadbirlarni o'tkazishga to'g'ri keladi.

Qor ko'chkisi – tog' va tog' oldi hududlarida yuz beraligan hodisadir. Qor ko'chkisi katta hajmdagi qor massasi bo'lib, 70–100 km/soat tezlikda harakat qiladi. Ayrim hollarda quruq qor ko'chki-sining tezligi 360 km/s ga yetishi ham mumkin (7-rasm).



7-rasm. Qor ko'chki hodisalari.


Ko'chki – 25–30 m o'lchamdagi, 20 sm qalinlikdagi kichkina ko'chkidan paydo bo'lishi mumkin. 150 kub. m hajmdagi ko'chki-

ning og'irligi 20 dan 30 tonnagacha yetadi. Zarb kuchi 1 kv m ga 50 tonnagacha yetadi. Yog'och uylar 1 kv m ga 3 t zarbga bardosh bera oladi. 10 t kuch bilan urilganda asriy daraxtlar ildiz-pildizi bilan qo'porilib chiqishi mumkin.

Qor ko'chkilaridan muhofaza qilish tadbirlari tog'-yon bag'rlarida daraxtzor-o'rmon paydo qilish, kuzatuv ishlarini olib borish, zarurat tug'ilsa yo'naltirilgan maxsus portlatish ishlarini amalga oshirish.

Insoniyat tarixida yuzlarcha dahshatli zilzilalar bo'lib o'tgani yozma manbalardan ma'lum. Yunonistondagi qadimgi Pompey xarobalari shundan dalolat beradi. Olimlar ummon tubidan ko'plab qadimiy shaharlarning xarobalarini topishgan. Hozirgi Issiqko'l qirg'oqlarida ham ko'hna davr inshootlari, saroylar va qasrlarning qoldiqlari hamon saqlanib, qadimiy davrdagi yer silkinishlaridan guvohlik berib turibdi. Oxirgi 50 yil ichida bo'lib o'tgan kuchli zilzilalar ichida vayronagarchilik va qurbonlar miqyosiga ko'ra Chili, San-Fransisko, Tokio, Ashxobod, Armaniston va Toshkentdagi zilzilalar ajralib turadi. 1948-yilgi Ashxobod zilzilasi (100 ming odam halok bo'lgan, 8-9 ball) dan keyingi eng dahshatli fojea Spitak zilzilasi (unda 30 ming odam halok bo'lgan) bo'ldi. Zilzila 1988-yili 7-dekabr kuni sodir bo'ldi. Dastlabki kuchli silkinishning o'zidayoq, 20 ming kishilik aholisi bo'lgan Spitak shahri va uning atrofidagi bir necha qishloqlar butunlay yakson bo'ldi. Aholisi 200 ming kishidan iborat bo'lgan Leninakan shahridagi zamonaviy binolarning yarmidan ko'pi quladi hamda tiklab bo'lmaydigan ahvoliga keldi. Aholisi 120 ming kishidan iborat bo'lgan sanoat markazi Kirovakan shahari va atrofidagi qishloqlar katta talofat ko'rdi.

San-Fransiskoda 1906-yil 18-apreldagi yer qimirlashshi oqibatida 700 kishi halok bo'lgan. Moddiy zarar 1,5 milliard dollarni tashkil qilgan. Ikki kun davom etgan yong'in mobaynida esa 500 ga yaqin kvartal xo'li quruq yonib, qariyb hech narsa qolmagan, hammasi bo'lib 350 ming kishi qurbon bo'lgan (8-rasm).



*8-rasm. Toshqin ko'rinishi.*

Yer yuzidagi zilzilalarning 10 foizi Yaponiyada bo'ladi. 1946–76-yillarda bo'lgan 11 balli zilzilada 5410 kishi halok bo'lgan, vayron bo'lgan uylar 113400 ta, Tokioda 1885-yilda 10000 odam qurbon bo'lgan, 14346 uy vayronaga aylangan.

O'zbekistondagi eng qadimgi zilzilalar haqida yozma axborotlarda ko'rsatilishiga qaraganda, katta ofat keltirgan zilzilalar 818-yilda – Buxoroda, 838-yilda – Farg'onada, 1208-yilda – Xorazmda, 1820-yilda – (8–9) balli Farg'onada bo'lgan. Eng kuchli zilzila O'zbekistonda 1902-yilda 8–9 balli – Andijonda yuz bergan. 1946-yilda Namanganda (Chotqol zilzilasi), 1868- va 1966-yillarda Toshkentda (7–8 ball) kuchli zilzilalar sodir bo'lgan.

Shuningdek, qo'shni hududlar Tojikistonning Hisorida 1907-yili (9–10 ball, unda 15 ga yaqin qishloqlar vayron bo'lgan, 1000 ga ya-



qin odam halok bo'lgan) zilzilalar sodir bo'lgan. 1911-yili Pomirda Sarez zilzilasi yuz bergan. Tog' o'pirilib, Usoy degan to'g'on hosil qilgan. Murg'ob daryosini to'sib qolib, Sarez degan ko'l paydo bo'lgan. 1949-yilda Hayit qishlog'ida, 70 metr balandlikda, uzunligi 5 metr, kengligi 1 kilometr yer o'pirilgan.

Bevosita zararlar: gidrotexnika inshootlari, imoratlar, avtomobil va temir yo'llar, elektr uzatish va aloqa uzatish liniyalari, energotizimlar, melioratsiya tizimlari obyektlaridagi talofatlar; chorva mollari, qishloq xo'jaligi ekinzorlari, yer-suv va hosilning nobud bo'lishi xomashyo, yoqilg'i, oziq-ovqat mahsulotlari, chorva ozuqalari, sanoat mahsulotlari, o'g'itlar va h.k. Zararlanish qolishi; aholini xavfsiz joylarga vaqtincha ko'chirish va moddiy boyliklarni tashish xarajatlari; yerning hosildor qatlami yuvilib ketishi (errosiyasi) va yerlarni balchiq bosishi.

Bilvosita zararlar: oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklar, dori-darmonlar, qurilish materiallari, texnika, chorva ozuqalari va boshqa xomashyo sotib olish va joylarga yetkazib berish xarajatlari; sanoat va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarilishining kamayishi hamda iqtisodiyot rivojlanish sur'atining pasayishi; mahalliy aholi hayot sharoitining yomonlashuvi; suv bosgan hududdan samarali foydalanishning iloji yo'qligi; shuningdek, mahalliy sharoitga bog'liq ba'zi omillar.

Zilzila ta'siri yer silkinishi kuchining xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Yer silkinish kuchiga qarab quyidagi holatlar kuzatiladi:

1 ball – sezilarsiz, faqatgina seysmik asboblari qayd qiladi;

2 ball – juda kuchsiz, uy ichida o'tirgan ba'zi odamlar sezishi mumkin (deraza oynalari titraydi);

3 ball – kuchsiz, ko'pchilik odamlar sezmaydi, ochiq joyda tinch o'tirgan odam sezishi mumkin. Osilgan jismlar asta-sekin tebranadi;

4 ball – o'rtacha sezilarli. Ochiq joyda, bino ichida turgan odamlar sezadi. Uy devorlari qirsillaydi. Uu-ro'zg'or anjomlari titraydi, osilgan jismlar tezda tebranadi;

5 ball – ancha kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg‘onadi, ba’zi odamlar hovliga yugurib chiqadi. Idishlardagi suyuqlik chayqalib to‘kiladi, osilgan uy jihozlari qattiq tebranadi;

6 ball – kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg‘onadi, ko‘pchilik odamlar hovliga yugurib chiqadi. Uy hayvonlari betoqat bo‘ladi. Ba’zi hollarda xonadagi tik buyumlardan, ro‘zg‘or buyumlari javonlaridagi idishlar ag‘darilib tushadi;

7 ball – juda kuchli. Ko‘pchilik odamlarni qo‘rquv bosadi, ko‘chaga yugurib chiqadi, avtomobil haydovchilari harakat vaqtida ham sezadi, uy devorlarida katta-katta yoriqlar paydo bo‘ladi, hovuzlardagi suv chayqaladi va loyqalanadi.

8 ball – yemiruvchi. Xom g‘ishtdan qurilgan imoratlar butunlay vayron bo‘ladi, ancha pishiq qilib qurilgan imoratlarda ham yoriqlar paydo bo‘ladi, uy tepasidagi mo‘rilar yiqiladi, ba’zi daraxtlar butun tanasi bilan yiqiladi, sinadi, tog‘lik joylarda qulash, surilish hodisalari yuz beradi.

9 ball – vayron qiluvchi. Zilzila mustahkam qilib qurilgan imorat va inshootlarni ham qattiq shikastlaydi. Oddiy imoratlar butunlay vayron bo‘ladi, yer yuzasida yoriqlar paydo bo‘ladi, yer osti suvlari sizib chiqishi mumkin.

10 ball – yakson qiluvchi. Hamma imoratlar yakson bo‘ladi. Temir yo‘l izlari to‘lqinsimon shaklga kelib bir tomonga qarab egilib qoladi, yer osti kommunal quvurlari uzilib ketadi, cho‘kish hodisalari yuz beradi. Suv havzalari to‘lqinlanib qirg‘oqqa uriladi, qoyali yon-bag‘rlarda katta-katta surilish, qulash hodisalari sodir bo‘lishi ehtimoli bo‘ladi.

11 ball – fojiali. Hamma imoratlar deyarlik vayron bo‘ladi, to‘g‘onlar yorilib ketadi, temir yo‘llar butunlay ishdan chiqadi, yerning ustki qismida katta-katta yoriqlar paydo bo‘ladi, yer ostidan balchiqlar ko‘tarilib chiqadi, surilish, qulash hodisalari nihoyasiga yetadi.

12 ball – kuchli fojiali. Yerning ustki qismi yer relyefi o‘zgaradi. Hamma imoratlar butunlay vayron bo‘ladi, daryolarning o‘za-

ni o'zgarib sharsharalar paydo bo'ladi, tabiiy to'g'onlar vujudga keladi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi hududining 20 foizga yaqin yeri seysmofaol mintqa hisoblanadi, bunday hududlarga asosan tog'li o'lkalar, Kavkaz orti, Shimoliy Kavkaz, Janubiy Qrim, Moldaviya, Saxalin, Kamchatka, Kuril orollari, Turkmaniston va O'rta Osiyoning tog'li o'lkalari kiradi.

Imoratlarga, inshootlarga zilzilaning ta'siri va xususiyatlari.

Yuqorida keltirilganidek, zilzila ta'sirida imoratlar va inshootlar turli talofat ko'radi. Ko'rilgan talofat darajasi bino inshoot loyihasiga, ishlatilgan qurilish materiallariga bog'liq. Shuning uchun hamma inshootlar va ularning ko'radigan talofatlari davlat standarti bilan tartibga solinadi.

Inshootlar ko'radigan talofatlar quyidagicha tasniflanadi:

1-darajali talofat. Bunda yengil shikastlanish yuz beradi;

2-darajali talofat. Og'ir bo'lmagan shikastlanish sodir etiladi, devorlarda katta bo'lmagan yoriqlar paydo bo'ladi;

3-darajali talofat. Inshootlarning ogar shikastlanishi yuz beradi, devorlarda katta va chukur yoriqlar hosil bo'ladi;

4-darajali talofat. Imorat va inshootlar ichki devorlarining to'liq buzilishi yuz beradi;

5-darajali talofat. Imorat va inshootlar to'liq buzilishi sodir bo'ladi.

Imorat va inshootlarning konstruksiyasi va qurilish materiallariga qarab tasniflanishi;

A guruh – xom g'isht, paxsa devorli imoratlar;

B guruh – pishiq g'ishtdan qurilgan inshootlar;

D guruh – temirbeton, sinchli va yog'ochdan qurilgan inshootlar.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda davlat standarti tomonidan imoratlar guruhining har bir balda ko'radigan talofat darajalari qonunlashtirib qo'yilgan. Jumladan:

6 ball – yer silkinish jarayonida A guruhga mansub inshootlar 2-darajali talofat, B guruhi inshootlari 1-darajali talofat ko'radi.

7 ball – A guruhidagi inshootlar 3-darajali talofat ko‘radi.

8 ball – A guruhidagi inshootlar 5-darajali, B guruhidagi inshootlar ham 3,4 darajali, V guruhidagi inshootlar 2-darajali talofat ko‘radi.

9 ball – B guruhidagi inshootlar 4-darajali, shuningdek, V guruhidagi inshootlar ham 4 darajali talofat ko‘radi.

10 ball – B guruhidagi inshootlar 5-darajali, V guruhidagi inshootlar 4-darajali talofat ko‘radi.

11 ball – B guruhidagi inshootlar to‘liq qulaydi. Tog‘ jinslarining tik va gorizontali yo‘nalishdagi harakati kuzatiladi.

12 ball – amalda yer yuzasida tik inshoot qolmaydi.

Bu fikrlar u yoki bu ballarda zilzila sodir bo‘ladigan hududlarda quriladigan talofat darajasi hisobga olingan holda, faqat ma‘lum guruhdagi inshoot va imoratlar qurilishi lozim, degan so‘zdir.

Zilzila keltiradigan talofat inshootning turiga, konstruksiyasiga bog‘liq bo‘lishi bilan bir qatorda, qurilish maydonlarining muhandis geologik sharoitiga, ya‘ni tog‘ jinslari turlarining mustahkamlik darajasiga, xossa va xususiyatlariga bog‘liq. Masalan, 1966-yili Toshkent shahrida bo‘lgan yer silkinishi natijasida shaharning yer osti suvlari sathi yer yuzasiga yaqin bo‘lgan pastqam joylarda joylashgan imoratlar kuchli talofat ko‘rdi. Shundan keyin 1966-yili shahar hududida qayta muhandis geologik xaritalash ishlari o‘tkazilib, shahar markazi tuproq sharoiti nuqtayi nazaridan 9 ballik mintaqaga o‘tkazildi. Bu degan so‘z, 9 ballik mintaqada quriladigan inshootlar konstruksiyasiga va usuliga ma‘lum talablar qo‘yish va ularni bajarishni talab qiladi.

Seysmofaol hududlarda qurilish ishlarini olib borishda davlat tomonidan tasdiqlangan qonun-qoidalarga, talablarga rioya qilinmog‘i zarur. Ya‘ni shahar qurilishida imoratlarning balandligiga va shakliga katta talablar qo‘yiladi, ular quyidagilardan iborat:

– shahar hududida katta-katta ochiq maydonlarning bo‘lishi, ya‘ni zilzila sodir bo‘lgan taqdirda, keyin odamlarning yashashi uchun yengil qurilmalar qurish uchun xavfsiz joy zarur;

– suv havzalarining bo‘lishi, ya’ni zilzila vaqtida chiqishi mumkin bo‘lgan yong‘inlarni o‘chirish maqsadida foydalanish uchun suv zaxirasiga ega bo‘lish;

– inshootlar orasidagi masofa, inshoot balandligidan 1,5 marta uzoq bo‘lishi, chunki imorat talofat ko‘rganda bir-biriga ta’sir qilmasligi kerak.

Inshootlar yer silkinishiga bardosh berish xususiyatiga ko‘ra 3-guruhga bo‘linadi:

A) 7 ballgacha chidaydigan kuchsiz seysmochidamli uylar. Bunga tuproqdan, g‘ishtdan qurilgan uylar kiradi.

B) 8 ballgacha chidaydigan uylar. Bu xildagi uylar har xil yog‘och karkaslardan tayyorlanadi (sinchli uylar).

D) 9 ballgacha chidaydigan seysmochidamli uylar. Bu xildagi uylarga katta metall karkaslardan tayyorlanadigan, temirbeton konstruksiyalardan qurilgan inshootlar kiradi.

Yer silkinish oqibatlarini tugatish chora-tadbirlari.

Zilzilaning oqibatlarini tugatishda ishga yaroqli har bir kishi ishtirok etishi zarur va quyidagi ishlar birlamchi hisoblanadi:

– Yer tagida, buzilgan va yonayotgan uyda qolgan odamlarni qutqarish;

– Ishlab chiqarish, kommunalenergetik tizimlarda sodir bo‘ladigan avariyaalarning oldini olish va to‘g‘irlash (chunki bular inson hayotiga xavf soladi);

– Buzilgan uylarni, inshootlarni tiklash;

– Talofat ko‘rganlarga tibbiy yordam ko‘rsatish shaxobchalarini tayyorlash;

– Yer silkinish o‘chog‘ida suv ta‘minotini tiklash. Albatta, mana shu ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan har bir odam ehtiyot choralarni ko‘rgan holda, kerakli joylarda shaxsiy himoya vositalardan foydalanishlari zarur. Hech qanday o‘zboshimchalik, belgilanmagan chora-tadbirlar va xatti-harakatlarni amalga oshirish man etiladi.

Zilzila boshqa turdagi tabiiy ofatlarni, falokatlarni, masalan, yer surishishi, suv toshqini, qor ko‘chkisi, yong‘in chiqishi hamda ava-

riyalarni: kommunalenergetik tizimlarining izdan chiqishi, kimyo sanoati korxonalarida avariya natijasida KTZMlarning tashqariga to'kilishi, AESlarda radioaktiv moddalarni atmosferaga chiqishi va boshqa xavfli ofatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ammo, hozirgacha zilzilaning aniq vaqtini va joyini ayta oladigan uslub yo'q. Lekin yerning tavsifli xususiyatlari, tirik mavjudodlarning xatti-harakatlari o'zgarishiga qarab, olimlar zilzila haqida muayyan ma'lumotlarni beradilar.

Zilzilani belgilaydigan ayrim ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: kuchsiz tebranish chastotasining keskin o'sishi, yer deformatsiyalanishi, tog'-jinlarining elektr qarshiligi o'zgarishi, yer osti suvlari sathining ko'tarilishi, yer osti suvlarida radon miqdorining ortishi va boshqa o'zgarishlar.

Bulardan tashqari, zilzila oldidan uy hayvonlarining xatti-harakatlari ham o'zgaradi. Maslan, mushuklar tashqariga chiqib ketadi, qushlar o'z uyalaridan uchib chiqadi, chorva mollari juda bezovta bo'lib qoladi va b.

Fan va texnikaning rivojlanishi so'zsiz zilzilani oldindan bashorat qilish imkoniyatini beradi. Jumladan, yuqorida ta'kidlanganidek, yer osti suvlarida yer silkinishidan oldin radon gazi miqdorining oshishi qonunini birinchi bo'lib o'zbek olimi G'ani Mavlonov tomonidan aniqlangan. Bu qonuniyat Toshkent zilzilasi oqibatlarini o'rganishda o'z tasdig'ini topdi. Hozirgi kunda bu usul bilan Respublikamizda va Markaziy Osiyo davlatlarida ro'y bergan bir necha zilzilalar bashorat qilindi va tegishli chora-tadbirlar ko'riladi.

Shu yerda ta'kidlab o'tish kerakki, respublikamizda 136 ta shahar mavjud bo'lib, ulardan 13 tasi yirik shaharlar hisoblanadi. Shaharlarda qurilishlar 5 ta toifa bo'yicha amalga oshirilib, ular qayerda joylashishidan qat'i nazar halqa yo'li bilan belgilanishi zarur. Chunki FVda fuqarolarni faqat tranzit yo'llari orqali (jumladan, halqa yo'llari orqali) harakat qilishga yo'naltirish lozim.

Shuning uchun har bir korxonaga rahbari zilzila oqibatlarini kamaytirishning asosiy tadbirlarini bilishi zarur. Bular quyidagilardan iborat:

– hududning seysmik xaritasi, unda zilzila bo‘lish ehtimoli bor joylar va uning kuchi ko‘rsatiladi;

– zilzilaga bardosh beradigan uylar va sanoat inshootlarini qurish;

– zilzila sodir bo‘lib qolgan holda aholi o‘zini qanday tutishi va xatti-harakatlari haqida tushuntirish;

– seysmik stansiyalarda uzluksiz navbatchilikni tashkil qilish va olib borish;

– zilzilalar haqida aniq xabar va aloqa tizimini tashkil qilish;

– qutqaruv, kuch va vositalarni tayyor holga keltirib qo‘yish;

– aholini xavfsiz, o‘z vaqtida evakuatsiya qilish tadbirlarini ishlab chiqish;

– moddiy-texnik ta‘minoti (plakatlar, oziq-ovqat, dori-darmon) zaxiralarini tashkil qilish;

– zilzila haqida xabar beruvchi belgilarni aholiga tushuntirish va o‘z vaqtida qo‘llash.

Zilzilani tavsiflaydigan belgilar quyidagilardan iborat:

– yer ostki suvlarining fizik-kimyoviy tarkibining o‘zgarishi (laboratoriyada aniqlanadi);

– qushlar va uy hayvonlarining bezovtalanishi, gaz hidining ke-lishi, havoda chaqmoq chaqishi va yorug‘lik paydo bo‘lishi;

– bir-biriga yaqin, lekin tegmayotgan elektr simlaridan uchqun chiqishi, uylarning ichki devorlarda zangori shu‘lalar paydo bo‘lishi va lyuminitsent lampalarining o‘z-o‘zidan yonishi.

Mana shu belgilarni bilgan har bir fuqaro yoki zilzila haqida xabar eshitganda, sarosimasiz va ishonchli harakat qilishi kerak. Zilzila haqida oldindan xabar berilsa, uyri tashlab chiqishdan avval, gaz va boshqa isitgich asboblarini o‘chirish, bolalar va qariyalarga yordam berish, zarur buyumlarni, oziq-ovqat, dori-darmonlarni va hujjatlarni olib, ko‘chaga chiqishlari kerak. Agar zilzila kutilmaganida boshlanib qolsa, u holda deraza va eshik oraliqlariga yoki ko‘taruvchi ustunlar tagiga turib olish zarur. Dastlabki silkinish zarbasi tinishi bilan zudlikda tashqariga chiqish shart. Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, ko‘p qavatli binolarning eng nozik, ishonchsiz joylari zinapoya va lift shaxtalaridir. Shuning uchun zilzila

boshlangan paytda zinapoyalardan yugurish tavsiya etilmaydi va liftlardan foydalanish taqiqlanadi.

Korxonalar va muassasalarda zilzila paytida ish to'xtatiladi. Elektr toki suv, gaz va bug'lar to'xtatilib, fuqarolar muhofazasi qismlaridagi ishchi va xizmatchilar oldindan belgilab qo'yilgan joyga to'planadilar, boshqalar esa xavfsiz joylarga o'tkaziladi.

Zilzila vaqtida uyda bo'lmagan fuqarolar uyga shoshmasligi, balki o'sha joy rahbarlarining ko'rsatmalarini diqqat bilan kutib, unga rioya etgan holda harakat qilishlari kerak. Zilzila vaqtida jamoat transportining to'la to'xtatilishini kutib, oldin bolalarni, nog'iron va qariyalarni tushirish kerak. Yurib ketayotganda sakrab tushib qolish yaramaydi, zilzila vaqtida jabrlanganlarga asosan yordamni fuqarolar muhofazasi qismlari beradi, lekin zarur bo'lgan hollarda aholining ham yordam berishi maqsadga muvofiqdir.

Tabiiy ofat oqibatlarini quyidagi omillarga bog'liq rahbarlik tarkibining, boshqaruv idoralarining, kuch va vositalarning shaylik darajasi;

- axborot berish tizimining mavjudligi, uning ishlash samaradorligi;

- favqulodda vaziyatlar chegarasi vaqtida avariya-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarning mohirona amalga oshirilishi, uyushqoqlik;

- favqulodda vaziyatlarga xalq xo'jaligi obyektlari va aholining tayyorgarligi.

Prognozlashda ilk talofatlar va ularning oqibatlaridan tashqari, quyidagi ikkilamchi omillar ham hisobga olinadi:

- suv va yer yuzasining turli zararli moddalar bilan ifloslanganligi;

- odamlar va hayvonlarning kasallanganligi;

- transport va energomagistral tizimlaridagi falokatlar;

- ko'chiklar, o'pirilishlar va h.k.;

- imorat va inshootlarning chidamlilik xususiyati yo'qolganligi;

- atrof-muhitdagi ekologik buzilishlar;

- shuningdek, halokat sodir bo'lgan obyekt va joydagi alohida sharoitga bog'liq boshqa salbiy oqibatlar.



## **2.2. Texnogen avariya turlari, kelib chiqish sabablari va muhofaza tadbirlari**

Avariya va falokatlar iqtisodiyot obyektlarida mashina mexanizmlar, texnologik jarayonlar va hududlarda yuz berishi ehtimoli bo'lgan favqulodda vaziyatlarga bog'liq ravishda kelib chiqadi. Quyida texnogen avariya lar, ularning sababi va oqibatlariga to'xtalib o'tamiz.

Yong'in va portlash bilan bog'liq avariya va halokatlardagi; favqulodda vaziyatlarning asosiy sabablari, ularning salbiy oqibatlari:

- yong'in va portlashlarning asosiy sabablari;
- birlamchi va ikkilamchi shikastlovchi omillar;
- yong'indan zaiflikni oshiruvchi omillar;
- yong'in va portlashlarning oldini oluvchi chora-tadbirlar;
- yong'in va portlashdan xavfli obyektlarni toifalarga bo'lish;
- portlash;
- portlashning asosiy shikastlovchi omillari.

Yong'inga qarshi kurash chora-tadbirlari: huquqiy, me'yoriy, tashkiliy, muhandis-texnik tayyorgarliklarni o'z ichiga oladi.


Yong'in va portlash oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlardan aholini va hududlarni muhofaza qilish tadbirlari: oldini olish, qutqarish (9–10-rasmlar).

O'zbekiston Respublikasining (30. 09. 2009) «Yong'in xavfsizligi to'g'risida»gi Qonuni bunday FVda chora-tadbirlarni aniqlaydigan huquqiy asos hisoblanadi.


Yong'indan saqlash xizmatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Yong'inlar profilaktikasini o'tkazish va yong'in xavfsizligi talblariga rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

Yong'inlarni o'chirish, yong'in hududida qolgan odamlarni hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkini qutqarish.



9-rasm. Yong'inni paydo bo'lishi.



10-rasm. Obyektlarda yong'in.

Transnordagi avariya va halokatlar:

- havo transportidagi avariya va halokatlar;
- temir yo'l transportidagi avariya va halokatlar;
- avtomobil transportidagi avariya va halokatlar;

– neft, gaz qazib chiqarish skvajinalarida va magistrallarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan avariyaalar;

– Energetika tizimidagi avariyaalar;

– Kommunal xo‘jalikdagi avariyaalar;

Yuqorida ko‘rsatilgan avariyaalar sharoitida aholining harakati va ish faoliyati:

– xabar berish;

– qutqarish;

– yordam.

Transportning xohlagan turi inson salomatligi va hayoti uchun xavf tug‘diradi. Texnik taraqqiyot bir vaqtning o‘zida harakatlanish qulayligi va tezligi bilan birga anchagina katta darajadagi xavf-xatarni ham yuzaga keltiradi. Transport avariyaasining turidan kelib chiqib, yo‘lovchilar ko‘plab jarohat va kuyish, jumladan inson hayoti uchun xavf tug‘diradigan shikastlarni olish ehtimoli mavjud.

**Temir yo‘l transportidagi avariyaalar.** Temir yo‘l transportidagi avariya va halokatlarga asosan yo‘llar, harakatdagi tarkib, signalizatsiyaaning nosozligi, dispetcherlar xatosi, mashinistlarning e‘tiborsizligi va loqaydligi sabab bo‘ladi.

Harakatdagi tarkibning relslardan chiqib ketishi, to‘qnashuvlar, pereezdlardagi to‘siqlarga borib urilish, bevosita vagonlarning o‘zida yong‘in va portlashlarning kelib chiqishi ko‘proq sodir bo‘ladi. Shunga qaramay, poezdda yurish samolyotda uchishdan taxminan uch marta, avtomobilda yurishdan 10 marta xavfsizroqdir.

**Asosiy profilaktika qoidalari.** Xavfsizlik nuqtayi nazaridan olib qaraganda poezddagi eng yaxshi joylar markaziy vagonlar, avariya chiqish joyi – derazasi mavjud bo‘lgan yoki chiqish eshigaga yaqin joylashgan kupelar, pastki o‘rindiqlardir.

Vagon chiqishingiz bilanoq, avariya chiqish joylari va o‘t o‘chirgichlar qayerda joylashganligini bilib oling. Quyidagi qoidalarga rioya qiling:

- poezd harakatda bo‘lgan vaqtda tashqi eshiklarni ochmang, zinalarda turmang va derazadan boshingizni chiqarmang;
- yuklaringizni yuqoridagi yuk joylashtiriladigan tokchalarga yaxshilab joylashtiring;
- zarurat bo‘lmasa stop-kranni ishga tushirmang;
- hatto yong‘in chiqqan taqdirda ham ko‘prik ustida, tunnelda va evakuatsiya o‘tkazish qiyinlashib ketadigan boshqa joylarda poezdni to‘xtatish mumkin emasligini yodda tuting;
- faqat belgilangan joylarda cheking;
- o‘zingiz bilan yonuvchi, kimyoviy va portlash xavfi mavjud moddalarni olmang;
- vagonning elektr tarmog‘iga maishiy uy-ro‘zg‘or asboblarini olmang;

– yonayotgan rezina hidini sezsangiz yoki tutun paydo bo‘lsa, zudlik bilan vagon kuzatuvchisiga murojaat qiling.

Avariya vaqtida yonilg‘i to‘kilib ketgan bo‘lsa, poezddan xavfsiz uzoq masofada turing, yong‘in yoki portlash hodisasi sodir bo‘lishi mumkin.

Tok o‘tuvchi sim uzilib, yerga osilib qolgan bo‘lsa, undan sakrab-sakrab qisqa qadamlar bilan uzoqlashing. Elektr toki yer yuzasi bo‘ylab uzatiladigan masofa 2 metrdan (quruq yer) 30 metrgacha (nam yer) bo‘lishi mumkin.

**Avtomobil transportidagi avariyaalar.** Avtomobil transportida avariyaalarning 75 foizga yaqini haydovchilarning yo‘l harakati qoidalarini qo‘pol buzishi oqibatida kelib chiqadi. Tezlikni oshirish, yo‘l belgilarga e‘tiborsiz bo‘lish, qarama-qarshi yo‘lakka o‘tib olish va avtomobilni mast holda boshqarish har doimgidek, qoidabuzarlikning yanada xavfli ko‘rinishi bo‘lib qolmoqda. Avariyaalarga ko‘pincha yo‘llarning yaroqsiz holga kelishi (asosiy sirpanchiq), mashinalarning nosozliga (birinchi o‘rinda tormoz, ikkinchi o‘rinda rul boshqaruvi, uchinchisi g‘ildirak va shinalar) sabab bo‘ladi.

Avtomobil avariylarida jarohatlanganlarning 80 foizi ko'p qon yo'qotish oqibatida dastlabki uch soatda halok bo'ladi.

Jamoat transportida o'tirishga joy bo'lmagan taqdirda salonning markaziga o'tib turishga harakat qilinadi. Avariya va zaxira chiqish yo'llarining joylashuviga e'tibor beriladi. Tramvay va trolleybuslarning elektr manbayi ishchining elektrdan jarohatlaniishda qo'shimcha xatar keltirib chiqaradi (ayniqsa, yog'inli havoda). Shuning uchun o'tiradigan joylar xavfsizroq hisoblanadi. Agar salon kuchlanish ostidaligi ma'lum bo'lsa, uni tark etish lozim. Avariya vaqtida chiqish yo'lida tiqilinch bo'lishi mumkin. Bunday paytda avariya chiqish yo'lidan foydalaniladi.

**Havo transportidagi avariylar.** Aviatsiya halokatlari ko'plab hollarda sabab bilan sodir bo'ladi. Samolyotning ayrim konstruksiyalarini buzilishi, dvigatellarning ishlamay qolishi, boshqaruv tizimi, elektr, aloqa, o'chirish tizimining ishdan chiqishi, yoqilg'i yetishmasligi, ekipaj va yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlashdagi uzilishlar og'ir oqibatlarga olib keladi.

**Dekompressiya** – bu samolyotning germetikligi buzilganda salondan havoning siyraklashishidir. Tez dekompressiya, odatda, qattiq g'uvillash bilan boshlanadi (havo chiqib ketayotgan bo'ladi). Salon chang va tuman bilan to'ladi. Odamning ko'rish qobiliyati birdan pasayadi, o'pkasidan havo tez chiqib keta boshlaydi va umuman ushlab qolib bo'lmaydi. Bir vaqtning o'zida quloqlarda shing'illash va ichakda og'riq paydo bo'lishi mumkin.

Har qanday vaziyatda ham vahimaga berilmasdan, dadil harakat qilinsa, bu insonning omon qolishiga yordam beradi.

**Suv transportidagi avariylar.** Suvdagi yirik halokatlar va avariylarning ko'pchiligi bo'ron, dovul, tuman, muzlar sababli, shuningdek, kapitanlar, lotsmanlar va ekipaj a'zolarining aybi bilan sodir bo'ladi. Avariylar ko'pincha kemalarni loyihalashtirish va qurilishidagi yanglishish va xatoliklar tufayli ham yuz berishi mumkin.

Yo'lovchini muhofaza qilishning dastlabki chorasi sifatida kema-ning yuqori sathigi ko'tarilib, kemachalariga olib boradigan yo'lni eslab qolishni tavsiya qilish mumkin. Chunki halokat paytida, ayniqsa, tutun ichra kema-yonboshga qiyshayib qolganda mo'ljal olish qiyinlashadi.

Suvda havoga nisbatan issiqlikni yo'qotish bir necha barobarga tezlanadi. Shuning uchun hattoki, iliq suvdagi harakat ham faqat suv yuzasida qolishga qaratilgan bo'lishi kerak.

**Kimyoviy avariya** – bu ishlab chiqarishdagi texnologik jaryonlarning buzilishi, quvur o'tkazgichlar sig'implari, qo'riqlanadigan omborxonalar transport vositalarining shikastlanishi natijasida odamlarning sog'lig'i va hayoti uchun, biosfera faoliyati uchun zararli bo'lgan kimyoviy xavfli moddalarning chiqib ketishidir.

Avariya tug'diruvchi (kimyoviy xavfli moddalar (AKXM) – asosan ammiak, fosgen, sinil kislota, qo'rg'oshinli angidrid va boshqalarning yirik zaxiralari kimyo, selluloza qog'oz va qayta ishlash kombinatlari mineral o'g'itlar, qora va rangli metallurgiya zavodlari, shuningdek, muzlatuvchi kombinatlar, pivo zavodlari, qandolatchilik fabrikalari, sabzavot bazalari va suv stansiyalarida mavjud.

Kimyoviy avariyaning insonlar va hayvonlar uchun xavfi, organizm me'yori, hayot faoliyatining buzilishi va kelgusida genetik oqibatlar keltirib chiqarishi mumkinligi bilan belgilanadi. Ma'lum sharoitlarda esa organizm kimyoviy moddalarning nafas yo'llari, og'iz shilliq pardalari, yaralar va oziq-ovqatlar orqali tushishi, hatto o'limgacha olib kelishi mumkin.

**Radiatsiyaviy avariya** – bu yadroviy-energetik qurilmalar, uskunalar yoki moslamalardan foydalanish qoidalari buzilishi natijasida aholining nurlanishi va atrof-muhitning ifloslanishiga olib keladi. Bunga radioaktiv mahsulotlar yoki ionlashtiruvchi nurlarning ulardan xavfsiz foydalanish bo'yicha loyihada belgilangan doiralardan chiqishi sabab bo'ladi.

Bunday avariyalarning asosiy zararlovchi omillari radiatsiyaviy ta'sir va radioaktiv ifloslanish hisoblanadi. Avariyalar portlash va yong'inlar bilan kechishi mumkin.

Insonga radiatsiyaviy ta'sir turli organlar(asab tizimi, oshqozon-ichak yo'llari)ning hayotiy funksiyalari buzilishi va ionlashgan nurlanishlar ta'siri ostidagi nurlanish kasalliklarining rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Radioaktiv ifloslanish alfa, beta va gamma-ionlashgan nurlanishdan kelib chiqadi va avariya paytida qayd etish qiyin bo'lgan elementlar ajralib chiqishi, shu bilan birga yadro reaksiyasi hosilalarining bo'linishi (radioaktiv qurum, yadro mahsuloti bo'laklari), shuningdek, turli radioaktiv materiallar: predmetlar (masalan, tuproq) tashkil topishida namoyon bo'ladi.

Gidrotexnik inshootlarda favqulodda vaziyatlarga olib keluvchi asosiy sabablar va ularning salbiy oqibatlari.

**Gidrotexnik avariya** – bu gidrotexnik inshoot yoki uning bir qismi izdan chiqishi (buzilishi) va katta hududlarning boshqarib bo'lmaydigan suv massasi ostida qolishi bilan bog'liq favqulodda hodisadir.

Gidrotexnik inshootlarning buzilishi tabiat kuchlarining harakati (zilzila, dovul, to'g'onlarning yuvib ketilishi) yoki inson ta'siri (yadroviy yoki oddiy qurol bilan gidrotexnik inshootlar, yirik tabiiy to'g'onlarga zarba berish), shuningdek, loyihalashdagi xatolar yoki qurilishdagi nuqsonlar tufayli yuzaga keladi.

#### **Gidrodinamik avariyalarning oqibatlari:**

– gidrouzellarning shikastlanishi va buzilishi hamda qisqa yoki uzoq vaqt davomida o'z funksiyalarini bajara olmay qolishi;

– gidrotexnik inshootlar buzilishi natijasida yuzaga keladi, balandligi 2 metrdan 12 metrgacha bo'lgan va tezligi 3–25 km/s (tog'li hududlar 100 km/s gacha) bo'lgan to'liqinning odamlarga talafot yetkazishi: binolarning vayron qilishi:

– katta hududlarning 0,5–10 m va undan ko‘proq balandlikdagi suv ostida qolishi.

Umumiy holda, FVda ularning zararini kamaytirish, oqibatini yumshatish, bartaraf qilish bo‘yicha tadbirlar ishlab chiqiladi. Bunda fuqaro muhofazasi muhandislik-texnik tadbirlari amalga oshiriladi. Tadbirlar aholini muhofaza qilish, FV keltiradigan zararni kamaytirish, iqtisodiyot obyektlari, tarmoqlarining ishlash barqarorligini oshirish, va tabiiy ofat hududlarida qutqarish ishlarini olib borish uchun kerakli sharoit yaratish bilan bog‘liq.

Fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni bajarish uchun davlat organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning vakolatlarini hamda fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini jamlash maqsadga muvofiqdir. Jumladan,

1. Aholi va obyektlarni FV paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan xavflardan himoyalash harakatlari va usullariga tayyorlash.

2. Boshqaruv, xabar berish va aloqa tizimlarini tashkil etish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish.

3. Xalq xo‘jaligi obyektlarining barqaror ishlashini ta‘minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o‘tkazish.

4. Aholini, moddiy va madaniy boyliklarini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish.

5. Aholini umumiy va shaxsiy himoya vositalari bilan ta‘minlash tadbirlarini o‘tkazish.

8. Radiatsiyaviy, kimyoviy va biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish.

9. Qutqaruv va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni o‘tkazish.

10. FVda zarar ko‘rgan hududlarda jamoat tartibini yo‘lga qo‘yish va saqlab turish.

11. Aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.



Mana shu vazifalarni muvaffaqiyatli olib bormay turib, zararlangan hududlarda, obyektlarda mo‘tadil hayot faoliyatini yaratib bo‘lmaydi. Bu ishlar davlat organlari orqali, fuqaro muhofazasi boshchiligida butun xalq yordamida amalga oshiriladi.

*Nazorat savollari:*

1. *«Fuqaro muhofazasi» to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qachon qabul qilingan?*
2. *«Aholi va hududlarni tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish» to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonuni qachon qabul qilingan?*
3. *«Terrorizimga qarshi kurash to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qachon qabul qilingan?*
4. *Fuqaro muhofazasiga doir O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning qanday qarorlarini bilasiz?*
5. *Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimining ish rejimlari nechta?*
6. *Kundalik rejim deganda nima tushiniladi?*

**AVARIYA-QUTQARUV VA BOSHQA  
KECHIKTIRIB BO‘LMAYDIGAN ISHLAR**

Barcha pog‘onalardagi fuqaro muhofazasi boshqarmalarining va avariya-qutqaruv ishlari (AQI)ni o‘tkazish haqidagi qarori oldindan, tinchlik davrida qabul qilinadi va u tinchlik davriga hamda harbiy harakatlar davriga mo‘ljallangan fuqaro muhofazasi rejalarining tarkibiy qismi hisoblanadi. Biroq, fuqaro muhofazasi boshlig‘ining qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlar o‘tkazish haqida oldindan qabul qilgan qarori taxminiy tuzilgan bo‘ladi. Shunga qaramay, u ishlarni o‘tkazishga ta’sir ko‘rsatadigan yil fasli, kecha-kunduz vaqti, meteorologik va boshqa omillar hisobga olingan amaldagi sharoitga muvofiq o‘tkazish boshqaruv organlari ishini yengillashtiradi.

Qutqaruv va shoshilinch ishlarini bajarish uchun tinch vaqtda iqtisodiyot obyekti boshlig‘ining buyrug‘i bilan guruhlar tuzilgan bo‘lishi kerak. Har qaysi tarmoq boshchiligida guruhlar, favquloddagi vaziyat yuz berganda, o‘z vazifalarini bajarishga kirishishlari lozim. Qutqaruv ishlarini olib borishga kerakli kuchlar va vositalar aniqlanadi. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari belgilanadi.

Mahalliy davlat hokimiyati organlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida:

- favqulodda vaziyatlar chog‘ida aholini va hududlarni muhofaza qilish bo‘yicha harakatlar rejasini ishlab chiqadilar;
- aholining va hududlarning muhofazalanishiga oid axborotlar belgilangan tartibda almashinilishini, shuningdek, favqulodda vaziyatlar tahdidi borligi yoki ro‘y berganligi to‘g‘risida aholi o‘z vaqtida voqif va xabardor etilishini amalga oshiradilar;
- moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratadilar, favqu-

lodka vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini moliyalashni amalga oshiradilar;

– idoraviy mansubligidan qat’i nazar, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlarda barqaror ishlash imkoniyatini oshirishga yordamlashadilar;

– favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish bo‘yicha korxonalar, muassasa va tashkilotlar kuchlari hamda vositalarining shay holda turishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

– avariya, halokat, tabiiy ofatlar sodir bo‘lgan hududlarda qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlarni amalga oshirish uchun avariya-qutqaruv kuchlari (shu jumladan tezkor harakat bo‘linmalari) va maxsus tuzilmalarning doimo shay bo‘lib turishini tashkil etadilar;

– avariya-qutqaruv ishlari va kechiktirib bo‘lmaydigan boshqa ishlarni tashkil etadilar hamda amalga oshiradilar, shuningdek, bunday ishlar o‘tkazilishi chog‘ida jamoat tartibi saqlanishiga ko‘maklashadilar;

Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradilar.

Iqtisodiyot obyektlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi majburiyatlari belgilangan.

Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida:

– xodimlar hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy obyektlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha zarur choralarni rejalashtirishlari, moliyalashlari va amalga oshirishlari;

– xavf manbai yuqori bo‘lgan obyektlar xavfsizligi to‘g‘risida belgilangan tartibda deklaratsiya taqdim etishlari;

– xodimlarni favqulodda vaziyatlar sharoitida harbiylashtirilmagan tuzilmalar tarkibida muhofazalanish usullariga va harakat qilishga o‘rgatishlari;

– xabar berish mahalliy tizimlarini yaratishlari va doimo shay holatda saqlab turishlari hamda favqulodda vaziyatlar tahdidi borli-

gi yoki ro'y berganligi to'g'risida xodimlarni o'z vaqtida xabardor qilishlari;

– favqulodda vaziyatlar sharoitida obyektlar ishi hamda xodimlar hayot faoliyati barqaror kechishini ta'minlashlari;

– muhandislik-himoya inshootlari, zaruratga qarab, oldindan barpo etilishini ta'minlashlari hamda ularni doimo shay holatda saqlab turishlari;

– favqulodda vaziyatlar ro'y berish ehtimolini nazarda tutib, belgilangan tartibda moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratishlari;

– favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish kuchlari va vositalari yaratilishini, tayyorgarlikdan o'tkazilishini hamda shay bo'lib turishini ta'minlashlari;

– favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish rejalariga muvofiq. O'z tasarrufidagi obyektlarda avariya-qutqaruv ishlari o'tkazilishini ta'minlashlari;

– belgilangan tartibda ixtisoslashgan xizmatlar va tuzilmalarni yaratishlari, ularni shaxsiy tarkib, texnika va anjom bilan to'ldirishlari;

– belgilangan tartibda evakuatsiyaga oid tadbirlarni o'tkazishlari va odamlarni joylashtirish uchun oldindan bazalar tayyorlab qo'yishlari;

– belgilangan tartibda favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida axborotlar taqdim etishlari shart.

– fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishdagi ishtiroki;

– fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari: aholi maskanlari, suv ta'minoti manbalari, ijtimoiy va madaniy obyektlarning sanitariya va ekologik holati ustidan nazorat amalga oshirilishiga yordam beradilar;

– fuqarolarni favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishga jalb qiladilar;

– qonun hujjatlariga muvofiq boshqa choralarni amalga oshiradilar. Avariya-qutqaruv ishlari fani fuqaro muhofazasi maxsus

tadbirlarining bajarilishini ta'minlash hamda ushbu maqsadlarda kuch va vositalarni tayyorlash uchun respublika, viloyat, tuman, shahar, shuningdek, obyekt miqyosidagi fuqaro muhofazasi xizmatlari tashkil etiladi. Fuqaro muhofazasi xizmatlarining turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqaro muhofazasi kuchlari, Fuqaro muhofazasi qo'shinlari tizimlaridan tarkib topadi. Fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarining tarkibi, ularning tarkibiy tuzilishi, shuningdek, muhofaza turlari faoliyatining boshqa jihatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi boshlig'i tomonidan belgilab qo'yiladi.

Fuqaro muhofazasi vazifalarini hal etishda FVV kuchlaridan tashqari O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining qutqaruv tizimlari, qismlari ham jalb etilishi mumkin. Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasining qo'shinlari O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi kuchlarining asosini tashkil etadi.

## **2. 1. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishning tashkiliy asoslari**

AQIning o'tkazish uchun fuqaro muhofazasi boshqarmalarining qarori, sharoitga berilgan bahodan kelib chiqqan xulosalarga asoslanadi. Shu maqsadda hamma fuqaro muhofazasi organlari tabiiy ofatlar, avariya, halokatlar sodir bo'lganda, o'z ixtiyoridagi umumiy va maxsus razvedka kuchlari va vositalarining hamma imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanib, tasarrufidagi va o'zaro hamkor organlardan, harbiy qo'mondonlik organlaridan, qo'shnilardan, shuningdek, yuqoridagi fuqaro muhofazasi organlaridan va boshqa manbalardan sharoit haqida ma'lumot to'plashni tashkil etadi.

Favqulodda murakkab sharoit razvedka faoliyatini jiddiy qiyinlashtirib va AQIning o'tkazish uchun qarorga kelishga zarur bo'lgan to'liq, hamma ma'lumotlarni qisqa muddatda olishga imkon bermay qo'yishi mumkin. Bunday holda yetishmay turgan ma'lumotlar sharoitga ta'sir etadigan hamma omillarni – zilzila joyi, vaqti,

kuchini, toshqin (suv bosish) xarakterini, yil faslini, sutka vaqtini, meteosharoit va boshqalarni hisobga olib, sharoitni oldindan taxminlash yo'li bilan olinishi kerak.

Zilzilalarning, toshqinlarning koordinatalari haqidagi ma'lumotlar, meteoma'lumotlar va boshqa xabarlar fuqaro muhofazasi organlaridan, qo'l ostidagi va qo'shni organlardan, Qurolli Kuchlar harbiy qo'shilmalari va birlashmalarning shtablaridan, fuqaro muhofazasi boshqaruv organlaridan hamda maxsus tayyorlangan fuqaro muhofazasi maskanlaridan olinishi mumkin.

Sharoit haqidagi ma'lumotlar tahliliga (ularga berilgan bahoga) asosan fuqaro muhofazasi xizmatlari boshqaruvi qabul qiladigan qarorlar yuzasidan xulosalar va takliflar tayyorlab, fuqaro muhofazasi boshlig'iga axborot beradi. Fuqaro muhofazasi boshlig'iga beriladigan xulosalar va takliflarda zaruriy ma'lumotlar to'liq bo'lishi kerak. Sharoitga baho berishda esa fuqaro muhofazasi boshliqlari maxsus ma'lumotlarni o'rganib chiqadi.

Shikast o'chog'ida (tabiiy ofat, avariya, halokat joyida) vazifalarni tushunib olish va sodir bo'lgan sharoitga baho berish yuzasidan shaxsan ishlash natijasida, shuningdek, fuqaro muhofazasi organlarining xulosalari va takliflarini hisobga olib, fuqaro muhofazasi boshliqlari shikast (zararlanish) o'choqlarida AQIning o'tkazish haqida qarorga keladi. Qarorga kelishni ta'minlash uchun fuqaro muhofazasi boshlig'i boshqarish xizmatlari va boshqa organlari bilan birgalikda sharoitlarni o'rganib, ularga baho berib chiqadi.

AQIning o'tkazishda kerakli texnik vositalar va kuchlarni hisobga olish zaruriyatidan kelib chiqib, ularni ta'rifini quyidagicha keltirish mumkin.

Radiatsion sharoitga baho berishda radioaktiv bulut harakati-ning tezligi va yo'nalishlari; radioaktiv zaharlanish hududlarining chegaralari; evakuatsiya jarayonidagi fuqaro muhofazasi kuchlarining tez harakatlanadigan marshrutlari va qutqaruv ishlari o'tkazilishi kerak bo'lgan xalq xo'jaligi obyektlaridagi radiatsiya darajasi; fuqaro muhofazasi tuzilmalarining xizmatchilari, ishchilar va aholi ko'magi ko'zda tutiladi (11-rasm).



*11-rasm. Texnik xizmatlarning tashkil topishi.*


## **2. 2. Avariya-qutqaruv ishlarining tarkibi va ketma-ketligi**

Qutqaruv hamda shoshilinch avariya-tiklash ishlari murakab sharoitlarda vayronagarchilik va nurab tushishi ehtimoli bo'lgan hollarda, kuchli yong'inlarda yer qimirlaganda, radioaktiv, kimyoviy va bakteriologik zararlanganda, takroriy zarba ostida hududni suv, zaharli moddalar bosganda o'tkaziladi.


Qutqaruv va shoshilinch avariya-tiklash ishlariga quyidagilar kiradi: zaharlangan uchastkalarda va uyum joylarda qutqaruv kolonnasi uchun yo'llar ochish, elektr, gaz va boshqa tarmoqlarda avariya holatlarini tugatish, qulab tushishi ehtimoli bo'lgan qurilmalarni mustahkamlash va tiklash kiradi. Bunday ishlar uzluksiz ravishda kecha-kunduz, har qanday ob-havo sharoitlarida qisqa vaqt ichida bajarilishi kerak. Qutqaruv ishlarini muvaffaqiyatli o'tka-

zish uchun razvedkani o'z vaqtida tashkil etish kerak: bor kuch va qutqaruv vositalarini tezlik bilan ishga hozirlash, maxsus guruhlar, tizimlar va aholining aktiv ishtirokini tashkil qilish zarur.

Qutqaruv va shoshilinch ishlarini bajarish uchun avvaldan obyekt boshlig'ining buyrug'i bilan guruhlar tuzilgan bo'lishi kerak. Har qaysi tarmoq boshchiligida guruhlar, favquloddagi vaziyat yuz berganda, o'z vazifalarini bajarishga kirishishlari lozim. Qutqaruv ishlarini olib borishda kerakli kuchlar va vositalardan foydalaniladi (12–13-rasmlar).



12-rasm.



13-rasm. Avariya-qutqaruv ishlarini olib borish taktikasi.




**Avariya-qutqaruv uskunalarining tarkibi (14-rasm):**

- himoya kiyimlari va himoya jihozlari;
- o‘t o‘chirish asboblari;
- razvedka va nazorat asboblari;
- tibbiy reanimatsiya jihozlari.
- yoritish, signalizatsiya va aloqa vositalari;
- qutqaruv asbob-uskunalari;
- gidravlik «SPRUT» asbobi;
- «Xolmatro» pnevmogidravlik jihozlari;
- «Tayga» benzomotor arralash vositalari;
- abraziv – qirqish stanoklari;
- kislorod apparatlari va ballonlari;
- 4 KVTli elektrogenerator;

**Imkoniyat asboblari majmuasi:**

- chilangarlik asboblari;
- «Adamant» 274 R qutqaruv arrasi;
- «Iskorka» elektropayvandlash apparati;
- hayot xavfsizligini ta’minlovchi asbob-uskunalar;
- tuzilmalar ishlarini tashkillashtirish.



*14-rasm. Otryadlarning texnikasi.*

## **2. 3. Insonlarni qutqarish borasida qo‘llaniladigan usullar**

Favqulodda vaziyatlarda insonlarni qutqarish usullari FV o‘choqlarining zararlanish darajasi va holatiga bog‘liq. Bunda qidiruv-qutqaruv ishlar tashkil etiladi. Qidiruv-qutqaruv ishini olib borishning muhim elementi bo‘lib markirovka hisoblanadi. Quyida markirovkaning asosiy belgilari keltirilgan:

– binoga kirish imkoni mavjud va qidiruv-qutqaruv ishini olib borish uchun xavfsiz;

– shikastlar unchalik katta emas, buzilishi davom etish ehtimoli kichik.

– bino ancha shikastlangan, ba’zi qismlari xavfsiz, ba’zilari esa xavfli;

– bino qidiruv-qutqaruv ishini olib borish uchun xavfli;

– kvadrat yonidagi strelka binoga xavfsiz kirish yo‘lini ko‘rsatadi.

Vayronalarda jabrlanganlar qidiruvi quyidagi asosiy usullar bilan olib boriladi: kuzatish, guvohlar ko‘rsatmalariga binoan, qidiruv itlari yordamida, maxsus qurilmalar yordamida.

Razvedka qilinib xavfsiz ish sharoitlarini ta’minlagandan keyin qutqaruvchilar jabrlanganlarga yordam ko‘rsatish uchun vayronalarni tozalay boshlaydilar. Birinchi navbatda qidiruv-qutqaruv ishi tirik insonlar topilgan joylarda olib boriladi. Bunda ikkita asosiy uslub qo‘llaniladi: vayronani yuqoridan pastki qismiga qarab tozalab borish; vayronada o‘tish joyini shakllantirish.

Qidiruv-qutqaruv ishini olib borishda eng ko‘p quyidagi asboblardan, uskunalardan, mashina va mexanizmlardan foydalaniladi:

Gidravlik asboblardan: kengaytiruvchilar, domkratlar, gidravlik silindrlar.

Elektrik asboblardan: zanjirli va diskli elektrarralar.

Oddiy asboblardan: lom, belkurak, kirka, arra.

Mashina va mexanizmlar: turli yuk ko'tarish quvvatiga ega avtokranlar, ekskavatorlar, buldozer, yuk mashinalari.


Vayronalarni ustki qismidan tozalash ishlari vayrona ustki qismidagi odamlarga yordam ko'rsatish uchun olib boriladi, bunda vayronalar qo'lda va lom, belkuraklardan foydalangan holda amalga oshiriladi. Yirik va og'ir elementlarni ko'tarish va ko'chirish uchun yuk ko'taruvchi qurilmalardan foydalaniladi (domkrat, kranlar, lebyodka). Ayni paytda yirik elementlarning keskin ko'chishi oldini olish lozim, aks holda jabrlanuvchilarga qo'shimcha jarohatlar yetkazilishi mumkin. Jabrlanuvchilar qutqarilgandan keyin ularga yordam ko'rsatiladi va xavfsiz joyga ko'chiriladi.

**Jabrlanuvchini vayronadan qutqarish.** Ko'p hollarda jabrlanuvchilar vayronalarning pastki qismida qolib ketadilar. Ularni qutqarish uchun qutqaruvchilar eng yaqin masofa va eng qulay joylarni hisobga olgan holda, torroq o'tish joylari ochadilar. O'tish joylari gorizontal, qiya va vertikal yo'nalishda ochilishi mumkin. O'tish joyining optimal kengligi – 0,8–0,9 m, balandligi – 0,9–1,0 m. O'tish joylarini ochish ishlarini, qo'lda yoki asboblar yordamida bir necha guruh (3–4 kishidan) olib boradi. Ularning vazifalariga vayronani tozalash, o'tish joyini ochish, jabrlanganlarni ozod qilish va ularni ko'chirish kiradi. O'tish joylarini ochishda qutqaruvchilar to'rtoyoqlab, qornida yotgan holda va orqasiga yotgan holda harakatlanadilar. Agar qutqaruvchilar harakatiga yirik temirbeton, metall, taxta va g'isht siniqlari xalaqit qilsa, ularni aylanib o'tish, buning imkoni bo'lmasa to'siqni bo'zish, ko'p hollarda teshik teshish mumkin.

O'tish joylarini ochishda uning devorlari qulab ketishining oldini olishga, mustahkamlashga katta ahamiyat qaratiladi. Buning uchun oldindan tayyorlab qo'yilgan maxsus materiallardan foydalaniladi: brus, taxta, ustunchalar, shitlar.

O'tish joylarini ochish vaqtida vayrona ustida qutqaruvchilar va texnikaning harakatlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'tish joylari ochish ishlari tugatilgandan keyin va baquvvatlashtirilgandan keyin qutqaruvchilar jabrlanganlarni qutqarishga kirishadilar. Birinchi navbatda jabrlanuvchining holati va jarohatlanish darajasi aniqlanadi. Tananing qisilib qolgan va bosilib qolgan qismlari ozod qilinadi, bir vaqtning o'zida jgut va bog'ichlar bog'lanadi, og'iz va burun bo'shlig'i tozalanadi, jabrlanuvchi ustidagi siniqlar olib tashlanadi. Jabrlanuvchining holatidan kelib chiqib uni ko'chirish usuli tanlanadi.



*15-rasm. Jabrlanuvchilar vayronalarning pastki qismida qolib ketganda qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borish.*

Jabrlanuvchini vayronadan qutqarishni kamida ikkita qutqaruvchi amalga oshirishi zarur. (15-rasm) Imkoni boricha jabrlanuvchini qo'lidan yoki yuqori yelka qismidan tortib chiqariladi.

Agar jabrlanuvchi yirik va og'ir element ostida qolib ketgan bo'lsa, uni damkratlar, yuk ko'tarish texnikasi yordamida xalos qilinadi. Jabrlanuvchi yerga taqalib turgan bo'lsa, uning ostini qazish orqali qutqarish mumkin.

Vayronalarda qolib ketgan insonlar asosan miya chayqalishi, qo‘l-oyoq sinishi kabi jarohatlar oladilar. Ba’zi hollarda uzoq vaqt davomida mushaklar va ichki organlarning ezilishi – uzoq vaqt ezilish sindromi uchraydi.

Jarohatlarning bu turi tananing qisilib qolgan qismida qon aylanishi va modda almashinuvining to‘xtab qolishi bilan xarakterlanadi. Bu esa tananing shu qismida zaharli moddalar hosil bo‘lishi va to‘qimalar buzilishiga olib keladi. Qisilib qolgan tana qismi xalos qilinib, qon aylanishi tiklangandan so‘ng organizmga ko‘plab zaharli moddalar (toksinlar) kelib tushadi. Bu qisilib qolgan joy maydoni va davomiyligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi. Toksinlar tanaga tarqalishi bilan birga zararlangan tana qismlariga katta hajmda qon plazmasi quyilib keladi (ba’zida 3–4 l). Tana qismlari shishadi, mushaklar shakli buziladi, shishgan joylar katta zichlikka ega bo‘ladi, bu esa og‘riqni hosil qiladi. Yuqorida aytib o‘tilgan toksinlar va plazmaning quyilishi organizmning barcha tizimlarini ishdan chiqarib, jabrlanuvchining qutqarilganidan keyin birinchi daqiqalarda vafotiga sabab bo‘lishi mumkin.

Zararlangan mushaklarda toksinlarning hosil bo‘lishi bilan birga mioglobin molekulari ham hosil bo‘ladi. Ular qon bilan buyrakka o‘tib, uning kanallchalarini ishdan chiqaradi, bu esa buyrak ishdan chiqishi sababli inson o‘limiga olib kelishi mumkin.

Jabrlanuvchining hayotini saqlab qolish uchun uni bosilib qolgan tana qismini xalos qilishdan oldin, uning qoniga plazmali eritmalar quyilishi, ko‘p miqdorda iliq ichimlik ichirish, tananing zararlangan qismlariga sovuq narsa bostirish lozim. Xalos qilinishi bilan tananing ezilgan qismini tarang qilib bint bilan o‘rash shart, bu shishish va plazma quyilishi oldini oladi. Suyaklar singan-sinmaganidan qat’i nazar, shinalar qo‘yiladi, sovuq narsa bosiladi, og‘riqni bosuvchi dorilar beriladi va zudlik bilan «sun’iy buyrak» apparati mavjud kasalxonaga olib boriladi.

Qutqaruvchi uchun ezilish boshlangan vaqtni bilish juda muhim, chunki, dastlabki ikki soat ichida bu jarohatni davolash mumkin va inson uchun xatarsiz. Shu vaqt ichida qutqaruvchilar iloji boricha ko'proq odamlarni ozod qilishlari zarur.

Uzoq vaqt ezilish sindromida yordam ko'rsatishning ratsional metodikasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi.

Baxtsiz hodisa yuz berganda, dastlabki ikki soat mobaynida barcha kuchlar va vositalarni jabrlanuvchilarning bosilib qolishdan ozod qilishga safarbar qilish, bu organizmga xavf tug'diruvchi holatni oldini oladi.

Ikki soat o'tishi bilan jabrlanuvchilarning ikki guruhga (engil va og'ir jarohatlanganlar) bo'lish lozim. Jarohat xarakteri ezilgan to'qimalar massasi va jabrlanuvchining umumiy holatidan kelib chiqib belgilanadi.

Engil jarohatlangan jabrlanuvchilarni tezlik bilan xalos qilish va davolash maskaniga yo'naltirish lozim.

Og'ir jarohatlangan jabrlanuvchilarni shunday xalos qilish kerakki, ularni transportirovka qilish paytida zararlangan to'qimalarda qon aylanishi tiklanmasligi lozim.

Og'ir jarohatlanganlar reanimatsion terapiya va jarrohlikka muhtoj bo'ladilar. Shuning uchun ular statsionar davolash maskanlariga yo'naltirilmog'i lozim.

Agar jabrlanuvchini transportirovka qilishning imkoni bo'lmasa, shu joyda jgutni yechmasdan turib jabrlanuvchi roziligi bilan tana qismini amputatsiya qilish lozim.

Ushbu metodika salomatlikka xavf tug'diruvchi omillar oldini olib, iloji boricha ko'pchilikning hayotini saqlab qolish imkonini beradi.

Favqulodda vaziyat hududida qisman buzilgan bino va inshootlar qoladi. Ular to'satdan qulab ketishi mumkinligi bilan xatar tug'diradi.

Unday binolar AQI tugagach quyidagicha tekscanadi:

– shar-bolg'a yordamida;

- tortish moslamasi (lebedka, traktor, mashina) yordamida;
- portlatish orqali qulatish usuli bilan.

Portlatish ishlarini maxsus tayyorgarlikka ega qutqaruvchilar olib borishlari lozim. Ushbu ishlar olib boriladigan hudud chegaralangan bo‘lishi kerak.


Ko‘p bino va inshootlar yerto‘la, qutqaruv xonalariga ega bo‘lib, u yerda odamlar qolib ketishi mumkin. Hosil bo‘lgan vayronalar, odatda, chiqish yo‘llarini to‘sib qo‘yib, havo almashinishiga to‘sqinlik qiladi, shuningdek, odamlarning mustaqil ravishda chiqishlariga to‘siq bo‘ladi.

Qutqaruvchilarning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- bosilib qolgan yerto‘la va xonalarni qidirish;
- yerto‘la va xonadagi sharoitni aniqlash (necha kishi borligi, ularning holati, xonaning shikastlanganlik darajasi, suv va yegulikning bor-yo‘qligi);
- xona va yerto‘lada havo almashinuvini ta‘minlash, xonaga suv, ozuqa, dori-darmonlar va himoya vositalarini yetkazib berish;
- tozalash, xona va yerto‘lalarini ochish, jabrlanuvchilarni evakuatsiya qilish, ularga yordam ko‘rsatish.

Bosilib qolgan xona va yerto‘lalar qidiruvi shahar va ko‘cha rejaları, tashqi ko‘rinishi, tovush signallariga qarab itlar yordamida olib boriladi.

Xona va yerto‘lalar topilgandan keyin jabrlanuvchilar bilan aloqa o‘rnatiladi (ovozi, taqillatish, radio aloqa yoki telefon orqali). Bir vaqtning o‘zida qutqaruvchilar tozalash va xonani ochishga kirishadilar. Birinchi navbatda lyuklar, eshiklar, havo aylanish quvurlari joylashgan joylar tozalanadi. Agar bunday imkoniyat bo‘lmasa qutqaruvchilar xona devorini teshadilar. Bunday ishlar beton bo‘zish asboblari (bolg‘a, perforator, lom, kuvalda, belkurak) yordamida amalga oshiriladi. Devordagi teshilgan teshiklar xonada havo aylanishi, suv, ozuqa va dori-darmonlar yetkazib berishga xizmat qiladi. Ular devorni kengaytirgandan so‘ng odamlarni evakuatsiya qilish uchun foydalaniladi (16-rasm).



*16-rasm. Bosilib qolgan yerto‘la  
va xonalarda QQI (qidiruv qutqaruv ishlari)ni olib borish.*

### **Baland binolarda qutqaruvchilarning harakati:**

Vayronalarda qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borishda, juda ko‘p hollarda mashina va mexanizmlar ishlatiladi. Ular yordamida o‘tish joylari va yo‘llar tozalanadi, konstruksiyalarning og‘ir elementlari ko‘chiriladi va qulatiladi, qutqaruvchilar va jabrlanuvchilar tashiladi.

Yer ustidagi qisman shikastlangan inshootlarda insonlarni qutqarish ishlarini yuqoridan kuzatish va tashqi kapital devorlarning shikastlanganlik darajasini aniqlash, osma konstruksiyalar holatini baholashdan boshlanadi. Ichki xonalar, insonlar joylashgan joylar va ularni evakuatsiya qilish yo‘llari aniqlanadi. Zarur bo‘lganda inshoot balkalariga ustunlar o‘rnatish orqali mustahkamlanadi. Qutqaruvchilar uchun balandlikka ko‘tarishning asosiy vositasi bo‘lib narvonlar xizmat qiladi.

Narvonlardan foydalanganda:

- uni mustahkam joylashtirish;
- narvonning pog‘onalariga oyoqning oldi yoki o‘rta qismi bilan chiqish;



– pog‘ona yoki narvonning yon qismlarini qo‘l bilan mahkam ushlash;

– o‘z tanasini narvonga yaqinroq tutish;

– asta-sekin, narvonni siltamasdan harakatlanish lozim.

Qutqaruvchilar narvonlarda harakatlanganda bir tomonlama va diagonal usullardan foydalanib harakatlanadilar. Bir tomonlama harakatlanish usulida keyingi pog‘onaga bir vaqtda chap qo‘l va chap oyoq yoki o‘ng qo‘l va o‘ng oyoq ko‘tariladi. Diagonal usulda – bir vaqtda o‘ng oyoq va chap qo‘l yoki chap oyoq va o‘ng qo‘l keyingi pog‘onaga ko‘tariladi.

Mustahkam o‘rnatilgan va sirg‘alib ketishning oldini olish vositalari o‘rnatilgan narvonlardan foydalanib yuqoriga ko‘tarilish lozim. Xatarsiz o‘rnatish burchagi –  $75^\circ$ . Narvondan, odatda, bir kishi ko‘tariladi yoki tushiladi.

Qutqaruvchining narvondan oynaga (o‘tish joyiga) o‘tishi quyidagicha amalga oshiriladi. Oyna (o‘tish joyi) balandligiga ko‘tarilgach bir qo‘l bilan narvonni ushlash, oyoq bilan tokchaga chiqib, bir vaqtning o‘zida ikkinchi qo‘l bilan devrni ushlab, oyoqni narvondan olinadi va pol ustiga tushiladi.

Agar oyna yopiq yoki panjaralangan bo‘lsa, qutqaruvchi oyna balandligida narvonda mustahkam joylashib, avval oynani ochishi va keyin binoga kirishi lozim.

Oyna yoki tomdan narvonga o‘tish uchun qutqaruvchi narvonning ustki qismiga yaqin kelib, bir qo‘li bilan ustki pog‘onani tashqi tomonidan ushlashi, o‘zini narvonga yaqin tutishi, narvonga yuzlangan holda  $180^\circ$  ga burilishi, bir oyog‘ini pog‘onaga qo‘yib, ikkinchi qo‘li bilan pog‘onani ushlab turishi va ikkinchi oyog‘ini pog‘onaga qo‘yishi lozim.

Qutqaruvchilarni balandlikka ko‘tarishda maxsus narvonlardan foydalaniladi. Ularda 13 ta pog‘ona bo‘lib, uchida maxsus tishli ilgagini oyna va o‘tish joylari tokchasiga ilinadi (qotiriladi). Bu narvonni ikkinchi qavat oynasiga ilish uchun uni yuqori ko‘tarib oyna tokchasining o‘ng qismiga ilinadi. Ilingandan keyin qutqa-

ruvchi narvondan ko'tariladi. Tokchaga chiqish vaqtida o'ng oyoq narvonning to'qqizinchi (o'ninchi) pog'onasida, qo'llar esa o'n uchinchi pog'onada bo'lishi lozim. Qo'llar bilan narvonni ushlagan holda chap oyoqni tokchadan oshirib, tokchaga o'tirib olish lozim va o'ng oyoqni to'g'irlab binoga kirib olish kerak.

Uchinchi va undan yuqori qavatlariga chiqishda tokchaga o'tirgan holda narvonning o'n ikkinchi pog'onasidan o'ng qo'l bilan ushlab, chap qo'l bilan ilgagidan yoki o'n uchinchi pog'onasidan ushlab, keskin siltab narvonni ko'tarib ilgagini o'ziga qaratiladi. Narvonni yonidan ushlab, uning ilgagi tokchadan 15–20 sm yuqoriga chiqquncha ko'tariladi. Ilgagi oynaga qaratib olinib, tokchaga ilinadi.

**Tokchadan narvonga o'tish:**

– o'ng oyoq birinchi pog'onaga qo'yiladi;  
– chap qo'l bilan to'rtinchi (beshinchi) pog'ona ichki tomonidan ushlanadi;

– o'ng qo'l bilan beshinchi (oltinchi) pog'onaning tashqi tomonidan ushlanab o'ng oyoq to'g'irlanguncha ko'tariladi, chap oyoq narvon yoni – tokchaga qo'yiladi;




– chap oyoq bilan tokchadan itarilib, qo'llar bilan tortilib, o'ng oyoq bilan uchinchi (to'rtinchi) pog'onaga chiqiladi va chiqishda davom yetiladi.

Kerakli qavatga yetganda, qutqaruvchi tokchaga o'tirib, chap oyoqni polga qo'yib, chap qo'l bilan ilgakdan tutib, o'ng oyoq oynadan o'tkaziladi.

**Bunday narvondan pastga tushish quyidagicha amalga oshiriladi:**

- o'ng oyoqni tokchadan oshirib;
- tokchaga o'tirib olib;
- qo'llar bilan yuqori pog'onadan ushlab;
- o'ng oyoq to'qqizinchi (o'ninchi) pog'onaga qo'yiladi;
- tanani tiklab, chap oyoq o'ninchi pog'onaga qo'yiladi;
- quyi qavatgacha tushiladi;
- chap oyoqni tokchadan oshirib, tokchaga o'tirib olinadi;

- o'ng qo'l bilan uchinchi pog'onaning chap tomonidan ushlab, chap qo'l bilan o'sha pog'onaning o'ng tomonidan ushlab;
- narvon ko'tariladi, ilgagi o'ziga qaratiladi va ilgagi bosh ustiga yetguncha narvon pastga tushiriladi, narvon ilgagi tokchaga ilinadi (17-rasm).




*17-rasm. Jabrlanganlarni vayronadan evakuatsiya qilish.*

Tomda qolib ketgan odamlarni qutqarish uchun qutqaruvchilar quyidagilardan foydalanib ular oldiga ko'tariladilar:

- narvonlar (ilgakli, osma, arqonli);
- arqonli tizimlar;
- maxsus ko‘targichlar;
- binoning omon qolgan zinalari.

Ba’zi hollarda esa tomdagi odamlarni qutqarish uchun vertolyotlardan foydalaniladi (18-rasm).



*18-rasm.* Tomda qolib ketgan odamlarni qutqarishda vertolyotdan foydalanish.

#### **2. 4. Avariya-qutqaruv ishlarini olib borayotgan tuzulmalarning hamjihatligi**

AQIni olib borishda hamjihatlikda ishlash eng muhim omillardan biridir. Ya’ni har bir ishni o‘zaro hamkorlikda bajarilishi ushbu ishni muvoffaqiyatli yakunlanishini ta’minlaydi.

Qutqaruv ishlarini o‘tkazishda fuqaro muhofazasi organlari va kuchlarning hamkorligini tashkil etish tarkibini aniqlab qo‘yish fuqaro muhofazasi boshlig‘ining AQI o‘tkazish haqidagi qaroriga tarkibiy qism hisoblanadi. Hamkorlik fuqaro muhofazasi har bir bo‘g‘inida aniqlanadi (tashkil etiladi) – bundan maqsad birgalikdagi harakatlar vazifalarini, maqsadlarini va vaqtni kelishib olish shuningdek, asosiy vazifa bajarilishini kuzlab turli kuch va vositalarning imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanishdir.

Respublika (viloyatlar) miqyosida hamkorlikni uyushtirishning asosiy masalalari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- shikastlanish o‘choqlarida (tabiiy ofat, avariya, halokat joylariga) fuqaro muhofazasi zaxira kuchlarini ishga tushirishni va fuqaro muhofazasi kuchlari faoliyatini ta‘minlash yuzasidan fuqaro muhofazasi tuzilma organlarining birgalikda ishlashini tashkil etish;

- jabrlanmagan shaharlar va tumanlar fuqaro muhofazasi tuzilmalaridan qutqaruv ishlarini bajarishda foydalanish tartibi;

- qo‘shni viloyatlar (tumanlar) o‘rtasida o‘zaro yordam tashkil etish;

- qutqaruv ishlari o‘tkazishda Fuqaro muhofazasi qo‘shinlaridan va boshqa harbiy qismlardan foydalanish tartibi;

- qo‘shni viloyatlar (tumanlar) o‘rtasida o‘zaro yordam tashkil etish;

Fuqaro muhofazasi boshliqlari – vazirliklar (idoralar) rahbarlari o‘z bo‘g‘inlarida hamkorlikni tashkil etishda, tarmoqlar kuchlari to‘plamlarini qayta tiklash yuzasidan va qutqarish ishlari o‘tkazishda, ular faoliyatini ta‘minlash yuzasidan tezkor ishlarni amalga oshiradi. Xususan, o‘ziga bo‘ysunuvchi fuqaro muhofazasi organlarini va tuzilmalarini birgalikda tadbirlar o‘tkazish tartibini, shuningdek, viloyatlar ichida kuchlar va vositalar mo‘ljallagan ishlarini amalga oshirish tartibini belgilab beradilar.

Shahar-tuman bo‘g‘inlarida quyidagi masalalarda hamkorlik tashkil etiladi:

- shikastlanish o‘choqlariga (tabiiy ofat, avariya, halokat joylariga) fuqaro muhofazasi qismlari va tuzilmalarini olib borish va kiritish tartibi;

– turli ishlarga mo‘ljallangan tuzilmalarning, harbiy qismlarning vazifalar birgalikda bajarilayotgandagi harakatlarni uyushtirish;

– jabrlangan aholini qutqarish va hayot faoliyatini ta‘minlash davomida fuqaro muhofazasi organlari, fuqaro muhofazasi kuchlari faoliyatini ta‘minlash yuzasidan fuqaro muhofazasi xizmatlari bilan tuzilmalari organlarining birgalikda ishlashini tashkil etish;

– qo‘shinlar (tumanlar, qutqarish hududlari va obyektlari, tuzilmalar, harbiy qismlar) o‘rtasida o‘zaro yordamni amalga oshirish.

Fuqaro muhofazasi boshlig‘i obyektida qutqarish ishlarini o‘tkazishda, hamkorlikni tashkil etayotganda quyidagilarni kelishib olishi kerak:

– tuzilmalarni (razvedka, umumiy, maxsus tuzilmalarni) tez olib chiqish tartibi va ularning qutqarish ishlari, obyektidagi faoliyati (ishi)ni;

– zaharlangan hududlardan, yong‘in hududlaridan, suv va boshqa to‘siqlaridan o‘tish tartibini;

– ish obyektlariga (joylariga) chiqib borishni, o‘zaro ta‘minlash yuzasidan transportda o‘tish yo‘llarini va vayrona uyumlaridan transportda o‘tish yo‘llarini qurishni, inshootlar ustini ochishni, uyumlarini tozalashni, shikastlanganlarni olib chiqishni, ularga tibiiy yordam berish va boshqa ishlarni bajarish borasida birinchi smena tuzilmalari kuchlarining faoliyatini;

– aloqa tashkil etish va axborot uzatish tartibini;

– boshqaruv va xabar berish signallari hamda ular berilgandagi harakat tartibini.

Hamkorlik qilish tartibi haqida buyruq yoki alohida farmoyish berilayotgan vaqtning o‘zida vazifalar qo‘yish yo‘li bilan, og‘zaki ko‘rsatmalar berishda esa vazifalar qo‘yilgan zahoti yoki tasarrufidagilarning qarorlari tasdiqlangandan so‘ng qo‘l ostidagilar e‘tiboriga yetkazilishi mumkin.

**AQI o‘tkazishda buyruq va farmoyishlar.** AQI o‘tkazish haqida qarorga kelish bilan birga vazifalarni ijrochilarga vaqtida yetkazilishiniig ham, ular bajarilishini aniq tashkil etishning ham katta ahamiyati bor. Fuqaro muhofazasi boshlig‘i o‘z tasarrufidagi fuqaro muhofazasi organlariga, tuzilmalar komandirlariga biriktirib

berilgan qismlarga vazifalarni shaxsan o'zi yoki fuqaro muhofazasi organlari, shtab orqali buyruqlar, farmoyishlar shaklida beradi.

Obyektlardagi, uchastkalardagi sharoit haqida to'liq ma'lumot bo'lmaganda, vazifalar birin-ketin qo'yilishi mumkin. Bunda oldin tez chiqish vazifasi, keyin fuqaro muhofazasi kuchlari shikastlanish o'chog'iga (tabiiy ofat, avariya, halokat joylariga) yaqinlashganda esa AQI o'tkazish vazifasi qo'yiladi. Bu holda shahar, tuman, obyekt fuqaro muhofazasi boshliqlari shikastlanish o'chog'i (tabiiy ofat, avariya, halokat joylariga) tomon tez chiqib borib, sharoitga baho beradilar, qarorga keladilar va yetib kelgan fuqaro muhofazasi kuchlariga vazifalar qo'yadilar.

Buyruqlar va farmoyishlar qisqa va aniq bo'lishi kerak.

Fuqaro muhofazasi boshlig'i bergan og'zaki buyruqlar va farmoyishlarning hammasi keyin yozib rasmiylashtiriladi.

Vazifalar o'z vaqtida, anq va to'liq, bajarilishini ta'minlash maqsadida, ijroni nazorat qilishni hamma darajadagi shtablarda tashkil etadilar.

Nazorat doimiy bo'lishi, asosiy vazifalar hal etilishi birinchi galda o'zaro bog'liq bo'lgan tadbirlar bajarilishini tekshirishga qaratilishi kerak.

Buyruqlarning noaniq bajarilishiga yo'l qo'ymaslik, ehtimoli bor qiyinchiliklarni topish maqsadida nazorat ogohlantiruvchi xarakterda bo'lishi va vazifalarni hal etishda tasarrufidagi fuqaro muhofazasi shtablariga, xizmatlariga, kuchlariga yordam berish bilan birga qo'shib olib borilishi kerak.

Nazorat ishlab chiqilgan rejaga binoan amalga oshiriladi va hamma hollarda:

– buyruqlarni, farmoyishlarni, signallarni qo'l ostidagilar vaqtida olshini, fuqaro muhofazasini tinchlik holatidan harbiy holatiga o'tkazishdagi;

– fuqaro muhofazasi kuchlarini tushirishdagi va ularni moddiy-texnikaviy ta'minlashdagi razvedka uyushtiradigan tadbirlar bajarilishi;

– qo'l ostidagilar qabul qiladigan qarorlar quyilgan vazifalarga va ularning bajarilishiga mos bo'lishi nazorat qilinadi.

Nazorat qilish usuli – fuqaro muhofazasi boshlig'i rahbarlari tarkibi, shtab xizmatchilari voqea joyining o'zida shaxsan o'rganib chiqishdan iborat.

Fuqaro muhofazasini tinchlik holatidan harbiy holatga o'tkazishda va AQI o'tkazishda maxsus ajratilgan mas'ul shaxslar (mansabdor kishilar), vakillar nazorat qilib, yordam berib turadi. Ular esa joylarning o'zida vazifalarni bajarish va kamchiliklarni tuzatish choralari ko'radilar.

Nazorat aloqaning texnik vositalari yordamida gaplashish, topshirilgan hujjatlarni o'rganish yo'llari bilan amalga oshirilishi mumkin.

Nazorat natijalariga binoan buyruqlar chiqariladi, farmoyishlar beriladi va kamchiliklarni tuzatish rejaları ishlab chiqariladi.

Tuzilmalar xatti-harakatlarini ta'minlash:

Favqulodda vaziyatlarda AQI olib borishda tuzilmalar harakatini ta'minlash, tuzilmalarni har tomonlama ta'minotiga bog'liq bo'ladi.

Moddiy-texnik ta'minoti fuqaro muhofazasi tuzilmalarini muhofazasining texnik, aloqa vositalari, radiatsiyaviy va kimyoviy razvedka asboblari, yonilg'i-moylash materiallari, dori-darmonlar, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak va boshqa vositalar bilan fuqaro muhofazasi tadbirlarini o'tkazish uchun kerakli miqdorda, o'z vaqtida ta'minlashni tashkil etish va amalga oshirishdir.

Texnik ta'minot–fuqaro muhofazasi vazifalarini hal qilish uchun jalb etiladigan texnika to'g'ri foydalanish, unga xizmat ko'rsatish, tuzatish va evakuatsiya qilishni tashkil etish va amalga oshirish.

Moddiy ta'minotning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

– favqulodda vaziyat sharoitida fuqaro muhofazasi tuzilmalarini, muassasalarini va tadbirlarini moddiy ta'minlash rejalarini ishlab chiqish, ularga tuzatishlar kiritib turish;

– fuqaro muhofazasi tuzilmalari harakatini uzluksiz ta'minlab turish uchun zarur oziq-ovqat mahsulotlari, muhofaza vositalari, maxsus texnika.



– asbob-uskunalar zaxirasini yaratish.

O‘zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonunida quyidagi talablar tasdiqlangan:

9-modda. Vazirliklar va idoralar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratishlari shart.

10-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlari favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratadilar, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tadbirlarini moliyalashni amalga oshiradilar.

Shuningdek, ushbu moddalarga asosan, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida:

– favqulodda vaziyatlar ro‘y berish ehtimolini nazarda tutib, belgilangan tartibda moddiy va moliyaviy resurslar rezervlarini yaratishlari;

– belgilangan tartibda ixtisoslashgan xizmatlar va tuzilmalarni yaratishlari, ularni shaxsiy tarkib, texnika va anjomlar bilan to‘ldirishlari shart (19-rasm).



19-rasm. AQI KAMAZ mashinasi va uning jihozlari.

Texnik ta'minotning asosiy vazifalari quyidagilar:


– qutqaruv ishlari mobaynida ishdan chiqqan texnikani tuzatishni tashkil etish;

– belgilangan muddatlarda va to'liq hajmda mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish;

– ta'mirlash korxonalari va tuzilmalarini zaxira qismlar va ta'mirlash materiallari bilan ta'minlash;

– shikastlangan va buzilgan texnikalarni, shikastlangan mashinalar to'planadigan maskanlarga yoki muhim ta'mirlash korxonalariga evakuatsiya qilish;

– texnikani ta'mirlash va evakuatsiya qilish uchun kuch va vositalarni tayyorlash (20-rasm).



20-rasm. AQI maxsus jihozlari.

Fuqaro muhofazasi moddiy-texnik ta'minotining xizmatlari va organlari. Moddiy ta'minlash uchun tashkil etiladigan xizmatlar quyidagilardan iborat:

- savdo va ovqatlantirish xizmati;
- moddiy-texnik ta'minot xizmati;
- yonilg'i-moylash materiallari (YMM) bilan ta'minlash xizmati.

Savdo va ovqatlantirish xizmati boshlang'ich hududlarda, qutqaruv va kechiktirib bo'lmaydigan avariya-qutqaruv ishlari olib borilayotgan joylarda shaxsiy tarkibni issiq ovqat bilan, uni tayyorlashni iloji bo'lmagan hollarda esa, quruq payok bilan ta'minlash darkor. Shuningdek, sanitar-yuvish maskanlari va birinchi tibbiy yordam otryadlari shaxsiy tarkibini almashlab kiyiladigan kiyim-bosh, ich-kiyim va poyabzal bilan to'la va o'z vaqtida ta'minlash maqsadida tuziladi.

Moddiy-texnik ta'minot xizmati fuqaro muhofazasi tuzilmalarini to'la va o'z vaqtida shaxsiy muhofaza vositalari, maxsus asbob-uskuna va texnika, qurilish materiallari, degazatsiya moddalarini, anjomlar va maxsus kiyim-bosh bilan ta'minlash maqsadida tuziladi.

Yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash xizmati fuqaro muhofazasi masalalarini hal qilish uchun jalb etiladigan maxsus texnika va transportni to'la va o'z vaqtida yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash maqsadida tuziladi.

Moddiy-texnik ta'minot ko'chma tuzilmalarining tarkibi va imkoniyatlari.

#### 1. Ovqatlantirish ko'chma maskani (OKM).

Tarkibi: ovqat pishirish va tarqatish ikki guruh.

Texnika: 3 dona (bortli yuk mashinasi, avtoststerna, 1 komplekt tirkama oshxona). Jami; 25 kishi. Imkoniyatlari: 10 soat ish mobaynida 1200 kishiga yetadigan ovqat tayyorlash va tarqatish.

2. Oziq-ovqat ta'minoti ko'chma maskani (OOTKM). Tarkibi: qadoqlovchi va payok tarqatuvchi 2 guruh. Texnika: tirkama bortli 2 ta avtomobil. Jami; 12 kishi. Imkoniyatlari: 10 soat ish mobaynida 5000 quruq payokni butlash va tarqatish.

### 3. Buyum ta'minoti ko'chma maskani (BTKM).

Tarkibi: kiyim bilan ta'minlovchi 2 guruh. Texnika: 2 ta bortli yuk mashina. Jami: 14 kishi. Imkoniyatlari: 10 soat ish mobaynida birinchi tibbiy yordam otryadi, sanitariya-yuvishi maskanlariga 1500 komplektgacha almashtirib kiyiladigan kiyimlar, ich kiyim va poyabzallar keltirish va berish.

### 4. Avtoyonilg'i quyish ko'chma shoxobchasi (AYQKSH).

Tarkibi: yonilg'i-moylash materiallari keltiruvchi va quyib beruvchi 2-guruh.

Texnika: 2 ta yonilg'i quyish avtomashiyasi. Jami: 5 kishi. Imkoniyatlari: 10 soat ish mobaynida 400–500 texnikaga yonilg'i quyish.

### 5. Suv tashish guruhi (STZ).

Tarkibi: 6 kishi (bitta guruh komandiri–haydovchi hamda 5 nafar haydovchi). Texnika: 6 ta avtotstiserna yoki bochkali 6 ta yuk mashinasi. Imkoniyatlari: 10 soat ish mobaynida 75 ming litrgacha suv olib kelish.

FVDT rejimlarida moddiy-tenik ta'minotning umumiy vazifalari:

– kundalik faoliyat rejimida, moddiy-texnik ta'minotning umumiy vazifalariga oid.

Yuqori tayyorgarlik rejimida:

– fuqaro muhofazasi kuch va vositalarini shay holatga keltirish, zarurat tug'ilganida ularning harakatlari va favqulodda vaziyat hududiga yo'nalishini aniqlashtirish;

– fuqaro muhofazasi kuchlari ro'yxatidagi texnika va anjomlar bilan to'ldirish;

– qutqaruv ishlariga jalb qilinadigan avtotransport va texnikani yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash;

– tuzilmalar shaxsiy tarkibini o'vqatlantirishni tashkil etish;

– moddiy resurslarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish

Favqulodda rejimda:

- favqulodda vaziyat sharoitida qutqaruv ishlarini olib borayotgan fuqaro muhofazasi kuch va vositalarini moddiy vositalar bilan uzluksiz ta'minlash asosiy vazifadir;
- tuzilmalarni va jabrlangan adolini oziq-ovqat va birinchi navbatda zarur bo'lgan buyumlar bilan ta'minlash;
- almashtiriladigan kiyim-boshni olib kelish va ta'minlash;
- favqulodda vaziyat hududida ishlayotgan texnikani yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash;
- moddiy vositalarni olib kelish va to'ldirish.

## 2. 5. Razvedka ishlari

FV o'choqlarida olib boriladigan asosiy ishlardan biri, bu razvedka ishlaridir. Ushbu ishlarni kata tajribaga ega bo'lgan qutqaruvchilar ishtirokida amalga oshiriladi. Razvedka ma'lumotlarini rahbarlarga yuboriladi, maxsus jurnalda yozib boriladi va obyekt rejasi yoki xaritasiga belgilab qo'yiladi. Razvedchiklar zararlanish o'chog'idagi holatga qarab radiatsiya darajasini kimyoviy holatni aniqlash uchun maxsus asboblardan yordamida zararlanish darajasini, shikastlanish darajasini aniqlaydilar.

Razvedka ishlarini o'z vaqtida va doimiy tashkil etish:

- boshqaruvni doimiy va qat'iyat bilan tashkil etish;
- fuqaro muhofazasi kuch va vositalarida guruhlarini tezkorlik bilan tashkil etish, ularni favqulodda vaziyat sodir bo'lgan hududlarga olib kirish;
- boshqaruv organlari va tuzilmalarining ma'naviy-ruhiy tayyorligi;
- favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda fuqaro muhofazasi kuch va vositalarining ishlashini uzviy bog'liq holda olib borish;
- favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan obyektida yoki hududlarda komendantlik xizmatini tashkil etish;

– favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishda, avariya-qutqaruv ishlarini amalga oshirishda FVDT kuchlarini moddiy hamda transport vositalari bilan ta'minlash;

– favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish uchun avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni amalga oshirishda texnika xavfsizligi qoridalarini bilish va ularga amal qilish.

Havo razvedkasini fuqaro muhofazasi samolyotlari va vertolyotlarida, shuningdek, shu maqsadlar uchun harbiy qo'mondonlik ajratgan samolyotlar va vertolyotlarda maxsus o'qitilgan uchuvchilar o'tkazadi. Havo razvedkasining vazifasi halokat o'choqlari chegaralarini, vayronlik va yong'inlar tafsilotini, ko'priklarni, iqtisodiyot obyektlarining, transport magistrallari, muhandislik inshootlari va boshqa obyektlarning ahvolini iloji boricha qisqa muddatda aniqlashdan iborat.

Yer usti razvedkasini fuqaro muhofazasining razvedka tuzilmalari va bo'linmalari, kuzatish va laboratoriya tahlili tarmoqlarining muassasalari, radiatsion va kimyoviy razvedka kuzatish joylari olib boradi. Yer usti razvedkasidan favqulodad vaziyat hududlarining chegaralari, radiatsiya darajasi, vayronliklar xarakteri, muhofaza inshootlari, yo'l tarmoqari va boshqa transport inshootlarining ahvoli haqida to'laroq va ishonchliroq, ma'lumot olish ko'zda tutiladi.

Suv razvedkasini kemalar, katerlar va boshqa suzish vositalarida fuqaro muhofazasi tuzilmalari, shuningdek, harbiy dengiz qo'mondonligi ajratadigan kuch va vositalar olib boradi, Sharoit haqida to'laroq ma'lumot olish uchun maxsus razvedka turlari (radiatsion, kimyoviy, yong'in, muhandislik, tibbiy, veterinariya, fitopatologik razvedkalar) uyushtiriladi.

**Radiologik razvedka.** Ushbu razvedkani o'tkazish uchun qutqaruvchilar maxsus asbob uskunalardan foydalanishadi. Hudud-dagi radiatsiya darajasi 0,5 rentgen/soat bo'lganda radioaktiv zararlangan hisoblanadi. Radiatsiya darajasi 30 rentgen/soat bo'lgan darajada razvedkani yayov yurib amalga oshirish mumkin. Agar ra-

diatsiya darajasi 100 rentgen/soatgacha bo'lganda mashinada yurib amalga oshiriladi. Radiatsiya darajasi 200 rentgen/soat va undan ortiq bo'lganda maxsus texnika va samolyot, vertolyotlarda olib boriladi. Radiatsiya darajasi yerdan 10–15 sm yuqorida, har 50–100 metr masofada o'lchanadi. Indikatorlar – eng sodda radiatsiyaviy razvedka asboblari bo'lib, ular yordamida nurlanish borligini aniqlash hamda asosan doza quvvatiga taxminiy barham berish vazifasi hal etiladi (DP-63, DP-63 A, DP-64).

**Rentgeyaometrlar** – rentgen yoki gamma nurlanish dozasi quvvatini o'lchashga mo'ljallangan (DP-3, DP-5A, B, V va boshk.).

Radiometrlar – radioaktivlik o'lchagichlari bo'lib, asosan, alfa va beta zarrachalari bilan zararlangan texnika, kiyim-bosh va h.k. Ular radioaktiv zararlantirish joylarini topish va zararlantirish darajasini aniqlash uchun ishlatiladi (DP-YOM, DP-100 A, D, M va b.).

**Dozometrlar** – asosan gamma-nurlanishdan zararlangan hududda bo'lgan odamlarning olgan jami (gurlanish dozasini aniqlash uchun mo'ljallangan (DP-22V, ID-1, ID-11, DP-5ABV va b.).

Asboblarning umumny tuzilishi, ishga tayyorlash va ish qobiliyatini tekshirish tartibi:

**Qabul qiluvchi qurilma** – detektor (datchik), unga ta'sir etuvchi radioaktiv nurlanish energiyasini elektr energiyasiga aylantirishga mo'ljallangan.

Ko'chaytiruvchi qurilma qabul qiluvchi qurilma ishlab chiqaradigan signallarni o'lchash uchun xizmat qiladi.

O'lchovchi qurilma qabul qiluvchi qurilma ishlab chiqaradigan kuchsiz signallarni o'lchovchi qurilma ishi uchun yetarli darajaga yetkazib berishga mo'ljallangan.

DP-5ABV asbobi. Asbob avariea joyidagi radiatsiya darajasini va radioaktiv zararlantirish darajasini gamma-nurlanish bo'yicha o'lchashga mo'ljallangan. O'lchash diapazoni: 0,05 mR soatdan 200 R/soatgacha.

Asbob majmuyiga quyidagilar kiradi:  
– o'lchash pulti (g'ilofda);

- zond;
- radioaktiv nazorat elementi;
- uzaytiruvchi shtanga (temir tayoqcha);
- oziqlanish manbayi;
- boshga taqiladigan telefon;
- mikroampermetr;
- poddiapazonlarni ulash tugmachasi.

DP-22V (DP-24), ID-1 shaxsiy dozimetrlar majmuasi. DP-22V (DP-24) shaxsiy dozimetrlar majmuasi gamma-nurlanishlarning ekspozitsiya dozalarini o'lchashga mo'ljallangan. O'lchash diapazoni: Y-20R, ID-1 da 2-500 rad.

Majmua quyidagilardan iborat:

- DKP-50A shaxsiy dozimetrlar – 50 dona, DP-22V (DP-24) – 5 dona;
- ZD-5 zaryadka qurilmasi – 1 dona.

To'g'ridan-to'g'ri ko'rsatuvchi DKP-50A chungak dozimetri nurlanish dozalarini o'lchashga mo'ljallangan.

ZD-5 zaryadlash qurilmasi dozimetri zaryadlashga mo'ljallangan. Dozimetrlarni zaryadlash va ko'rsatishlarini olish:

- energiya manbayiga ulanadi;
- dozimetning muhofaza gardishi va zaryad uyasining muhofaza qalpoqchasi burab chiqariladi, potensiometr murvati chap tomonga oxirigacha buraladi;
- dozimetr zaryadka uyasiga qo'yiladi, bunda zaryadka uyasining yoritgichi va yuqori kuchlanish ulanadi;
- okulardan kuzatib turib, dozimetr bosiladi va potensiometr murvatini dozimetr shkalasidagi ip tasviri «O» ustiga qo'yilib, tuguncha o'ng tomonga buraladi-da, keyin dozimetrii zaryadlash uyasidan chiqarib olinadi;
- ipning holati kunduzgi yorug'da tekshiriladi (ip vertikal holatda ekanida uning tasviri «O» ustida ko'rinishi kerak);
- dozimetr gardishini va zaryadlash uyasi qalpoqchasini burab kiydirib qo'yiladi.

Dozimetr okulariga vaqti-vaqti bilan qarab-qarab kuzatib, ipning shkaladagi holatiga ko'ra ish vaqtida olingan nurlanish dozasi



aniqlanadi. Hisoblash ipining tasviri vertikal holatda bo‘lganida, natija olinishi kerak.

**Kimyoviy razvedka.** Kimyoviy zararlangan hududlagda zaharli moddalar mavjudligini darajasini maxsus asboblar yordamida aniqlaydi. Kimyoviy zaharli moddalarda olinadigan na‘muna havo va moddalar to‘kilgan joydagi tuproqdan olinadi. Kimyoviy razvedka o‘tkazish xonalarda har 10–15 metr, ochiq joylarda har 20–30 metr oraliqlarda aniqlanadi.

**Injenerlik razvedkasi.** Yer usti va havo razvedkasi tomonidan olib boriladi. Uning asosiy vazifasi jabrlanganlar mavjud hududlarni, bino inshootlarning buzilish darajasini, kommunal-energetik tizimidagi avariya holatlarini va AQI olib borish yo‘nalishlarini amalga oshiradi.

**Yong‘in razvedkasi.** Yong‘in razvedkasi favqulodda vaziyat o‘chog‘ida yong‘in holatini aniqlaydi va qutqaruvchilarni yong‘inni uchirish uchastkalariga harakatlanish yo‘llarini belgilaydi.

**Tibbiy, biologik, veterinar razvedka.** FVda zararlanish o‘choqlarida sanitar epidemiologik holatini aniqlash uchun o‘tkaziladi.

**Yer osti razvedkasi.** Favqulodda vaziyatlarni yer osti inshootlariga ta‘sir holatini aniqlash uchun o‘tkaziladi. Shuningdek, qutqaruvchilarning harakat xavfsizligini ta‘minlash ko‘zda tutiladi.

Barcha razvedka ishlari, avariya-qutqaruv ishlari tugatilmaguncha olib borish tavsiya etiladi.

## 2. 6. Tibbiy ta‘minotni tashkillashtirish

Shoshilinch tibbiy xizmat va halokatlar tibbiyotining kuch va vositalari:

- tez va maxsus tez tibbiy yordam xizmati;
- shoshilinch tibbiy yordam brigadalari. Ularga vrach, 2 ta hamshira, 2 ta sanitar xodim kiradi. Ular shahar markaziy kasalxonalari, markaziy tuman kasalxonalari, vrachlik maskanlari va uchastkala-

rida tuzilib, ishni bevosiyta favqulodda vaziyat o'chog'ida amalga oshiradi;

– shoshilinch maxsus tibbiy yordam brigadasi respublika, viloyat, shahar, ko'p tarmoqli, maxsus, oliygohlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va markaziy klinikalarda tuziladi. Ushbu brigadalar tarkibiga barcha ixtisosliklar bo'yicha tibbiy xodimlar kiradi.

– tuzilmalari va muassasalari ishini tashkil qilishning asosiy tamoyillari bo'lib, brigada usuli hamda ikki bosqichli tibbiy yordam ko'rsatish hisoblanadi.

Birinchi bosqich:

O'choqda yoki o'choq chegarasida o'tkaziladi:

– jabrlanuvchilarni qidirish, olib chiqish va transport vositalarida olib ketish;

– birinchi tibbiy va birinchi vrachlik yordamini ko'rsatish;

– tibbiy evakuatsiya;

– boshqa xizmatlar bilan o'zaro hamkorlik;

– sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlar.

Ikkinchi bosqichda stasionar sharoitlarda ixtisoslashgan va maxsus tibbiy yordam o'tkaziladi.

Halokat o'choqlarida tibbiy sanitar tadbirlarni o'tkazishga jalb qilinadigan kuch va vositalar. Favqulodda vaziyatlar markazlarida ommaviy tibbiy-sanitar yo'qotishlar yuzaga kelish ehtimoli borligi munosabati bilan tibbiy yordam ko'rsatish va profilaktik tadbirlar o'tkazish uchun katta miqdorda tibbiy tuzilmalarni jalb qilish kerak bo'ladi. Gospitallashtirish va jarohatlanganlarni davolash esa tibbiyot muassasalaridan foydalanishni talab qiladi.

Ayni paytda SHTX tizimida tibbiy sanitar favqulodda vaziyatlarning oqibatlarini muvaffaqiyatli tugatishda quyidagilar mavjud:

– sanitar bo'limlari – 24 kishi;

– infeksiyon brigadalar – 7 kishi;

– sanitar-profilaktika brigadalari – 8 kishi;

– epidemiyaga qarshi maxsus brigada – 33 kishi;

– epidemiologiya bo'linmalar – 8 kishi;

– bakteriologik bo‘linma – 23 kishi.

### **Shoshilinch tibbiy xizmati va «halokatlar tibbiy xizmati».**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 10-noyabrda-gi Farmoniga muvofiq sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilinga-indan so‘ng hozirgi vaqtda ham O‘zbekistonda «Halokatlar tibbiy xizma-ti» (HTX) faoliyat ko‘rsatmoqda.

Shoshilinch tibbiy yordam davlat ilmiy markazi va uning vilo-yatlardagi filiallari HTXga yangi usullarni joriy qilish va ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy-tashkiliy markaz hisoblanadi.

HTX ishining o‘ta muhim tarkibiy qismi favqulodda vaziyatlar-da harakat qoidalari va individual tartibda (o‘ziga va o‘zaro yor-dam) birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish asoslariga aholini o‘tkazish hisoblanadi,

Paramediklar – qutqaruvchilar, o‘t o‘chiruvchilar, birinchi tib-biy yordam ko‘rsatish bo‘yicha professional tayyorlash ham HTX uchun muhim prinsipial holat hisoblanadi.

#### *Nazorat savollari:*

- 1. Radiatsiya avariylarining sabablari nima?*
- 2. Kimyoviy xavfga ko‘ra majburiy-hududiy bir qancha xavflilik darajasiga bo‘linadi?*
- 3. Yer silkinishi yuzaga kelishi sabablariga ko‘ra necha guruhga bo‘linadi?*
- 4. Quruqlik holatini o‘zgarishi qaysi turdagi favqulodda vaziyatlarga ki-radi?*
- 5. Yer yuzida sodir bo‘ladigan zilzilalarning qancha ulushi Yaponiya hisobi-ga to‘g‘ri keladi?*
- 6. Zilzila kuchi necha xil o‘lchov birligida o‘lchanadi?*
- 7. Zilzilaga qarshi GTI qurilishlarida ko‘riladigan chora-tadbirlarni ay-ting.*
- 8. Yong‘in va portlashlarning asosiy sababalarini ayting?*
- 9. Avtomobil transportidagi avariya va halokatlarning asosiy sabalari ni-malardan iborat?*

**QIDIRUV-QUTQARUV ISHLARINI  
TASHKILLASHTIRISH VA OLIB BORISH**

Oxirgi o'n yillikda sayyoramizda tabiiy ekoiqlim keskin o'zgaradi: insoniyat hayot faoliyatidan paydo bo'lgan xatarlar to'satdan, avval mutlaqo bo'lmagan global xarakterga ega bo'la boshladi. Shu bilan birga xatarlardan nafaqat insoniyat, balki atrof-muhit, ona-tabiat ham aziyat chekmoqda.

Bunda insonning o'zi ham o'z hayot faoliyatidan paydo bo'lgan fizik-kimyoviy ta'sirni bevosita his qila boshladi: shaharlarning ifloslangan havosi, daryolarga qo'yilayotgan chiqindilar va h.k. aholi sog'lig'iga sezilarli darajada ta'sir ko'rsata boshladi. Ta'kidlash joizki, inson tomonidan ishlab chiqarilayotgan moddalar (masalan, plastmassa mahsulotlari) tabiatga begona va shuning uchun regeneratsiya va tabiiy bo'linishga uchramaydi. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidagi shiddatli ilmiy-texnik yuksalish, nafaqat ishlab chiqarish va mehnat sharoitlarining yaxshilanishi, balki moddiy farovonlikning o'sishi hamda jamiyatimizning intellektual potentsialiga ko'maklashdi. Buning natijalari insoniyat hayotida katta texnik tizimlarning avariyalari xavfi o'sishiga olib keldi.

Bu avvalo, mashinalarning soni va murakkabligining ortishi, sanoatda va energetik obyektlarda, ularning hududiy konsentratsiyalarida agregatlar quvvatining o'sishi bilan belgilanadi.

Respublikamizda o'tkazilayotgan hamda mamlakat aholisi va hududlarining xavfsizligini favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilishga qaratilgan islohotlar yo'nalishi yagona davlat siyosati doirasida amadga oshirilmoqda. Bu islohotlardan moliyaviy barqarorlikka erishish maqsadi ko'zlangandir. Binobarin, uning samarasi butun iqtisodiyotning barqaror o'sishiga xizmat qiladi.

Ushbu masalani hal qilishga nisbatan iqtisodiy yondoshuvni isloh qilish sohasidagi tadbirlar, avvalambor, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish, ularning sonini kamaytirish, avariya va halokatlarning oqibatlarini yengillashtirish bo'yicha faoliyatga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Bu birinchi navbatda, texnogen sohada kutilmoqda, chunki iqtisodiyotni isloh qilish ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangi xavfsiz texnologiyalarni qo'llash bilan uzviy bog'liq. Yana shuni ta'kidlash joizki, aholi va hududlarning favqulodda vaziyatlardan xavfsizligini ta'minlash bo'yicha har qanday faoliyat mustahkam yuridik asosga ega bo'lishi zarur. Shuning uchun ham O'zbekiston Regavlikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»-gi Qonuniga muvofiq holda katta e'tibor qaratilganligi bejiz emas. Ushbu Qonunda mamlakat aholisini va hududlarini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish borasidagi tadbirlarni moliyaviy-iqtisodiy boshqarishni tartibga soluvchi moddalar mavjud (7-, 9-, 10-, 11-, 26-moddalar shular jumlasidandir). Qonunning 26-moddasi juda dolzarb va muhim bo'lib, unda «Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar rezervlari oldindan, favqulodda vaziyatlar ro'y bergan taqdirda ularni shoshilinch tarzda jalb etish maqsadida yaratiladi», deb belgilab qo'yilgan. Fuqaro muhofazasi sohasidagi tadbirlarni o'tkazish O'zbekiston Respublikasining Qonunchiligi asosida amalga oshiriladi.

### **3. 1. Boshqarish, navbatchilik, xabar berish va aloqa ishlarini tashkillashtirish**

Aholi va hududlarga xavf soluvchi favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf qilishda, tezkor boshqaruvni tashkil etish muhim ahamiyatga egadir. Fuqaro muhofazasini boshqarishning mohiyati respublika rahbar organlari, fuqaro muhofaza xizmati, fuqaro muhofazasi boshliqlari, sud boshqarmalari, komissiyalari, xiz-

matlarning doimiy maqsadni ko‘zlash faoliyatidan iborat bo‘lib, quyidagi tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazishga qaratiladi:

- aholini tabiiy ofatlardan, avariyalardan, halokatlardan muhofaza qilish;

- iqtisodiyot obyektlari va tarmoqlarining barqaror ishlashini ta‘minlash;

- boshqaruv organlarining, fuqaro muhofazasi kuch va vositalarining shayligini yuqori darajada saqlash;

- avariya-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni muvaffaqiyatli o‘tkazish. Fuqaro muhofazasini boshqarish.

Fuqaro muhofazasini boshqarishning asosiy vazifalari:

- favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni tugatish uchun fuqaro muhofazasi boshqaruv organlari va tizimlarining doimo shay turishini ta‘minlash;

- fuqaro muhofazasi rejalarini ishlab chiqish va takomillash-tirish;

- fuqaro muhofazasi tadbirlarining yillik va istiqbol rejalarini ishlab chiqish hamda ularning ijrosini nazorat qilish;

- muhofaza inshootlari va shaxsiy muhofaza vositalarini ko‘paytirishlarini tashkil etish;

- favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda iqtisodiyot obyektlari, birlashmalari va tarmoqlari barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqot, tashkiliy, texnologik va muhandislik-texnik tadbirlarni amalga oshirish va ularni ishlab chiqarishga tatbiq etish;


- tabiiy ofatlar, avariya, halokatlar sodir bo‘lganda avariya-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni o‘tkazish uchun fuqaro muhofazasi organlari, kuchlari va vositalari, aholining tayyorligini ta‘minlash;

- aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish sohasidagi axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash va berish.

Boshqaruv uzluksiz, barqaror, moslanuvchan (tezkor), yashirin bo‘lishi kerak.

**Boshqaruv maskanlari, ularning vazifasi va joylashishi.**  
Boshqaruv maskani (BM) – bu tegishli fuqaro muhofazasi organi

joylashtirilishiga va barqaror ishlashi ta'minlanishiga mo'ljallab, maxsus uskunalangan yoki texnik vositalar bilan jihozlangan inshoot yoki transport vositasi (yoxud majmua). Ular fuqaro muhofazasining barcha bo'g'inlarida tuziladi (21-rasm).



21-rasm. Fuqaro muhofazasini.

Qanday maqsadlarda mo'ljallangani va joylashgan o'rniga qarab boshqaruv maskanlari iqtisodiyotning hududiy va tarmoq bo'g'inlarida bo'lishi mumkin. Zaxira, shahar, yordamchi, ko'chma, havodagi boshqaruv, favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish kuchlari va vositalarini boshqarish.

Fuqaro muhofazasi hududiy xizmatlarining boshqaruv maskanlarini tegishli fuqaro muhofazasi boshliqlari joylashadigan boshqaruv maskanlari yaqinida joylashtirish kerak.

Ko'chma boshqaruv maskanlari (KBM) O'zbekiston Respublikasida, Qoraqalpog'iston Respublikasida va viloyatlarda, shaharlarda, tumanlarda, xalq xo'jaligi obyektlarida oldindan tashkil etiladi. Ko'chma boshqaruv maskanlari shikast o'chog'ida yoki tabiiy ofat hududlardagi eng mas'uliatli yo'nalishlarda qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni o'tkazish hamda fuqaro muhofazasi kuchlariga bevosita rahbarlik qilishni ta'minlash uchun mo'ljallangan.

Ko'chma boshqaruv maskanlari maxsus yoki moslashtirilgan qo'mondon-shtab mashinalarida yo'lga qo'yiladi. Ularda ish o'rinlari jihozlanadi hamda fuqaro muhofazasi boshlig'ining yuqori organlar, zaxiradagi boshqaruv maskani, tasarrufidagi organlar va fuqaro muhofazasi kuchlari bilan aloqasini ta'minlab beradigan aloqa vositalari o'rnatiladi.

Havodagi boshqaruv maskanlari respublika, viloyat, toifalangan shaharlarning bo'g'inlarida vertolyot, samolyotlar bazasida, yerdagi boshqaruv maskanlaridan boshqarish qiyinlashgan yoki mumkin bo'lmay qolganda FVDT kuchlarini boshqarishga mo'ljallangan bo'ladi.

FVDTning axborot-boshqaruv quyi tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi (FVDT haqidagi Nizomning 24-bandi):

- Favqulodda vaziyatlar vazirligining favqulodda vaziyatlarni boshqarish markazi;

- FVDT hududiy va funksional quyi tizimlarining axborot markazlari;

- atrof tabiiy muhit va kuchli xavfli obyektlar holatini kuza-tish-nazorat qilish organlarining axborot markazlari;

- favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish kuchlari va vositalari boshqarishning harakatlanuvchi maskanlari;

- aloqa va axborot uzatish vositalari, shu jumladan boshqarish va axborot bilan ta'minlashning avtomatlashtirilgan tizimi.

Fuqaro muhofazasi tadbirlarini o'tkazish uchun ma'lumotlar to'plab sharoitga baho berish, qaror qabul qilish va vazifalarni belgilashda, boshqaruvning asosiy hujjati Fuqaro muhofazasi rejasi hisoblanadi. Shikastlanish o'choqlarida qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni boshqarish asosi fuqaro muhofazasi boshlig'i qabul qilgan qarordir.

Qutqaruv ishlarini o'tkazish uchun boshliqning yuqoriga asos sharti berilgan bahodan kelib chiqqan xulosalar sanaladi. Shu maqsadda fuqaro muhofazasi organlari tabiiy ofatlar, avariya, halokatlar sodir bo'lganda, o'z ixtiyoridagi umumiy va maxsus razvedka kuchlari va vositalarini bor imkoniyatlaridan yuqori darajada



foydalanadilar. Binobarin, tasarrufidagi hamkor organlardan, harbiy qo‘mondonlik organlari, qo‘shinlari, shuningdek, yuqori fuqaro muhofazasi organlaridan va boshqa manbalarda (kundalik boshqaruv organlari, axborot-boshqaruv quyi tizimi) yuzaga kelgan sharoit haqida ma‘lumot to‘plashni tashkil etadi.

Sharoit haqidagi ma‘lumotlar tahliliga (ularga berilgan bahoga) asos fuqaro muhofazasi xizmatlari boshliqlari qabul qiladigan qarorlar yuzasidan xulosalar va takliflar tayyorlab, fuqaro muhofazasi boshlig‘iga axborot beriladi.

Sharoitga baho berishda fuqaro muhofazasi boshliqlari quyidagilarni o‘rganib chiqadi:

- tabiiy ofat, avariya, halokat yuzaga kelgan joy xarakteri, ko‘lami;

- viloyat (shahar, tuman, obyekt) hududidagi kuch va vositalarni olib chiqish yo‘llaridagi vayronaliklar (suv bosishlar), yong‘inlar shikastlanishlarning xarakteri, hajmi;

- amalga oshiriladigan ishlar turi va hajmi;

- radioaktiv, kimyoviy, bakteriologik va boshqa sharoit, uning qutqaruv, boshqa ishlarni o‘tkazishga ko‘rsatadigan ta‘siri;

- fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarining, boshqaruv organlarining tarkibi, holati, ta‘minoti va imkoniyatlari;

- qo‘shimcha (maxsus) kuchlar jalb etish ehtiyoji;

- shikastlanish o‘chog‘i chegarasi (tabiiy ofat, avariya, halokat joyi);

- yondosh qo‘shni shahar-tumanlardagi, obyektlardagi fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarning ahvoli, xarakteri, faoliyati va ular bilan hamkorlik qilish shartlari;

- kuchlar va vositalarning shikastlanish o‘chog‘iga (tabiiy ofat, avariya, halokat joyiga) va ishlash obyektlariga borish marshrutining holati va joy tavsifi;

- gidrometeorologik sharoit, ob-havo holati, yil fasli va sutka vaqti;

- qutqaruv ishlari o‘tkazish uchun kuch va vositalar kiritishning eng maqbul yo‘nalishlari, qutqaruv ishlarini o‘tkazish chog‘idagi xavfsizlik choralari.

Shikastlanish o'chog'ida (tabiiy ofat, avariya, halokat joyida) yuzaga kelgan sharoitga baho berish va qo'yilgan vazifalarni aniqlashtirish yuzasidan shaxsan o'zi olib borgan ishlar natijasida, shuningdek, FVDT organlarining xulosalari va takliflarini hisobga olib, fuqaro muhofazasi boshliqlari shikastlanish (zararlanish) o'choqlarida avariya-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni.

Fuqaro muhofazasi boshlig'i qaror qabul qilishni ta'minlash maqsadida xizmatlar va boshqaruvning boshqa organlari bilan hamkorlikda sharoitni, kuch va vositalarni, meteorologik shart-sharoitlarni o'rganib, baho beradi.

Fuqaro muhofazasi boshlig'i qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni o'tkazish haqida qaror qabul qilarkan, quyidagilarni belgilab oladi:

- harakatlar mazmuni: tuzilmalarning asosiy kuchlarini qayerda va qanday sharoitda jamlash, ishlarni, kuch va vositalar manevrlari qanday tartibda (qanday ketma-ketlikda) amalga oshirish;

- birinchi smena tuzilmalari va bo'linmalarining vazifalari;

- ikkinchi va undan keyingi smenalar, rezervlarning vazifalari;

- ishlarning boshlanish va tugash vaqtlari;

- hamkorlik qilish tartibi;

- qutqaruv ishlarini o'tkazish vaqtida tuzilmalarni moddiy, texnik va boshqa vositalar bilan ta'minlash tadbirlari, ishlarni o'tkazishda xavfsizlik choralari;

- boshqaruvni tashkil etish.

O'zaro hamkorlik. Qutqaruv ishlarini o'tkazishda fuqaro muhofazasi organlari va kuchlarning hamkorligini tashkil etish tartibini aniqlab qo'yish, fuqaro muhofazasi boshlig'ining avariya-qutqaruv ishlarni o'tkazish haqidagi qarorining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Hamkorlik fuqaro muhofazasining har bir bo'g'inida aniqlanadi (zashkil etiladi). Bundan maqsad birgalikdagi harakatlar vazifalarini, maqsadlarini va vaqtini kelishib olish, shuningdek, asosiy vazifa bajarilishini ko'zlab, turli kuch va vositalarning imkoniyatlaridan samaraliroq foydalanishdir.

Avariya-qutqaruv ishlarini o'tkazish haqida tezda qaror qabul qilish bilan birga, vazifalarni ijrochilarga o'z vaqtida yetkazilishining ham, ular bajarilishini aniq tashviq etishning ham ahamiyati katta.

Tasarrufidagi fuqaro muhofazasi organlariga, tuzilmalar komandirlariga, birlashtirilgan qismlar (bo'linmalar)ga vazifalar fuqaro muhofazasi boshlig'ining shaxsan o'zi tomonidan yoki fuqaro muhofazasi organlari orqali buyruq hamda farmoyishlar shaklida beriladi.

Fuqaro muhofazasi boshlig'i tasarrufidagi fuqaro muhofazasi kuchlari boshqaruvi tomonidan ularga qo'yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun to'la javobgardir.

Fuqaro muhofazasi boshlig'ining qarorini to'la amalga oshirishga imkon beruvchi boshqaruvning to'liq, samarali va moslashuvchan tizimisiz favqulodda vaziyatlar sharoitida murakkab vazifalarni bajarish mumkin emas.

Shuningdek, zaxira (shahardagi, shahar tashqarisidagi) yordamchi, ko'chma, favqulodda vaziyatni tugatish kuchlari va vositalarini boshqarish maskanlari ham bo'ladi.

Shahardagi zaxira boshqaruv maskanlari – shaharlar doirasida, lekin toifalangan obyektlardan tashqarida joylashtiriladi. Ularni muhofaza qilish darajasi, tegishli shahar uchun belgilab quyilgan muhofazalash darajasiga muvofiq bo'lishi kerak.

### **3. 2. Xabar berish turlari va usullari**

Respublikada, viloyatlarda, tuman va iqtisodiyot obyektlarida aloqa va xabar berish xizmatini tashkil etish, uning kuchlari va vositalari.

O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar, poytaxt-shahar aloqa tizimi asosini boshqaruv maskanlarining aloqa tarmoqlari tashkil etadi.

Boshqaruv maskanlarining aloqa tarmog‘i – bu boshqarishni ta’minlash uchun ishlatilgan aloqa kuchlari va vositalarning tashkiliy-texnik birlashmasidir.

Fuqaro muhofazasi tizimida radio, radiorele, simli va signal beruvchi aloqa vositalari ishlatiladi.

Xabar berish tizimi lokal va markazlashgan tizimlarga bo‘linadi.

Xabar berishning lokal tizimlari halokatli suv bosish ehtimoli mavjud hududlarda, atom energetikasi obyektlarida, kimyoviy xavfli obyektlar joylashgan hududlarda aholini zudlik bilan xabardor qilish maqsadada tashkil etiladi.

Lokal tizimlarning asosiy afzalligi – tezkorlikdir.

Xabar berishning markazlashgan tizimi:

– shaharlarda, tumanlarda, obyektlarda va qishloq joylarda yirik aholi maskanlarida markazlashgan va markazlashmagan tarzda «Diqqat, barchaga!» signalini berish;

– simli eshittirish tarmoqlari lokal mahalliy, radioeshittirish stansiyalarida og‘zaki axborot berish yo‘li bilan aholiga xabar berish;

– signallarni va axbrotni respublika, vazirliklar, viloyatlar, tuman va shaharlar, shuningdek, idoralarning boshqaruv maskanlariga, barcha ichki ishlar bo‘limlariga yetkazish;

– xonadon va xizmat telefonlaridan mansabdor shaxslarga uzluksiz xabar berish;

– fuqaro muhofazasi xabar berish signalini iqtisodiyot obyektlari, ishchi-xizmatchilariga, FVDT tuzilmalariga va O‘zbekiston Respublikasining barcha aholisiga yetkazishni ta’minlashi kerak bo‘ladi.

Aloqa va xabar berish tizimi quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- barqarorlik;
- harakatchanlik;
- o‘z vaqtida bo‘lishi;
- ishonchlilik;
- yashirinlik;
- hushyorlikka;

- Bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlarning zararlan-tiruvchi omillarini e‘tiborga olgan holda aloqa tizimini tashkil etish;
- Aloqa uzellari qismlarini himoya inshootlariga joylashtirish;
- Turli aloqa vositalarini birgalikda qo‘llash;
- Aloqa zaxira kuch va vositalarini tuzish, ularni to‘g‘ri joy-lashtirish va o‘z vaqtida qo‘llash bilan;

Harakatchanlikka:

- Aloqa tizimini yoyish va qismlarini yig‘ish vaqtini kamay-tirish;
- Aloqa kuch va vositalarini to‘g‘ri joylashtirish va zaxiralari-dan to‘g‘ri foydalanish;
- Aloqa kanallari, kuchlari va vositalari bilan tezlikda harakat qilish bilan;
- Aloqa tizimini tezlik va barqaror boshqarish bilan erishiladi.

Aloqa tizimini o‘z vaqtidaligi:

- Aloqa tarmoqlarini boshqaruv maskanlarida avvaldan o‘rnatib ishga tayyorlab qo‘yish bo‘yicha tashkiliy va muhandislik texnik tadbirlarini o‘tkazish;

- tezkor va barqaror boshqarish;

- o‘zaro axborot almashinish va ko‘rsatuv olib borish bo‘yicha qabul qilingan qoidalarga rioya qilish;

- uzatilayotgan axborotlar hajmi so‘z jihatidan kam va ma‘no jihatidan tushunarli hamda farmoyish va xabarlarini bir qolipga solish;

- aloqa tarmoqlarida tezkor-texnik xizmatni aniq tashkil qilish va axborotlar harakatini qattiq nazoratga olib borish.

Aloqa tizimini ishonchligi:

- aloqa kanallari va vositalarining texnik tavsifini o‘rnatilgan (qabul qilingan) parametrlarda saqlab turish;

- o‘ta muhim axborotlarni uzatish uchun yuqori sifatli kanallar-ni qo‘llash;

- bir paytning o‘zida bitta kanal orqali xabarlarini qaytadan uzatish;

– orqaga tekshirish va o‘ta ishonchli apparatlarni qo‘llash bilan erishiladi.

Aloqa tizimining yashirinligi:

– maxfiylashtirish, shifrlash, kodlashtirish apparatlarini va yashirin boshqarish hujjatlarini qo‘llash;

– o‘zaro axborot almashinishda, ma’lumotlarni uzatishda qabul qilingan qoida va tartiblarni saqlash;

– maxfiy axborot almashinuvida iloji boricha kamroq odamlarni jalb qilish;

– aloqa vositalarini to‘g‘ri joylashtirish, ularni ishlash tartibiga qat’iy rioya qilish.

Xabar berish tizimining asosiy vazifalari:

– aloqa va xabar berishni tashkil etish uchun fuqaro muhofazasi boshliqlari mas’uldir. Aloqa va xabar berish tizimining asosiy vazifalari;

– signallarni o‘z vaqtida berish va qabul qilib olish, FVDT rejimlarini o‘rnatish xususida farmoyish yuborish;

– FVDT boshqaruv organlari o‘rtasida quyidan yuqoriga va yuqoridan quyiga axborot almashinishining ishonchli bo‘lishini ta’minlash.

1. Respublika darajasida:

– respublika markazlashtirilgan xabar berish tizimini, shuningdek, axborot bilan ta’minlash va boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va uni doimiy tayyor holda saqlash;

– aloqa, radio, televideniya va boshqa texnika vositalarining davlat va idoraviy kanallaridan boshqarish va axborotni uzatish uchun markazlashtirilgan holda foydalanishni ta’minlash;

– xavf kuchi obyektlarda hamda ularga yondosh hududlarda xabar berish va axborot uzatishning mahalliy tizimini, shuningdek, suv omborlarining gidrotexnik inshootlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatlashtirilgan tizimlarini loyihalashtirish va yaratishni nazorat qilish;

– yuzaga kelgan favqulodda vaziyatlarning rivojlanish ko‘lamlari va mumkin bo‘lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga oid qabul qilinayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi axborotni to‘plash hamda almashinuvi va xabar qilinishini ta‘minlash va nazorat qilish.

## 2. Mahalliy darajasida:

– viloyat ichki aloqasining xabar berish tizimlari, shuningdek, boshqaruvning va axborot bilan ta‘minlashning avtomatlashtirilgan tizimi (BAT)ni tashkil etish va doimiy tayyor holda saqlash;

– boshqarish va axborotni uzatish uchun aloqa, radio, televideniya hamda boshqa texnika vositalarining davlat, viloyat va idoraviy kanallaridan markazlashtirilgan holda foydalanishni ta‘minlash;

– manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda kimyoviy va boshqa xavf kuchli obyektlar va ularga yondosh hududlarda xabar berish va axborot uzatishning mahalliy tizimlarini, shuningdek, suv omborlarining gidrotexnik inshootlarida signalizatsiya va xabar berishning avtomatik tizimlarini yaratish.

## 3. Obyekt darajasida:

– kimyoviy va boshqa xavfli obyektlarda xabar berish va axborot uzatishning mahalliy tizimlarini, shuningdek, gidrotexnik inshootlarda signalizatsiya va xabar qilishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish ishlarini tashkil etish;

– xabar berish, axborot to‘plashni ta‘minlash va nazorat qilish, yuzaga kelgan favqulodda vaziyat, uning rivojlanish ko‘lamlari va kechishi, yetkazishi mumkin bo‘lgan oqibatlari, favqulodda vaziyatni bartaraf etish uchun qurilayotgan chora-tadbirlar va zaruriy yordam to‘g‘risida yuqori organlarga ma‘lumot berish.


O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralarining axborot uzatish tizimi aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha vazifalari:

– fuqaro muhofazasi tadbirlarini o‘tkazish chog‘ida aloqa tizimlarining ishonchli va barqaror ishlashini ta‘minlashni tashkil etish va amalga oshirish;

– idoraviy potensial xavfli obyektlarda signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatlashtirilgan tizimini yaratish;

– aholini favqulodda vaziyat xavfi tug‘ilganligi va sodir bo‘lganligi to‘g‘risidagi axborot bilan ta‘minlash.

**Xabar berish signallari va ular bo‘yicha aholining harakati.** Aholi muhofazasi qandaydir xavf-xatar tahdidi tug‘ilgani yoki yuzaga kelganligi to‘g‘risida xabar berish va axborot tarqatishni kechiktirmasdan, vaqtida amalga oshirishdan boshlanadi (22-rasm).



22-rasm. Xabar berish signallari vositalari.

Xabar berish shartlashib olingan, oldindan belgilab qo‘yilgan va aholiga aniq tushunarli bo‘lgan signallar (sirena ovozi, ovoz chiqaruvchi buyumlarni urish va boshqalar) orqali amalga oshiriladi.

Xavf signalini aholiga yetkazishning asosiy vositasi bo‘lib elektr sirenalari hisoblanadi.

Qanday xavf tugilmasin, elektr sirenalari ishga tushiriladi. Ularning hayqirig‘iga korxonalarining uzun-uzun gudoklari jo‘r bo‘ladi. Bu fuqaro muhofazasining yagona «Barchaga diqqat!» signalidir.



Sirena ovozi eshitilgan zahoti televizor, radiopriyomnik, radio-karnaylarni ishlatib qo‘yib, mahalliy hokimiyat organlarining yoki favqulodda vaziyatlar boshqarma (bo‘lim)larining yuzaga kelgan tahdidning xarakteri, ko‘lami, shuningdek, bunday sharoitlarda aholining to‘g‘ri harakatlari to‘g‘risidagi tavsiyalarni tinglash kerak.

**Favqulodda vaziyat yuz bergan joyda aholiga xabar berish tartibi.** Radioeshittirish va televideniya (jo‘r ovoz bo‘ladigan radiouzatgichlarni ham qo‘shib) mamlakat aholisiga xabar berish va ommaviy axborotni yetkazishning asosiy vositalari hisoblanadi.

Fuqaro muhofazasi (FM) xabar berish signallari va tegishli axborot butun hududga ham, shuningdek, hududlarni tanlab olib (viloyat tumanini) ham berilishi mumkin.


Kimyoviy zaharlanish yoki halokatli suv bosishi xavfi haqida KTEZM bor obyektlarning dispetcherlari (smena muhandislari) to‘g‘ridan to‘g‘ri ulangan simlar (radiostansiyalar) yordamida viloyatlarning tezkor navbatahilariga xabar beradi.

Shunday qilib, FV xavfi borligi yoki yuzaga kelishi va aholini xatti-harakatlari haqidagi axborotni to‘g‘ri, to‘liq va o‘z vaqtida yetkazish, xabar berish tizimining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib, unga ommaviy axborot vositalari boshqaruv maskanlarini, nozimlik xizmatlarini mos apparatlar, xabar berish matnlari yozilgan audio va video tasmalari bilan avvaldan ta‘minlab berish orqali erishiladi.

Ishonchli va barqaror aloqa, shuningdek, haqqoniy axborot – aholi muhofazasini tashkil etish va favqulodda vaziyatlarning oldini olish tadbirlari zanjiridagi asosiy bo‘g‘inlardan biridir.

**Aloqa va xabar berishni tashkil etish.** Fuqaro muhofazasi xavf-xatar haqida yoki uning yuz berishi mumkinligi to‘g‘risida o‘z vaqtida xabar va ma‘lumot berishdan boshlanadi.

Aholiga xabar berish – bu yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan, zilzila, suv bosishi, yoki boshqa tabiiy ofatlar haqida ogohlantirish bo‘lib, o‘tgan avariya, falokatlar haqida xabar berishdir (23-rasm).



23-rasm. Aholiga xabar berish aloqa tizimi.

Razvedka ishlari joyidagi aniq holatni hisobga olishga bog‘liq bo‘ladi. Qutqaruv ishlari ushbu ishga jalb qilingan barcha xodimlarni o‘ziga topshirilgan har qanday vazifani muvaffaqiyatli bajarilishini talab etadi. FM boshlig‘i, shtab xodimlari va FM xizmatchilari tomonidan bo‘ladigan rahbarlikni faollashtirgan holda qutqaruv ishlarini bor kuch va imkoniyatlardan unumli foydalanish ayni muddao bo‘ladi. Qutqaruv ishlarini muvaffaqiyatli bajarish maqsadida FM boshlig‘i, shtab xodimlari, xizmatchilari va guruhlar komandirlari va boshqa barcha xodimlar zararlanish o‘choqlarida ish olib borish xarakterini marshrutlarini oldindan bilib olishlari kerak.

Razvedka ishlari yaxshi tashkil etilishi va uni mohirona olib borilishi qutqaruv ishlarini yuqori saviyada o‘tishini ta‘minlaydi, FVda vaziyatning zararlanish o‘chog‘ini aniqlaydi:

- zararlanish o‘chog‘ini chegarasini va uni tarqalish yo‘nalishini aniqlaydi;
- xavf ostida qolgan va qolish ehtimoli bo‘lgan obyektlar va aholi yashash maskanlari;

- odamlar gavjum bo‘lgan joylarni;
- zararlangan bino inshootlarning holatini;
- zararlanish o‘chog‘idagi shikastlangan odamlarning mavjudligi;
- kommunal energetika tizimlaridagi avariya joylarini;
- buzilgan joylarga texnikani kira olish yo‘llarini mavjudligini;
- shoshilinch avariya tiklash ishlarini hajmini;

Yirik avariya va falokatlarda razvedka buzilgan joylarning hajmini va uning buzilish darajasini va shaxsiy himoya vositalarsiz ishlarni bajarish imkonini bino inshootlarini yaroqli yoki yaroqsizligi aniqlanadi, odamlar gavjum joylarda ta‘sir qiladigan xavf darajasini, kommunal energetik tizim va transport kommunikatsiyalarda ularning holatini aniqlaydi.

Razvedka vazifalari:

- FV xarakterini va uning o‘chog‘ini aniqlash;
- jabrlanganlar holati va ularning qayerdaligini aniqlash;
- radioaktiv, kimyoviy, biologik zararlanish darajasini baholash;
- injener kommunikatsiyalarini, aloqa tizimini, suv manbalarini holatini baholash;
- yong‘in o‘choqlarini aniqlash;
- aholini va jabrlanganlarni olib chiqib ketish yo‘llari aniqlanadi;
- qidirib topish ishlarini rejalashtirish;

Razvedkani olib boradigan tuzilmalar tarkibida zararlangan hududda obyektini va uning ishlab chiqarish yo‘nalishini biladigan mutaxassislar kiritiladi, undan tashqari, razvedkachilar tuzilmasiga mutaxassis ximik, tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislar zararlanish o‘choqlari xarakteriga qarab razvedkachi tuzilmalar tarkibiga kiritiladi. FV yuz bergan o‘choqda razvedkani o‘tkazish, qutqaruv ishlarini olib borishni, qutqaruvchilarni, jarohatlanganlarni va aholini xavfsizligini ta‘minlashda eng muhim bosqich hisoblanadi.

### 3. 4. Topografik xaritasida ish yuritish

Iqtisodiyot obyektlarining rivojlantirish rejalarini tuzishda barcha resurslar, jumladan, tabiiy resurslar ilmiy asosda hisobga olinadi.

Tabiiy resurslar mamlakatimiz hududini har tamonlama mukammal o'rganish natijasida aniqlanadi. Kichikroq hududlarning qog'ozda kichraytirilgan tasviri – topografiya xaritalar asosida o'rganiladi.

Karta to'g'risida umumiy tushuncha. Yer egriligini e'tiborga olib, uning yuzasini qog'ozda kichraytirib ko'rsatilgan tasviri karta deyiladi. Yerni sferik yuzasini xaritada tasvirlashda ba'zi bir xatolar ro'y beradi. Bu xatolar yer yuzasidagi bir xil uzunlikdagi chiziqlar va bir xil kattalikdagi maydonlarni xaritada bir xilda kichraytirib tushmasligi hamda xaritada tasvirlangan burchaklarning yer yuzasidagi shu burchaklarga teng bo'lmasligi natijasida kelib chiqadi. Karta tuzishda dastlab meridian va parallel chiziqlari, ya'ni kartografik to'r chiziladi. So'ngra, bu kartografik to'r geografik obyektlar bilan to'ldiriladi. Har bir xaritaning kartografik to'ri ma'lum bir proyeksiyada chiziladi. Kartografik to'r chizishda qo'llaniladigan kartografik proyeksiyalar g'oyat ko'p va xilma-xildir.

Umuman biron-bir kartografik to'r chizilganda tasvirlanishi kerak bo'lgan hudud dastlab tuzilayotgan karta masshtabidagi globus yuzasiga tushirilgan deb faraz qilinadi. Bu globus ma'lum matematik usul, ya'ni kartografik proyeksiya asosida tekislikka (qog'ozga) yoyiladi.

Shunda proyeksiyaning ba'zi chiziqlarida faraz qilingan globus masshtabi saqlanib qoladi. Bu masshtab – bosh masshtab deyiladi. Bu masshtab, odatda, xaritada berilgan bo'ladi.

Proyeksiyaning boshqa qismlarida masshtab bosh masshtabdan katta yoki kichik bo'ladi va u xususiy deb yuritiladi. Demak xaritaning masshtabi uning turli joyida turlicha bo'ladi.

Yuqorida yer yuzasining qog'ozda kichraytirilgan tasviriga karta degan edik. Xaritaning bu ta'rifi uning rejadani farqini ko'rsatish uchun berilgan edi. Xaritaga berilgan bu ta'rif to'liq emas, uning to'liq ta'rifi quyidagicha bo'ladi: karta deb yer yuzasining qog'ozda kichraytirilgan, umumlashtirilgan, ma'lum matematik proyeksiya usulda tuzilgan tasviri bo'ib, u oldiga qo'yilgan maqsadga ko'ra, ma'lum obyektlar, tabiiy va ijtimoiy hodisalarni joylashishi o'zaro bog'liq ekanligi, bir-biriga munosabatini aks ettirishiga aytiladi.

Topografik karta faqat yer yuzasini har tamonlama o'rganish-dagina emas, balki hududni hisobga olish va ulardan maqsadga muvofiq foydalanish hamda turli inshootlar qurish kabi ilmiy va amaliy ishlarda keng qo'llaniladi. Topografik karta barcha geografik xaritalarni yaratishda asos bo'lib xizmat qiladi. Umuman, mamlakatimiz hududini topografik xaritalarini tuzish uchun mazkur hududni topografik jihatdan o'rganib, uning rejasini olinadi.

Yer yuzasini topografik jihatdan o'rganish maqsadida uning rejasini olish nazariyasi va ahamiyati bilan shug'ullanadigan fan topografiya deyiladi. Ma'lum bir joyning rejasini olish uchun shu joyda o'lchash ishlari bajariladi. Masalan, joyda masofalar, maydonlar va burchaklar o'lchanadi, ayrim nuqtalarning balandligi aniqlanadi. O'lchash vaqtida turli topografik asboblardan ishlatiladi. Topografik asboblarning tuzilishi va reja olishda foydalanish usullarini ham topografiya o'rgatadi.

Joylardagi obyektlar juda ko'p va xilma xildir. Topografik xaritada shu joydagi obyektlargina tasvirlanadi. Binobarin, reja olishda joylardagi obyektlarning asosiylarini xaritada tanlab, bu obyektlarning asosiylarini saralab va umumlashtirib ko'rsatish kartografik generalizatsiya deyiladi.

Topografik reja olishda kartografik generalizatsiya uslublarini o'rganish va ishlab chiqarish ham topografiyaning vazifalaridan biri hisoblanadi.

Topografik xaritada yer yuzida tafsilotlar maxsus shartli belgilar bilan ko'rsatiladi. Har bir shartli belgi tasvirlangan tafsilotni

kerakligi, jismning katta kichikligi, o'ziga xos jihatlari va boshqa xususiyatlarini ifodalay olishi kerak.

Demak, tapografik xaritada joyning geografik jihatdan to'g'ri tasvirlay oladigan hamda undan foydalanishni osonlashtiradigan shartli belgilarni ishlab chiqish ham topografiyani vazifasiga kiradi.

Bundan tashqari topografiya reja olish natijasida tuziladigan xaritalarni tahlil qilish uslublari bilan shug'ullanadi. Topografik xaritada geografik landshaftning faqat ko'zga tashlanadigan elementlarigina ko'rsatiladi. Topografik xaritadan foydalanib har xil ilmiy, mudofaa va xo'jalik masalalarini hal qilishda hududning ba'zi ko'zga ko'rinmas (ob-havo, suvning sifati va h.k.) xususiyatlarini bilish kerak bo'ladi.

Shuning uchun topografik xaritaga qo'shimcha ravishda joyning topografik matni beriladi.

Shunday qilib, topografiyani vazifasi asosan yer yuzasining rejasini olish ishlarini taslik qilish va rejasi olinayotgan hududni topografik jihatdan o'rganish;

– turli geodezik asboblardan reja olish usullarini o'rganish;  
– aerofotosurat materiallaridan foydalanib, topografik reja tuzish uslublari o'rganish va bu usul asosida topografik xaritalar tuzish;

– reja olishda kartografik generalizatsiya uslublari o'rganish;  
– topografik karta tuzishning barcha bosqichlarida uni tahrir qilish yo'llarini o'rganish;

– topografik xaritalarning shartli belgilarini yanada takomillashtirish;

– topografik xaritaga qo'shimcha ravishda beriladigan topografik matnlarning mazmunini tobora murakkablashtira borishdan iboratdir.

Joyning topografik elementlari, joy va yer ustini kichik bir qismidir. Yer yuzasidagi notekisliklar, ya'ni balandlik va pastlik, tog'lik va past tekisliklar yig'indisiga relyef deyiladi. Katta hududni egallagan mahalliy predmetlarga esa geografik obyektlar deyiladi. Joyning topografik elementlari bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Butun Yer yuzasi yoki uning ayrim katta qismini xaritada tasvirlashda Yerning sferoid shaklda ekanligini e'tiborga olish lozim. Bunda dastlab Yer yuzasidagi nuqtalar tik chiziqlar yordamida ellipsoid yoki shar yuzasiga tushiriladi, so'ngra Yer yuzasini ellipsoid yoki shar yuzasiga tushirilgan gorizantal proyeksiyasi tekislikda (qog'ozda) kichraytirib tasvirlanadi.

**Geografik va topografik xaritalar.** Geografik xaritalar g'oyat ko'p va xilma-xildir. Geografik xaritalar turlari va xususiyatlari bo'yicha tasniflanadi. Masalan, tasvirlangan hududning maydoni xaritaning maqsadi, mazmuni, masshtabi va boshqa xususiyatlari bo'yicha olinadi. Umumgeografik xaritalar masshtabining yirik maydaligiga qarab, topografik va obzor topografik xaritalarga bo'linadi.

Masshtabi 1:1 000 000 dan mayda bo'lgan umumgeografik xaritalar obzor xaritalar deyiladi. Masshtabi 1:200 000 dan 1:1 000 000 gacha bo'lgan umumgeografik xaritalar obzor-topografik xaritalar deb yuritiladi. Bu xaritalarda hudud obzor xaritalarga qaraganda bir muncha mukammal tasvirlanadi. Bu xaritalar, odatda, 1:200 000, 1:500 000 va 1:1000 000 masshtabda tuziladi. Bu xaritalarda xalq xo'jaligini rivojlantirish va loyihalarini tuzishda, yirik inshootlarni belgilashda, hududlarni dastlabki o'rganishda, oriyentirlashda hamda yirik harbiy operatsiyalar tayyorlashda va umumiy jangovar holatni tushunishda foydalaniladi.

Masshtabi 1:200 000 dan 1: 10 000 gacha bo'lgan umumgeografik xaritalar yirik masshtabli topografik xaritalar deyiladi. Bu xaritalarda hudud topografik jihatdan aniq va mukammal tasvirlanadi. Shuning uchun ham topografik xaritalar hududni aniq va mukammal o'rganish, tekshirish, o'lchash ishlarini olib borish, turli inshootlar qurish joyida oriyentirlash, bo'linmalar mudofasini tashkil qilish, marshni tasvirlash, mo'ljallarni ko'rsatishda qo'llaniladi.

Topografik xaritalar yirik masshtabli xaritalar bo'lganligi sababli ularda hudud ma'lum kattalikdagi ayrim qismlarga bo'linib, har bir qism alohida varaqda tasvirlanadi. Har bir varaq topografik xaritada ma'lum kattalikdagi joy qabul qilingan kartografik to'r masshtab hamda ramkada tasvirlanadi. Topografik xaritaning kar-

tografik to'ri, masshtabi, ramkasi hamda geodezik tayanch nuqtalari uning matematik elementlari deyiladi.

Topografik xaritani yuqorida aytilgan elementlarini umumlashtirib 3 guruhga bo'lish mumkin:

Matematik elementlari:

- koordinata to'ri;
- masshtabi;
- ramkasi, varaqlarga bo'linishi va nomenklaturasi;
- geodezik tayanch nuqtalari.

Geografik elementlari:

- gidrografiya obyektlari;
- relyef;
- o'simlik va guruh ko'rsatkichlari;
- aholi yashaydigan joylar;
- yo'llar va aloqa vositalari;
- ijtimoiy va iqtisodiy obyektlari;
- siyosiy ma'muriy chegaralar;

Yordamchi elementlar:

- xaritaning nomi;
- xaritaning ramkasidan tashqarida beriladigan turli grafik va chizmalar;

– xaritaning tuzilgan hamda nashr qilingan vaqti, tuzgan va nashr qilgan tashkilotning nomi va h.k.;

– raqamdan tashqarida beriladigan shartli belgi va tushuntirish yozuvlari.

Topografik xaritaning elementlari bir-biriga chambarchas bog'liqdir. Hozirgi vaqtda topografik xaritalar masshtabi 1:10 000, 1:25 000, 1:50 000, 1:100 000, 1:200 000, 1:500 000, 1:1 000 000 shaklida raqamlanadi.

1:25 000 (1 sm da 250 m) masshtabli karta aniq va mukammal karta bo'lib, bundan bo'linma va qism komandirlari daryo uchastkalarini o'rganish va baholashda, tog'dagi dovonlarda jangovar harakatlar tashkil etishda, havo desantni tushurishda, muhandislik



qurilmalar tashkil etishda, o'lchash va hisoblash ishlarida foydalanadilar.

1:50 000 (1sm da 500 m) masshtabli karta – joyni o'rganish va baholashda, oriyentirlashda, mo'ljal ko'rsatishda, bo'linmalar va qismlarni turli jangovar tartibini, ayniqsa mudofaa jangini tashkil etishda foydalaniladi. Hujumkorlik jangida dushman mudofaasini yorib o'tishda joyni o'rganish va baholash uchun suv to'siqlaridan o'tishda, havo desanti tushirishda bu xaritadan foydalaniladi. Bu xaritadan yana otish uchun, topogeodezik tayyorgarlik va harbiy-muhandislik qurilmalarni loyihalashtirishda foydalaniladi.

1:100 000 (1sm da 1 km) masshtabli karta – jangni rejalashtirish, joyning taktik xususiyatlarini o'rganish va baholash, birgalikdagi harakatlarni tashkil etish va qo'shinlarni boshqarish, joyda oriyentirlash va mo'ljal ko'rsatish, jangovar tartibdagi qo'shinlarni topogeodezik elementlar bilan bog'lash, dushman obyektlarining koordinatlarini aniqlash hamda harbiy muhandislik qurilmalarni loyihalashtirishda ishlatiladi.

1:200 000 (1 sm da 2 km) masshtabli karta – joyni o'rganish va baholashda ishlatiladi. Mazkur xaritadan qo'shinlarni jangovar tartibdagi harakatida ularni ta'minlashda va qo'shinlarni boshqarishda foydalaniladi. Bu xaritada yo'l tarmoqlari keng yoritilgan bo'lib, jangovar va boshqa texnika harakatlari uchun foydalanish mumkin. Xaritada yo'l tarmoqlaridan tashqari relyefning umumiy xarakteri, asosiy suv to'siqlari, yirik o'rmon massivlari va aholi maskanlari yaxshi tasvirlangan.

1:500 000 (1 sm da 5 km) masshtabli karta asosan yirik operatsiyalar tayyorlashda joyning umumiy xarakterini o'rganish va baholashda foydalaniladi. Bu karta birgalikda harakat qilish uchun qo'shinlarni boshqarish, qo'shinlar harakatida oriyentirlash va mo'ljalni aniqlash hamda umumiy jangovar holatni tushirishda foydalaniladi.

1:1 000 000 (1 sm da 10 km) masshtabli karta – joyni umumiy baholash va tabiiy sharoitni o'rganish, qo'shinlarni boshqarish va boshqa vazifalarni bajarishda ishlatiladi.

Topografik xaritalaridan mamlakatimiz xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida foydalaniladi. Har bir mutaxassis topografik xaritadan foydalanar ekan undan o'ziga kerakli ma'lumotlarni oladi. Umuman, topografik xaritalardan turli maqsadlarda foydalaniladi.

Xaritalar turli o'lchash ishlarini bajarilishiga kartometrik ishlar deyiladi. Kartometrik ishlarining nazariyasi va texnikasini kartometriya fani o'rganadi.

**Kartografik xaritalarni o'qish.** Topografik xaritani o'qish uchun avvalo uning shartli belgilarni yaxshi bilish kerak bo'ladi. Ma'lumki topografik xaritaning shartli belgilari ma'lum geografik obyektlarning xususiyatlarini xarakterlab beradi. Shuning uchun xaritaning shartli belgilarini yaxshi o'zlashtirgan kishi xaritadan ma'lum geografik obyektlar to'g'risida ancha mukammal ma'lumot ola biladi. Masalan, aholi maskanining xaritadagi tasviriga qarab. Undagi kvartal va ko'chalar, muhim binolar, zavod va fabrikalar, madaniyat va xo'jalik tashkilotlarning joylashuvi, shartli belgi yonida berilgan yozuvlarni o'qib bu obyektlar nomini, yozilish xarakteriga qarab esa tipini (qishloq, posyolka yoki shahar ekanligini) va boshqa xususiyatlarini aniqlash mumkin. Aholi maskani ichidagi bino shartli belgisi yonida berilgan yozuvga qarab, bu binoning maktab, kasalxona, klub, fabrika yoki zavod ekanligini bilish mumkin.

Komandirlar va hamma darajadagi shtablar joyda qo'shinlar harakatiga bog'liq bo'lgan har xil vazifalarni bajarishda topografik xaritalardan keng miqyosda foydalanadilar. Karta bo'yicha joyni o'rganish, aniqlash, har xil muhandis-texnik hisoblashlar bajariladi.

Ishchi karta – bu topografik karta bo'lib, bunda komandir (boshliq, shtab ofitseri) shartli belgilar va yozuvlar yordamida taktik yoki maxsus sharoitni va uning jang paytida o'zgarishini tasvirlaydi. Ishchi karta bo'yicha komandir sharoitni o'rganadi va baholaydi, qaror qabul qiladi, bo'linmalariga vazifa qo'yadi, birgalikdagi harakatni tashkil etadi, nishon bo'yicha ko'rsatma beradi, jangovar harakatni borishini ma'lum qiladi. Bo'linma komandirlari, odatda,

1:50 000 yoki 1:100 000 masshtabli topografik xaritalar bilan ish olib boradilar.

Ba'zi hollarda, masalan, aholi maskanida tadbir olib borishda shahar rejasi 1:10 000 yoki 1:25 000 masshtabli xaritadan foydalanadilar.

Xaritani, odatda, dala sharoitida to'la ochmasligi va dala sumkasida olib yurish uchun uni qatlab taxlanadi.

Geografik koordinatalar:

–Yer yuzasini topografik jihatdan o'rganishda hamma karta va reja ishlashda joydagi nuqtalarning bir-biriga nisbatan tutgan o'rni aniqlash kerak bo'ladi. Nuqtalarning bir-biriga nisbatan tutgan o'rni ularning koordinatalari bilan aniqlanadi.

Boshlang'ich deb qabul qilingan nuqtaga nisbatan biron nuqtaning tutgan o'rni ifodalovchi qiymatlar shu nuqtaning koordinatasi deyiladi.

Nuqtaning geografik koordinatasi deyilganda, bu nuqtaning qaysi meridian va qaysi parallelda joylashganligi tushuniladi. Shuning uchun geografik koordinata to'g'risida gapirishdan oldin ekvator, meridian va parallelar haqida tushuncha bo'lish kerak.

Ma'lumki, Yer o'z o'qi atrofida G'arbdan Sharqqa tamon harakat qilib, bir kecha-yu kunduz davomida bir marotaba aylanib chiqadi. Yerning bu o'qi faraz qilingan o'qdir. Yer sharidagi biror nuqtadan Yerning aylanish o'qi orqali o'tkazilgan tekislik – meridian tekisligi, bu tekislikni yer yuzasi bilan kesishishidan hosil bo'lgan chiziq shu nuqtaning meridiani deyiladi.

Geografik meridian deb – Shimoliy geografik qutb bilan janubiy geografik qutblarni birlashtiruvchi egri chiziq'larga aytilib, ular parallelar bilan kesishib  $90^\circ$  li burchak hosil qiladi.

Yer sharidagi biron nuqta orqali Yer o'qiga perpendikular qilib o'tkazilgan tekislikka parallel tekisligi, bu tekislikni Yer yuzasi bilan kesishishidan hosil bo'lgan chiziqqa parallel deb ataladi. Parallelar har doim doira shaklida bo'ladi.

Yer sharida o'tkazilgan meridian va parallelar o'zaro kesishib geografik to'r deb ataladi. Xaritada geografik to'r yordamida nuqtalarning geografik koordinatalari aniqlanadi.

Yer sharidagi biron nuqtaning geografik koordinatalari (oʻrni) shu nuqtaning geografik kengligi va uzoqligi bilan ifodalanadi.


Yer yuzasidagi biron nuqtadan Yer markaziga tomon tushirilgan tik chiziq bilan ekvator tekisligi orasida hosil boʻlgan burchakka, shu nuqtaning geografik kengligi deyiladi.

Agar geografik kengligi aniqlanayotgan nuqta shimolda joylashgan boʻlsa, shimoliy kenglik, janubda joylashgan boʻlsa, janubiy kenglik deyiladi.

Grinвич meridiani bosh meridian deb qabul qilingan. Bosh meridiandan gʻarbda joylashgan nuqtalarning geografik nuqtalarning geografik uzoqligi gʻarbiy uzoqlik, Sharqda joylashgan nuqtalarning uzoqligi esa sharqiy uzoqlik deyiladi. Ikki nuqtaning geografik uzoqliklari farqi shu nuqtalarning geografik oʻrnini ifodalash bilan birga, ayni vaqtda ularning vaqt farqlarini ham koʻrsatadi. Maʼlumki, 15° lik burchak 1 soatga toʻgʻri keladi. Baʼzi bir maxsus xaritalarda nuqtalarning geografik uzoqliklari bilan birga ularning Grinвичga nisbatan vaqt farqlari ham koʻrsatiladi. Geografik koordinata butun Yer sharidagi barcha nuqtalar uchun yagona tizimlardir. Geografik koordinata boʻyicha Yer yuzasidagi har qanday nuqtaning oʻrni, uning qayerda (chuqurlikdami, okeandami) joylashganligidan qatʼi nazar nazar aniqlanishi mumkin. Topografik xaritalarning butun Yer sharidagi barcha nuqtalar uchun yagona tizimidir. Ularning kengligi va uzoqligi har bir karta varagʻining burchagida yozib qoʻyiladi. Masshtabi 1:25 000, 1:200 000 xaritalar ramkasi tomonlari 1 ga teng boʻlgan boʻlaklarga boʻlingan. Bu boʻlaklar qora, oq rangga boʻyalgan boʻlib, oʻz navbatida ularning orasi 10` dan nuqtalar bilan boʻlingan.

Masshtabi 1:50 000 va 1:100 000 xaritalar varagʻida parallel va meridianlar kesishgan joyida gradus va daqiqalar yozib qoʻyiladi, ramkaning ichki qismida esa daqiqalar chiqish 2–3 mm li chiziqcha bilan koʻrsatiladi. Nuqtaning geografik koordinatasi va uning yaqinida joylashgan kengligi va uzunligi maʼlum boʻlgan parallel va meridianlar yordamida aniqlanadi.

Buning uchun nuqtaga yaqin bo‘lgan 10` nuqtalar janubga qarab kenglik, g‘arbga qarab uzoqlik chizig‘i bilan tutashtiriladi. So‘ngra cho‘zilgan chiziq bo‘yicha kenglik va uzoqlik qiymati aniqlanadi. va nuqtagacha bo‘lgan oraliq umumiy miqdorga kenglik va uzoqlik qo‘shiladi (24-rasm).



24-rasm. Geografik koordinatalarni karta bo‘yicha aniqlash.

**Ishchi xaritani tayyorlash.** Xaritani ishga tayyorlash karta bilan tanishish, uning varaqlarini yelimlash va yelimlangan varaqlarini taxlashni o‘z ichiga oladi.

Karta bilan tanishish uning xarakteristiklari mashtabi, relyefning qirqilishi, nashr qilingan yili, yo‘nalish tuzatmasi hamda karta varaqlarining koordinata hududidagi o‘rnini aniqlashni qamrab oladi. Bu ma’lumotlarni bilish xaritaning batafsilligi va geometrik aniqligi haqida tushuncha olish, uning joyga mos kelish darajasi, mashtabi va nashr qilingan yili esa karta bo‘yicha tayyorlanadigan hujjatlarda ko‘rsatilishi lozim.

Har xil xaritalar varaqlarida relyef balandlik qirqimi, nashr etilgan yili va yo‘nalish tuzatmasi bir xil bo‘lmasligi mumkin. Bir necha varqlarni yelimplashda bu ma‘lumotlar qirqilgan yoki yelimlangan bo‘lishi mumkin, shuning uchun bu ma‘lumotlarni karta varaqlarining orqa tomoniga yozib qo‘yish tavsiya etiladi. Xaritada 1 sm ning joydagi masofasini yonbag‘irlari qiyaligini 1 sm yoki 1 mm dagi joylashmasini, joyda koordinata turining chiziqlar orasidagi masofasini esda saqlash kerak bo‘ladi. Buning hammasi karta bilan ishlashni osonlashtiradi.

Xaritaga FV sharoitni tushirishni ishchi xaritani olib borish deyiladi. Sharoit zarur bo‘lgan aniqlikda, to‘lalikda va ko‘rgazmali qilib tushiriladi.

Ishchi xaritani ko‘rgazmaliligi holatni yorqin va aniq tasvirlanishi va uning asosiy elementlarini ajratish, taktik shartli belgilarni aniq chizish va yozuvlarni mohirlik bilan joylashtirishda maqsadga erishiladi.

#### ***Nazorat savollari:***

- 1. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida vakolatlari nimalardan iborat?*
- 2. Korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida vakolatlari nimalardan iborat?*
- 3. Fuqarolar o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining favqulodda vaziyatlarining oldini olish va ularni bartaraf etishdagi ishtirokini ayting?*
- 4. Toshkent shahri 050 «Qutqaruv xizmati» tarkibi, asosiy vazifalarini aytib?*
- 5. AQI ni olib borishda foydalaniladigan transport vositalarining turlarini ayting?*
- 6. AQI ni olib orishda o‘zaro hamkorlik deganda nimalarni tushunasiz?*
- 7. Avariya-qutqaruv tuzilmalarini olib borayotgan ishlarini hamjihatligi nimalarda namoyon bo‘ladi.*
- 8. Razvedka ishlari kim tomonidan va qanday tartibda olib borilishini tushuntiring?*

*IV BOB*  
**QUTQARUV VA KECHIKTIRIB  
BO'LMAYDIGAN AVARIYA  
TIKLASH ISHLARINI OLIB BORISH  
VA FAOLIYAT XAVFSIZLIGINI  
TA'MINLASH**

Favqulodda vaziyatlarlar yuz berganda obyektning fuqaro muhofazasi boshlig'i ma'lumotlariga asoslangan holda, shtab ishlari tashkil etiladi. Obyekt fuqaro muhofazasi boshlig'i, shtab boshlig'i tuzilmalari favqulodda vaziyatlar shikastlanish o'choqlarida avariya-qutqaruv ishlarini tashkil etadilar.

**4. 1. O'tkir zaharli kimyoviy moddalarni ishlab  
chiqarishda va saqlashda sodir bo'ladigan  
avariyalarni bartaraf qilishda  
qutqaruvchilarning harakati**

O'tkir zaharli kimyoviy moddalar saqlanadigan inshootlarda avariya yoki buzilishlar ro'y berganda, kimyoviy zararlanish hududlari yuzaga keladi. Ushbu hududlarda avariya-qutqaruv ishlarini olib borish uchun kimyoviy holat baholanadi.

Kimyoviy moddalar bilan zararlangan maydon zaharli moddalar konsentratsiyasining havo bilan birgalikda tarqalishda chuqurligi (Ch), kengligi (K) va yuzasi (Yu) bilan xarakterlanadi.

Kimyoviy holatga baho berish uchun quyidagi ma'lumotlarni bilish kerak:

- o'tkir zaharli kimyoviy moddalarning turi va miqdori;
- meteorologik holati;
- maydonning topografik holati;
- quyilish xarakteri;

- zaharlangan havoning tarqalish yo‘nalishi;
- ishchi, xizmatchi va aholining himoyalanganlik darajasi.

Kimyoviy holatga baho berish quyidagii besh izohni o‘z ichiga oladi:

1. Kimyoviy zararlangan hududning maydoni va o‘lchamlarini aniqlash.

2. Zararlangan havoning aholi maskaniga yetib kelish vaqtini aniqlash.

3. O‘tkir zaharli kimyoviy moddalarning zarar keltiruvchi vaqtini aniqlash.

4. Kimyoviy zararlantirish hududidagi kishilarni mumkin bo‘lgan yo‘qotishlarni aniqlash.

5. Kimyoviy zararlangan hududni ish hujjatlariga tushirish.

Kimyoviy zararlangan hududning yuzasi va o‘lchamlari ko‘p jihatdan meteorologik holat va havoning vertikal (tik) barqarorligi bilan bog‘liq.

Shuning uchun zararlangan hududning kattaliklarini topish uchun, dastlab havoning barqarorlik darajasi (inversiya, izotermiya, konveksiya) topiladi.

*Inversiya* – bu yer yuzasidan yuqoriga balandlik ortishi bilan havo haroratining ko‘tarilib borishidir. U Yer bag‘irlab joylashgan qatlamlarda kuzatiladi. Bu hodisa ko‘proq shabadasiz tunlarda, yer yuzasidan issiqlik jadal ajralib chiqishi natijasida sodir bo‘lib Yerning ustki qatlamining va yer bag‘irlab joylashgan havo qatlamining sovishiga olib keladi. Inversiya qatlami o‘nlab-yuzlab metrni tashkil qiladi. Inversiya qatlamidagi havo haroratining ko‘tarilishi 15–200°C gacha bo‘lishi kuzatiladi.

*Inversiya* – qatlami atmosferada ushlab qoluvchi qatlam bo‘lib, havoning tik harakatiga to‘sqinlik qiladi va natijada uning ostidagi suv bug‘i, chang, tutun, bulutlar yig‘ilib qoladi. Inversiya o‘tkir zaharli kimyoviy moddalar bug‘larining tarqalib ketishiga to‘sqinlik qiladi. Inversiya ochiq, havoda, shamol tezligining kichik qiymatlarida (4 m/s gacha), quyosh botishidan taxminan bir soatlar oldin boshlanib, quyosh chiqqandan keyin bir soatlar davomida tarqalib ketadi.



*Izometriya* – havo haroratining muntazam turg'unligi bilan xarakterlanadi. U ko'pincha havo bulut paytlarida, ertalabki va kechki soatlarda, yer yuzasidan 20–30m oralig'ida paydo bo'ladi. Izometriya ham inversiya kabi o'tkir zaharli kimyoviy moddalarni bug'larini yer bag'irlab joylashgan havo qatlamida uzoq muddat ushlanib qolishiga sabab bo'ladi.

*Konveksiya* – atmosfera qatlamida havoning vertikal almashuvidir. Konveksiya tufayli momaqaldiroqlar ro'y berishi, sel, do'l yog'ishi mumkin. Ba'zan atmosfera fronti (oqimi) bo'lib, issiq va sovuq havo qatlami ko'chadi, pastdan yuqoriga issiq havo ko'tariladi va har 100 m balandlikka ko'tarilganda 10°C ga soviydi, lekin kondensiya, inversiya tufayli havo juda baland ko'tarilishi mumkin emas. Termik konveksiya yoz kunlari quruqlikda, qish kunlari dengiz ustida hosil bo'ladi.

Konveksiya sharoitida yuqoriga ko'tarilayotgan havo oqimining tezligi bir necha m/s, ba'zan 20–30 m/s gacha yetishi mumkin. Bu oqim zararlangan (zaharlangan) havo bulutning tarqalishiga va atmosfera o'tkir zaharli kimyoviy moddalar konsentratsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Havo ochiq hollarda quyosh chiqqandan taxminan ikki soatdan so'ng tarqalib ketadi.

Kimyoviy zaharlangan hududning kengligi ( $K$ ) quyidagi kattaliklar bilan aniqlanadi:

- inversiyada –  $K = 0,03 \cdot Ch_3$ ;
- izotermiyada –  $K = 0,15 \cdot Ch_3$ ;
- konveksiyada –  $K = 0,8 \cdot Ch_3$ .

Bunda  $Ch_3$  – zaharli modda konsentratsiyasi bilan zararlangan havoning tarqalish chuqurligi. Kimyoviy zararlangan hududning yuzasi ( $S$ ) teng tomonlari uchburchakning yuzasi deb qabul qilinadi va chuqurligi bilan kengligining yarmi olinadi:

$$S = 1/2 \cdot Ch_3 \cdot K, \text{ km}^2$$

Zararlangan havoning biror joyga yetib kelishi vaqti o'tkir zaharli kimyoviy moddalar qo'yilgan joydan ma'lum manzilgacha (inshootgacha) bo'lgan masofa « $K$ »ning havo oqimi yordamida

esayotgan bulutning o'rtacha tezligi nisbatiga teng. Zararlangan havo bulutning o'rtacha tezligi ( $V_{o'r}$ ).

Zararlangan havoning marraga yetib kelishi vaqtini quyidagicha formuladan aniqlaymiz:


$$t = R / V_{o'r, min}$$

O'ZMning zaharlanish vaqti uning bug'lanish vaqtiga teng bo'ladi, so'ngra qabul qilib, aniqlanadi. Ishchi va xizmatchilarning yo'qotilishi, ishga yaroqsizligi va halok bo'lishi ularning ochiq, maydondagi soniga, himoyalani darajasi va shaxsiy himoya vositalarini vaqtida qo'llay bilishga bog'liq. Kimyoviy zararlangan hududlar ish hujjatlariga ma'lum masshtabda chiziladi. O'tkir zaharli kimyoviy moddalarning qo'yilish joyi va kimyoviy zararlangan hudud chegarasi ko'k rang bilan, zararlangan maydon hududi esa sariq rang bilan bo'yalad.

**Kimyoviy zararlanish hududida qutqaruv ishlari.** Kimyoviy zararlanish hududida obyektning fuqaro muhofazasi boshlig'i qo'l ostidagilarni kimyoviy zaharli modda turini, uning tarqalish yo'nalishini va boshqa zaruriy ma'lumotlar to'g'risida xabardor qiladi, shuningdek, fuqaro muhofazasi shtab boshlig'i zaharlangan hudud va undagi odamlarni himoya qilish usullari va tadbirlarini aniqlaydi. Zararlanish o'chog'idagi razvedka guruhlar uchun vazifalar belgilab beriladi. Qutqaruv ishlarini olib borish uchun shoshilinch kuch va vositalar tayyorlanadi. Zararlanish o'chog'ida uyushtirilgan razvedka guruhi kimyoviy zararlanish o'chog'ini o'lchamlarini aniqlaydi, zaharlanish darajasini va shu asosida eng yaqin, qulay yo'llar bilan odamlarni xavfli zaharlangan hududdan olib chiqib ketish yo'llarini belgilaydi.

Himoya inshootlarda yashiringan odamlarni olib chiqib ketish vaqti belgilangandan so'ng, ular zaharlanmagan hududlarga olib chiqib ketiladi. Shu bilan birga shaxsiy himoya vositalarini yechish vaqti e'lon qilinadi. Kimyoviy zaharlanish hududining va shikast-

lanish manbalarining chegaralariga «Zaharlangan» degan yozuvlar oʻrnatiladi (25-rasm).



25-rasm. Kimyoviy zaharlanishda qoʻyiladigan maxsus belgilar.

Fuqaro muhofazasi boshligʻi razvedka maʼlumotlariga tayanib, ishga jalb etilgan kuchlarga vazifalar beradi. Shaxsan oʻzi himoyaviy zararlanish oqibatlarini tugatish choralarini koʻrishga bosh-qosh boʻladi. Fuqaro muhofazasi boʻlinmalariga ishni olib borilishida bevosita rahbarlik qiladi. Kimyoviy zararlanishning tugatilishi uchun barcha zaruriy tuzilmalar kechiktirilmasdan ishga jalb qilinadi, birinchi navbatda, sanitar boʻlimlar, zararlantirish komandalari, qishloq xoʻjaligi hayvonlari va oʻsimliklarni himoya qilish fuqaro muhofazasi guruhlari, jamoat tartibini saqlash va boshqa boʻlinmalar kechiktirilmasdan ishga jalb etilishi kerak.

Yigʻma komandalarga (guruhlariga) kimyoviy zaharlanishga qarshi himoya vositalari, qutqaruv ishlari olib boriladigan uchastkalari, vazifalar, degazatsiya olib boriladigan tumanlar va qurilmalar koʻrsatiladi.

Maxsus ishlov maskanlari zaharlanmagan hududlarda, zararsizlantirish stansiyalari yaqin boʻlgan yerlarda tashkil qilish tavsiya etiladi.

## 4. 1. Gidrotexnik inshootlardagi avariyaalar

Suv omborlaridagi, daryolardagi, kanallardagi gidrotexnika inshootlarning buzilishi, tog' ko'llaridagi suv sathining o'zgarishi gidrotexnik avariyaalarga sabab bo'lib, buning natijasida suv toshqini sodir bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda odamlar qurbon bo'lishi, sanoat va qishloq xo'jaligi obyektlarining ishi izdan chiqishi, suv bosgan hududdagi aholining turmush faoliyati buzilishi ehtimol tutiladi. Bunday hollarda aholi shoshilinch ko'chiriladi. Gidrotexnik (gidrodinamik) halokat, bu gidrotexnika inshooti yoki uning biror qismi ishdan chiqishi, buzilishi, natijada boshqarib bo'lmaydigan juda katta miqdordagi suv massasining bostirib kelishi bilan bog'liq favqulodda vaziyatlaridir.

Respublikamizda muayyan sharoitda favqulodda vaziyatlar sodir etilishi mumkin bo'lgan gidrodinamik xavfli obyektlar juda ko'p bo'lib, ular aholi va hudud uchun xavf-xatar manbaiyi hisoblanadi.

Gidrodinamik xavfli obyektlar – bu suv oqimi bo'ylab o'zidan oldingi va o'zidan keyingi suv sathlarini muayyan farqini tutib turadigan inshootdir.

Yer yuzasidagi geologik jarayonlar asosan Yerning ichki kuchlari va tashqi tabiiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Bundan tashqari shu kabi hodisalar insonning xo'jalik va qurilish faoliyati ta'sirida ham vujudga kelishi mumkin.

Gidrotexnik inshootlardagi avariyaalarda uning ko'lami va xarakteriga qarab quyidagi holatlar yuzaga kelishi mumkin:

– to'g'on buzilgandagi toshqin – suvning bir qismi to'g'ondan o'tib ketadi.

– suv bosishi – hududning asta sekin suv ostida qolishi.

– gidrotexnik xavfli inshootdagi favqulodda vaziyatlarning shikastlovchi omillari – to'g'onni urib ketgan suv to'liqining balandlig, tezligi 3–100 km/soatgacha;

– to'liqning yetib kelish vaqti va suv bosish chegaralari.

Suv bosish hududida gidrotexnik inshootiga tutash hududlarning suv tagida qolishi mumkin bo'lgan qismi. Bu holatda katta hududlarni suv bosadi. Suv bosgan hududda qutqaruv ishlari – bu

suv bosgan hududda fuqaro muhofazasining barcha boshqaruv maskanlarida yuqori tayyorgarlik holatiga o'tkaziladi, navbatchilik o'rnatiladi. Aholi va zaruriy boshqa tashkilotlarga avariya haqida xabar yuboriladi. Razvedka va nazorat ishlari o'tkaziladi, odamlarni qidirish, ularni suzuvchi vositalarga chiqarish va xavfsiz joyga olib borish, uy-joy bilan ta'minlash, shikastlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish kabi ishlardan iborat. Toshqin bosilgach zararlangan aloqa va elektr tarmoqlari tiklanadi, suv yuvib ketgan yo'llar remont qilinadi va buzilgan ko'priklar tuzatiladi.

Suv bosish xavfi bor hududlarda profilaktik choralarning olib borilishi favqulodda vaziyatlar zararini talofatini kamaytirishga xizmat qiladi.

Suv bosish xavfi ehtimoli bo'lgan joylarda oldindan evakuatsiya qilish yo'llari aniqlanadi. Suv bosgan paytda kecha – kunduz navbatchilik qilinadi, suvning vositalari tayyor holga keltiriladi. Suv toshqini xavfi bo'lganda aholini himoya qilish uchun fuqaro muhofazasi kuch va vositalari jalb qilinadi. Avariya-qutqaruv ishlarini olib borish tartibi iqtisodiyot obyektlarining favqulodda vaziyatlar rejasida ko'rsatilganidek amalga oshiriladi.

#### **4. 3. Radioaktiv moddalarni ishlab chiqarish va saqlash obyektlaridagi sodir bo'lgan avariyalarni bartaraf qilishda qutqaruvchilarning harakatlari**

Radiatsiya xavfi bor hududlarda avariya-qutqaruv ishlari bo'yicha olib boriladigan ishlar quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilganligiga bog'liq bo'ladi:

- radioaktiv moddalarning hidi atrofga tarqalmasligini;
- radioaktiv moddalar nafas olish yo'llari, hazm qilish organlari va teri orqali kishilar tanasiga ta'sir etishini;
- radiatsiyadan zararlanish darajasi tegishli binolarda 5–10 mar-  
ta, temirbeton uylarda undan ko'p, yerto'lalarda 300– 400 marota-  
ba kamayishini;

– gazniqob, changniqob, gaz va changdan muhofaza qilish raspi-  
ratorlaridan foydalanish qoidalarini;

– paxtali doka niqobini tayyorlash va ishlatishni;

– zararlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish usullarini;

– tibbiy yordam ko‘rsatish qutichasini tayyorlab quyish va unda  
yodli preparat bo‘lishini ta‘minlashi;

– elektroenergiya, gaz va suv tarmoqarini tezda o‘chirish kerak-  
ligini bilishi;

– oila a‘zolarining muhofazalanishi uchun eng yaqin atrofda  
joylashgan panajoy, panagoh va yerto‘larni qayerdaligini bilishi;

– xonadonga tashqaridan havo kirishini to‘xtatish choralari  
ni ko‘rishi;

– deraza, eshik va tirqishlarni berkitish uchun materiallarni  
oldindan tayyorlab qo‘yishi;

– mustaqil ravishda radioaktiv muhitni va oziq-ovqat mahsulot-  
larining zararlanganlik darajasini aniqlash uchun maishiy dozimetr  
bo‘lishini ta‘minlashi;

– radiatsiyadan zararlanishning oqibatlarini kamaytirish maqsa-  
dida uyda va ish joylarida ushbu favqulodda vaziyatdan imkoniy-  
yat darajasida suhbatlar o‘tkazish, unda favqulodda vaziyat sodir  
bo‘lganda bajarilishi kerak bo‘lgan xatti-harakatlar haqida ko‘nik-  
malar berishi;

– ekstremal holatlarda tezkor evakuatsiyaga tayyorgarlik ko‘rib  
quyishi kerak.

Radiatsiya xavfi haqida ma‘lumot eshitgandan keyin bajarilishi  
kerak bo‘lgan chora-tadbirlar:

– oila a‘zolari uchun yakka muhofazalanish vositalarini tayyor-  
lash va zaruriyat bo‘lganda uni darhol taqib olish; yakka muhofaza  
vositalari bo‘lmasa, paxtali doka niqobini tayyorlashi va zaruriyati  
bo‘lganda uni taqib olish;

– tibbiy yordam ko‘rsatish qutichasidan yodli preparatni ichish;

– xonadonni tashqaridan havo kirmaydigan qilib berkitish;

– oziq-ovqat mahsulotlari va suvni radioaktiv changlardan  
muhofaza qilish chora-tadbirlarini ko‘rish;

– olingan ma'lumotlar va ko'rsatmalar asosida tezkorlik bilan evakuatsiyaga tayyorgarlik ko'rish va yashayotgan xonadan chiqib, oldindan rejalashtirilgan eng yaqin joylashgan panajoy, panagoh va yerto'lalarga yashirinish;

– panajoy, panagoh va yerto'lalardan foydalanish imkoniyati bo'lmasa, xonada yoki ish joyida deraza, eshik hamda ularning tirqishlarini yaxshilab berkitishi va qalin mato bilan yopish.

Radiatsiya bilan zararlangan hududlarda bajarilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar:

– hududda «Xavfli radiatsiya!!!» yozuvi bor maxsus ko'rsatkichlarga e'tibor berish;

– tanani to'la-to'kis yopib turadigan kiyim kiyib olish;

– xonaga kirish oldidan kiyimni yaxshilab qoqish, oyoq-kiyimni yuvish hamda kiyimni almashtirish va ishlatilgan kiyimni tashqarida qoldirish;

– o'choq va pechka murilarini radioaktiv manbaga aylanmasligi uchun zararlangan o'tin bilan ularni yoqmaslik;

– hududlardagi daraxtlar mevasi va yerda yetishtirilgan poliz mahsulotlarini iste'mol qilmaslik;

– ariq, ko'l va to'planib qolgan suv manbalaridan foydalanmaslik;

– chekish radiatsiyadan zararlanish darajasini oshirishni bilish;

– tekshirilmagan suv manbalaridan foydalanish mumkin emasligini bilish;

– ovqatlanishdan oldin, albatta, qo'lni sovun bilan yuvish va og'izni chayish;

– ishlatiladigan sabzavot va mevalarni yaxshilab yuvish.

Radiatsiyadan zararlanish xavfi tugaganidan keyin ko'riladigan chora-tadbirlar:

– ehtiyot chora-tadbirlariga qat'iy rioya qilish;

– ochiq joylarda va inshootlarda ovqatlanmaslik;

– gaz quvurlari nosoz bo'lishi mumkin bo'lgan joylarda alohida ehtiyotkorlikka rioya qilish;

– tananing ochiq joylarini yaxshilab tozalash, toza suv bilan og'iz, burun, tomoq va ko'zlarni yuvib tashlash;

– soʻngra badanni, kiyimni va muhofaza vositalarini maishiy dozimetr nazorat asbobi yordamida tekshirish.

Radioaktiv zaralanish hududlarida qutqaruv va shoshilinch avariya-tiklash ishlari. Radioaktiv zaralanish hududlaridagi qutqaruv ishlari. Qishloq xoʻjalik obyekti fuqaro muhofazasi shtabining boshligʻi razvedka, tuman fuqaro muhofazasi shtabi va qoʻshnilarining bergan maʼlumotidan foydalanib, hosil boʻlgan radiatsion sharoitni baholashda: zaralanish hududida qolgan obyektни aniqlash; odamlar va hayvonlarning oʻlishi ehtimoli boʻlgan nurlanish dozasi, radiatsion zararlangan hududda boʻlish hamda qutqaruv ishlarini boshlash vaqti, aholini himoya qilish rejimi va chorva mollarni saqlash sharoitini bilishi zarur.

Razvedka maʼlumoti sinchiklab oʻrganib chiqilgach, obyekt hududida hosil boʻlgan radiatsion sharoit baholanadi va zaralanish oqibatlarini tugatish uchun boʻlinmalar oldiga oʻziga xos vazifalar qoʻyiladi. Qutqaruv ishlariga obyekt fuqaro muhofazasi boshligʻi rahbarlik qiladi.

Radioaktiv zaralanish hududida avariya-qutqaruv ishlari. Avariya-qutqaruv ishlariga obyekt favqulodda vaziyatlar boshligʻi boshqarish maskanidan rahbarlik qiladi. Maskanda obyekt fuqaro muhofazasi shtabi, xizmat boshliqlari va obyekt fuqaro muhofazasi boshligʻining koʻrsatmasi boʻyicha ayrim shaxslar ish yuritadilar. Radioaktiv zararlangan joylarda avariya-qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni olib borilishi uchun eng murakkab sharoitlar boʻladi. Odamlar, hayvonlar, moddiy boyliklar bor joyda birinchi navbatda yongʻindan tarqalishiga yoʻl qoʻymaslikka harakat qilinadi. Agar aholii yashaydigan maskanlarda, himoya inshootlarining kirish yoʻllari oldida, fuqaro muhofazasi boʻlinmalari ish olib boryotgan joylarda, shikastlangan kishilarni evakuatsiya qilish yoʻllarida, fermalar va omborxonalarda yongʻin yuz bersa, darhol uchiriladi. Yongʻinlarni oʻchirish va aloqa maskanlarida yashaydigan odamlarni qutqarish uchun yongʻinga qarshi komandalar, umumiy tuzilmalar, sanitar postlar va sanitar boʻlimlarni jalb etish



kerak. Himoya inshootlariga olib boradigan yo‘llar va o‘tish joylari ko‘milgan bo‘lsa tozalanadi.

Uyunning balandligi 0,5 m gacha bo‘lsa, ular buldozer yordamida tozalanadi, balandligi 0,5 m dan ko‘p bo‘lsa uyum ustidan yo‘l yotqiziladi. Yo‘lning eni bir tomonlama harakat uchun 3–3,5 m kam bo‘lmasligi kerak. Qarama-qarshi mashinalar uchun ham 150–200 m dan keyin maxsus maydonchalar tashkil qilinadi. Ikki tomonlama harakat uchun yo‘llarni eni 7–8 m qilinadi. Yashirinish joyini topish, bosilib qolgan joylar ostidan odamlarni qutqarib olish tartibini razvedka bo‘linmalari aniqlaydi. Yashiringan odamlar bilan saqlanib qolgan aloqa vositalari yoki vodoprovod, gaz trubalari, eshik, devor orqali shartli ravishda taqillatib xabar berish mumkin. Pana joyga havo berilishini– havo surg‘ichlar orqali yoki devordan teshik ochiladi va kompressor yordamida uzatiladi. Himoya inshootini ochish uchun yo‘l qilinadi.

Radioaktiv moddalarni ishlab chiqarish va saqlash obyektlaridagi sodir bo‘lgan avariyalarni bartaraf qilishda qutqaruvchilarning harakatlari. Zararlanganlik darajasini o‘lchash DP–5, KRB–1 asboblari yordamida amalga oshiriladi. Nazorat posti orqali shaxsiy tarkib va texnikani olib o‘tish vaqtida, vaqti-vaqti bilan dozimetriyaning ish o‘rni, zararlanganligi tekshirib turiladi. Zarurat bo‘lganda dizaktivatsiya qilinadi yoki joyi o‘zgartiriladi. Radioaktiv xavfli obyektida avariya yuzaga kelgan vaqtda falokatning xarakteristikasini va qutqaruv ishlari texnologiyasini aniqlovchi maxsus belgilari bo‘ladi. Radioaktiv zararlanish sharoitida qutqaruv ishlari o‘z ichiga quydagilarni oladi:

- zararlangan hududni razvetka qilish va jabrlanuvchilarni qidirish;
- zararlangan hududni va nurlanish obektini chegaralash;
- jabrlanganlarni topish tezkor tibbiy yordam ko‘rsatish va ularni zararlangan hududlardan evakuatsiya qilish;
- favqulodda holat oqibatlarini tugatish;

Radioaktiv moddalar bilan zararlangan hududlarda xavfsizlik choralari.

Radioaktiv zararlangan hududlarda ish olib orilganda radioaktiv xavfsizlik chora-tadbirlarini amalga oshiradi. Radioaktiv xavfsizlik choralar o'z ichiga quyidagilarni oladi:

– radioaktiv faktorlarni qat'iy chegaralash, sanitariya-nazorat tartibi joriy qilish, sanitary ishlov berish maskanlarini tashkil qilish, texnikani muntazam dezaktivatsiyalash, kerak bo'lganda sned kiyimlar, maxsus poyabzal va boshqa himoya vositalarini yo'qotish, shu bilan, qo'llash zaruratining asosiy omili inson organizmiga radioaktiv moddalarning tushushi va teri qatlamining radioaktiv zararlanishi hisoblanadi. Shu tufayli falokat vaqtida shaxsiy himoyani tashkil qilishning asosiy maqsadi;

– inson organizmiga radionuqtalar tushushi, shuningdek, teri qoplaminin radioaktiv zararlanishini me'yoriy hujjatlarda belgilangan darajalargagina tushirish yoki butunlay yo'qotish;

– zararlangan kiyim, poyabzal va boshqalar orqali halokat hududidan radiatsiyaning tarqalishining oldini olish.

Shaxsiy himoya vositalari yordamida insonni tashqi gamma nurlanishidan himoya etolmaydi. Bu vazifa faqat injenerlik qurulma va moslamalar (yashirinish joylari, himoya kiranlari) ishlarini masofadan bajarish mexanizmlari, shuningdek, kishilarning gamma nurlanish darajasi baland bo'lgan joyda bo'lish vaqtini qat'iy kamaytirish hisobiga hal etiladi.

Shaxsiy himoya vositalarini qo'llash boshqa radiatsiyaga qarshi vositalar shu jumladan yodli proflikta va boshqa farqli preparatlar bilan kompleks reaksiya qo'llanishda kerak.

Shaxsiy himoya vositalariga quyidagilar kiradi:

– asosiy maxsus kiyimni (kombinezon, kostyum, xalat, qopchicha, paypoq) va qo'shimcha (fartuk, taglik, rezinalangan matodan);

– nafas yo'nalishining shaxsiy himoya vositalari (resperatorlar, filtrlovchi protivogaz, pnevmomaskalar, pnevmokurtka).

Izolatsiyalovchi kurtkalar, maxsus poyabzal, qo'lni himoyalovchi vositalar, (rezinka, pienka, ipgazlama qo'lqoplar va yengillik), ko'zni himoyalovchi vositalar. Radioaktiv holatda olib boriladigan ishlar, shu ishlarga tegishli bo'lgan me'yoriy hujjatlar asosida aniqlanadi.

#### 4. 4. Epizootiya va epifitotiyalar paytida Avariya-qutqaruv kuchlari va mablag'larni tashkil qilish

Ayrim hollarda mamlakat hududida odamlar, hayvonlar, o'simliklar orasida turli yuqumli kasalliklar tarqalishi ehtimoli mavjud.

Bunday vaziyatlarda zararlangan hududlarda fuqaro muhofazasi bo'yicha tuzilgan reja asosida harakat dasturlari ishlab chiqiladi. Ushbu dasturlarda yuz bergan vaziyatga bog'liq ravishda avariya-qutqaruv kuchlari, vositalari jihozlari va boshqa zaruriy asbob-anjomlar tarkibi ko'rsatildi. Dasturda, shuningdek, amalga oshiriladigan barcha tadbirlar ketma-ketligi vaqti bilan ko'rsatiladi.

Hududlardagi epizootiya, epifitotiya holatlarida aniq sharoitga qarab, kasallik taralishi hududini chegarasini kamaytirish profilaktika choralarini amalga oshirish, kasallikni bartaraf qilish kabi chora-tadbirlarga ketadigan sarf-xarajatlar, tegishli tashkilotlar tomonidan ajratiladi.

Ayniqsa, epizootiya, epifitotiya holatlari yuzaga kelsa ularga bog'liq holda odamlar orasida yuqumli kasalliklar tarqalishi ehtimoli yuqori bo'ladi.

Bunday vaziyatlarning oldini olish kasalliklar tarqalishini kamaytirishda epizotik, epifitotik holatlarini yuzaga kelishi tarqalishi va boshqa salbiy oqibatlar sabablari, profilaktik tadbirlarni o'tqazishda hayvonlar, o'simliklar yuqumli kasalliklarni bilib olish muhim ahamiyatga ega.

*Epizootiya* – ayrim bir hududda bir yoki ko'p turdagi qishloq xo'jalik hayvonlari o'rtasida kasallikning, odatda, ushbu hududda qayd qilinadigan darajasidan anchagina katta bo'lgan darajada vaqt va fazoda bir vaqtda rivojlanadigan xavfli kasallikning tarqalishi.

*Panzootiya* – qishloq xo'jaligi hayvonlari yuqumli kasalligining katta hududda butun bir mintaqa, bir necha mamlakat va materiklarni qamrab olgan holda bir vaqtda ommaviy tarqalishi.

*Enzootiya* – tabiiy va xo'jalik iqtisodiy sharoitlari kasallikning hamma yoqqa tarqalishiga yo'l qo'ymaydigan aniq bir joy, xo'jalik yoki aholi yashash joylarida qishloq xo'jalik hayvonlari o'rtasida bir vaqtda tarqalishi.

Hayvonlarning barcha yuqumli kasalliklari 5 guruhga bo‘linadi:

1-guruh – alimantar infeksiyalar. Tuproq, yem, suv orqali o‘tadi. Ovqat hazm qilish tizimi zararlanadi. Bunday infeksiyalarga kuydirgi, oqsil, manka, brutselloz kiradi.

2-guruh – respirator dafeksiyalar. Nafas olish yo‘llari shilliq pardalari va ugosaning zararlanishi. Infeksiya asosan havo-tomchi yo‘li bilan yuqadi. Ushbu kasalliklarga paragripp, ekzotik zotiljam, qo‘y va echki chechagi, go‘shxo‘r hayvonlar vabosi kiradi.

3-guruh – transmissii infeksiyalar. Qon so‘ruvchi bug‘maoyoqlilar yordamida yuqadi. Qo‘zg‘atuvchilari doimo yoki alohida davrlarda qonda bo‘ladi. Bu kasallikgarga ensefalomielit, tulyaremiya, otlarning yuqumli anemiyasi taalluqlidir.

4-guruh – qo‘zg‘atuvchilari teri orqali vositachilar ishtirokisiz yuqadigan infeksiyalar, krodyul, quturish, sigir chechagi ushbu kasalliklar sirasiga kiradi.

5-guruh – aniqlanmagan yo‘l bilan zararlaydigan infeksiyalar.

O‘ta xavfli kasalliklar epizootiyasining shakllanish manbalari sel oqimlari, suv toshqinlari, davlat veterinariya xizmati bilan kelishmay turib, yer ishlarini olib borish, chetdan olib kiriladigan hayvonlar, oziq-ovqat mahsulotlari, yem va boshqa vositalar, chetdan uchib keluvchi yovvoyi parrandalar turadigan joylar, o‘ta xavfli kasalliklar o‘choqlari mavjud joylarda kemiruvchilar va hasharotlar sonining ortishi va biologik terrorizm bo‘lishi mumkin.

Hayvonlarning xavfli yuqumli kasalliklariga misollar:

*Yuqumli gepatit* – it va boshqa go‘shxo‘r (tulki, bo‘ri)larning virusli kasalligi. Bezgak, shilliq pardalarning shamollashi va jigarning zararlanishi bilan tavsiflanadi.

*Qora oqsoq (brutselloz)* – uy va ayrim yovvoyi hayvonlarning yuqumli kasalligi. Odam uchun xavfli. It va mushuklar brutsellozning ixtiyoriy turidan zararlanishi mumkin. Hayvonlar kasal sigir, qo‘y, cho‘chqalarning go‘shni va sutini iste‘mol qilganda yuz beradi.

*Qoqshol* – hayvonlarning ko‘plab turlari va odamda uchraydigan yarali – bakteriyali kasallik. Mushaklarning spazmatik qisqarishi bilan namoyon bo‘ladi.

*Manka kasalligi* – ushbu zoonoz kasallikni manka tayoqchasi qo‘zg‘atadi. Mankaning surunkali xillari bor. U eshak, tuya, zebra va yirtqich hayvonlarda uchraydi.

*Quturish* – hayvonlarning ko‘plab turlari, ayniqsa it, tulki va boshqalarning o‘tkir virusli kasalligi. Markaziy nerv tizimini og‘ir zararlanishi bilan tavsiflanadi va inson uchun juda xavfli hisoblanadi. Hayvon tishlab olganda, shuningdek, hayvon sulagining boshqa hayvonlar va odam organizmiga tushishidan yuqadi. Odamlarda quturish kasalligi itlarning tishlashi natijasida kelib chiqishini birinchi marta Aristotel aniqlagan.

Bundan tashqari, hayvonlar sil, salmonelloz, kolibakterioz, kalmaraz, (parsha) va boshka kasalliklar bilan og‘riydi. Hayvonlarda bit, burga kabi parazit hasharotlar ham uchraydi.

*O‘simliklar kasalligi* – fitopatogyeon yoki muhitning noxush sharoitlari ta‘sirida o‘simliklar hosildorligining pasayishiga yoki nbbud bo‘lishiga olib keluvchi xujayralar, usymlik organlari va butun o‘simlikdagi me‘yordati k moddalar almashinuvining buzilishi.

*Zararkunanda* – qishloq xo‘jaligi o‘simliklariga va ularning hosiliga zarar yetkazadigan jonivorlar va hasharotlar.

*Fitopatogyeon* – o‘simlik kasalligi qo‘zg‘atuvchisi. Moddalar almashinuviga halokatli ta‘sir qiluvchi biologik faol modda ajratib, ildiz tizimini zararlaydi, to‘yimli moddalar kirishiga xalaqit beradi. O‘simliklarning, fitopatogenga ta‘sirchanligi navlarning barqarorligi, zararlanish vaqti va ob-havoga bog‘liq. O‘simliklar kasalliklari va zararkunandalarning tarqalishi epifitotiya, enfitotiya va panfitotiya tarzida yuz beradi.

*Epifitotiya* – qishloq xo‘jaligi ekindarining ommaviy nobud bo‘lishi va hosildorlikning pasayishi bilan kechuvchi vaqt va fazoda rivojlanuvchi, ommaviy kasallik bo‘lib, o‘simlik zararkunandalari sonining keskin ko‘payishi.

*Enfitotiya* – tabiiy va xo‘jalik-iqtisodiy sharoitlari ushbu kasallikning har tomonga tarqalishiga yo‘l qo‘ymaydigan, aniq joy, aholi yashash joyida qishloq xo‘jaligi o‘simliklari o‘rtasida yuqumli kasallikning bir vaqtda tarqalishi.

*Panfitotiya* – bir necha mamlakat yosh qit'a hududida o'simliklarning ommaviy kasallanishi va qishloq xo'jaligi o'simliklari zararkunandalarining keskin ko'payishi.

Meva bog'larida olma qurti, shira, qalqandorlar uchraydi. Olma qurti urug'i mevali daraxtlarga jiddiy zarar yetkazadi. Unga qarshi kurashish uchun kuzda va erta bahorda daraxtlarning qurigan po'stloqlari, shoxlari qirqilib, shakl beriladi. Qator oralariga ishlov berilib, begona o'tlar va o'simlik qoldiqlaridan tozalanadi.

Bahor oylarida bog'larda kalmaraz (parsha), un-shudring kabi kasalliklar rivojlanib, zarar keltirishi uchun qulay sharoit yuzaga keladi. Danakli meva bog'larida esa klyasteriosporioz (teshikli dog'lanish) va barg buralishi kasalliklari hosilga jiddiy zarar yetkazadi.

Polizchilikda qovun pashshasi Xorazm va Qoraqalpog'istonda uchraydi. U, asosan, Afg'oniston, Pokiston, Eron, Hindiston va Kavkazda ko'proq uchrab, qovun, tarvuz, bodring va oshqovoqni zararlaydi.

Hayvonlar va o'simliklarning ommaviy kasallanish xillari boshqa favqulodda vaziyatlardan ko'p jihati bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda respublikamizda ushbu favqulodda vaziyatlarning yuz berish ehtimolligi oshib borayotganligi, ulardan muhofazalanishda zamonaviy usul, vositalardan foydalanish muhofaza tadbirlarining samadorligini oshiradi.

#### ***Nazorat savollari:***

- 1. Aloqa va xabar berish ahmiyati qanday?*
- 2. Boshqaruv maskanlari, ularning vazifasi nimalardan iborat?*
- 3. Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik shakllari?*
- 4. Ko'chma boshqaruv maskanlari nima maqsadda tuziladi?*
- 5. FVDning axborot-boshqaruv quyi tizimi qanday vazifalarni o'z ichiga oladi?*
- 6. Xabar berish turlarini ayting?*
- 7. Aloqa va xabar berish tizimiga qo'yiladigan talablarni ayting?*
- 8. Topografik karta nima va qanday maqsadlarda ishlatiladi?*

*V BOB*  
**MA'NAViy-RUHIY TAYYORGARLIK**  
**USULLARI VA SHAKLLARI**

Fuqaro muhofazasi sohasida olib boriladigan tadbirlarda ishtirok etuvchilar jismonan baquvvat, ma'naviy barkamol, ruhan tetik bo'lishlari zarur. Ana shundagina fuqaro muhofazasi ishlari aniq, puxta bajariladi, samarali bo'ladi. Buning uchun fuqaro muhofazasi bilan bog'liq faoliyatining barcha tomonlari, jumladan FVDG tizimlarining shaxsiy tarkibi va aholining favqulodda vaziyatlarida harakat qilishga tayyorligi takomillashgan taqdirdagina samarali bo'ladi. Ushbu tayyorgarlikning muhim yo'nalishlaridan biri ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik hisoblanadi.

Favqulodda vaziyatlarda aholini harakat qilishga ma'naviy tayyorlash.

Harakat ishtirokchilarini fuqaro muhofazasiga oid vazifalarni bajarish mamlakat, xalq oldidagi burch ekanligiga ishonchni tarbiyalash, o'z vazifalarini vijdonan bajarishga, murakkab vaziyatlardagi qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'zini tayyorlash zarurligini tushunish, ruhiy qiyinchiliklarga chidash ruhida tarbiyalashdir.

Ruhiy tayyorgarlik – odamlarda ruhan chidamlilikni shakllantirish yoki qo'yilgan vazifalarni bajarish, xavfli vaziyatlarda fidokorona harakat qilish qobiliyatini ko'chaytirishdagi xislatlarini hosil qilish demakdir.

Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik bir-biri bilan uzviy bog'langan bo'lib, bu odamlarda yuqori ma'naviy-ruhiy sifatlarni shakllantirishning yagona jarayonidir.


Shaxsiy tarkibning tayyorgarligi tarbiya va o'qitish jarayonida, uning barcha shakl va usullarini qo'llagan holda amalga oshiriladi. Uning muhim vazifalaridan biri shaxsiy tarkibga va tuzilmalar sardorlariga ruhiy chiniqish, irodasini mustahkamlashga bo'lgan inti-

lishni singdirishdan iborat. Shaxsiy tarkib bundan chiqish fuqaro muhofazasi bo'yicha vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda ko'makdosh bo'lishini tushunib yetishi zarur.

Ruhiiy tayyorgarlik, ayniqsa xavfli vaziyatlarda harakat qilish uchun insonning ruhiyatini bevosita chiniqtirish fuqaro muhofazasi vazifalarini amalda bajarish chog'ida, o'qitish jarayonida, asosan ikki shaklda olib boriladi:

1. Maxsus jihozlangan o'quv shaharchalarida, ruhiy chiniqtirish maydonchalarida mashg'ulotlar olib borish.

2. Barcha mashg'ulotlarda, ayniqsa, fuqaro muhofazasi o'quv mashqlarda sharoitga maksimal yaqinlashtirilgan sharoit yaratish (26-rasm).



26-rasm. Insonning xavflarga bo'lgan munosabati.


Buning uchun fuqaro muhofazasining zamonaviy o'quv moddiy-texnik bazasini yaratish, uni doimo foydalanishga tayyor holda



saqlash, o'tkazilayotgan o'quv mashg'ulotlari va mashqlarida samarali qo'llash lozim.

Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikni amalga oshirishdagi shakl va usullarini mahalliy sharoitni hisobga olgan holda, takomillashtirib borish kerak. Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlikda, ketma-ketlik tamoyili juda muhim o'rin tutadi: oddiydan murakkabga, biroz murakkabdan – ko'proq murakkabga.

Xavf-xatar, halokat, inqiroz so'zlari bizni har qadamda ta'qib etadi. Gazeta-jurnallar sahifalari, televizor ekrani orqali yangi va dahshatli voqealar, hodisalar, jinoyat va favqulodda vaziyatlar haqidagi axborotlar berib boriladi. Har bir inson bunday sharoitda o'zini yordamga muhtoj, himoyasiz his qila boshlaydi. Xavf-xatar har qadamda: uyda, magazinda, teatrda va boshqa hayot sharoitlarida yuz beradigandek tuyuladi. Inson o'zini to'la muhofazalangan holda his qiladigan biror joy yo'qqa o'xshaydi. Bunda insonning uyqusi va ishtahasi yo'qoladi, oshqozon yarasi paydo bo'ladi, qon bosimi ko'tariladi, tinchligi buziladi. Bunday holatda har bir inson salbiy voqealar, hodisalarga harakat qilishga o'zini oldindan tayyorlashi, o'zini va atrofdagilarni xavf-xatardan asrab qolishga yordam beradi (27-rasm).



27-rasm. Insonning FVdagi holatlari.

Buning uchun qo'rqish va xavfli hodisani kutishga chek qo'yish, xavf-xatar bilan uchrashuvga tayyorgarlikni boshlash

lozim. Bu xavfsizlik psixologiyasiga qo'yilgan birinchi qadam bo'ladi. Ikkinchi qadam – xavf-xatar bilan uchrashuvga tayyorlanishni o'rganish. Barcha xavf-xatarga tayyorlanish mumkin emas, mantiqan ham to'g'ri kelmaydi. Potensial xavfni ko'ra bilish, uni chetlab o'tishni o'rganish va haqiqatan ham ushbu xavf-xatarga to'qnash kelib qolinsa, nima qilish kerakligini bilish muhimdir. Misollarda turli vaziyatlardagi xavf-xatardan qutilish choralari keltirilgan.

Zilziladan so'ng:

– avvalo vayrona uyumlari ostida qolgan, qulab tushishi ehtimoli mavjud bo'lgan hamda yonayotgan binolar va inshootlarda odamlarni qutqarish ishlari vayrona ostida qolib ketgan odamlar chiqarayotgan tovushlarni ushlay oladigan maxsus elektron – geofon uskunalari yordamida amalga oshiriladi;

– ikki millionga yaqin hidni ajrata oladigan maxsus o'rgatilgan itlardan foidalaniladi. Shu sababli ular qor, yer qatlamlari, vayronalar ostida qolib ketgan insonlarni qidirish uchun mo'ljallangan eng zamonaviy asbob-uskunalardan ham samarasi yuqori bo'lishi kuzatilgan.

Suv toshqinida odamlarni qutqarish, suv bosgan hududlarda qolib ketgan odamlarni qidirish, ularni suzish vositalari yoki vertolyotlarga joylashtirish va xavfsiz joyga evakuatsiya qilishdan iborat bo'ladi. Sel oqimlari yoki ko'chki hodisasi xavfi tug'ilganida va vaqt yetarli bo'lganida aholi xavfli hududlardan xavfsiz joylarga evakuatsiya qilinadi. Odamlar bilan birgalikda moddiy boyliklar, qishloq xo'jaligi hayvonlari ham ko'chiriladi.

Ishlab chiqarish halokatlari va yirik avariylari yuz berganida zudlik bilan xabar berish, ishchi-xizmatchilar, avvalo xavf-xatar tahdid qilayotgan yaqin atrofda yashovchi aholi muhofazasini tashkil etish zarur. Birinchi navbatda, odamlarni qutqarish bo'yicha ishlarni olib borish, ularga birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish va shifoxonalarga olib borish kerak. Obyektning zararlangan hududla-

rini o'rganib chiqib, yong'inlarni cheklash va o'chirish, shikastlovchi omillarning oldini olish va cheklash lozim.

Yuqoridagi holatlar turli harakatli model, slayd, multimediya bilan ko'rsatilib to'g'ri harakatlar namoyish etilsa, favqulodda vaziyatlarda harakat qiluvchilarning ma'naviy, ruhiy tayyorgarlik darajasi ma'lumki, yuqori bo'lishiga asos yaratadi.

*Nazorat savollari:*

- 1. O'ta zaharli kimyoviy moddalarni ishlab chiqarishda va saqlashda sodir bo'ladigan avariyalarni bartaraf qilishda qutqaruvchilarning harakati nimalardan iborat?*
- 2. Avariya yoritgichlarining vazifasi nimalardan iborat?*
- 3. Kimyoviy xavfga ko'ra majburiy-hududiy birliklar necha xavflilik darajasiga bo'linadi?*
- 4. Xavfli yuk tashishda sodir bo'ladigan favqulodda vaziyatlarda AQI tashkil etish tartibi qanday?*
- 5. Halokat yuz bergan joyni ko'zdan kechirish nima maqsadda o'tkaziladi?*
- 6. Kimyoviy holatda ish olib borishda xavf-xatarlar nimalardan iborat?*
- 7. Havoning turg'unlik holati necha guruhga bo'linadi?*
- 8. Gidrotexnika inshootlarida nima sababdan avariya kelib chiqadi?*
- 9. Radioaktiv moddalarni ishlab chiqarish va saqlash obyektlaridagi sodir bo'lgan avariyalarni bartaraf qilishda qutqaruvchilarning harakatlari nimalardan iborat?*
- 10. Radiatsiya avariylarining sabablarini ayting?*

*VI BOB*  
**AVARIYA-QUTQARUV ISHLARI**  
**VA BIRINCHI TIBBIY YORDAM**

Tabiiy ofat, avariya va halokatlarning oqibatlarini tezroq bartaraf etish uchun, odatda, favqulodda vaziyatlar ta'siriga qarab katta kuch va vositalar talab etiladi. Favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etishda tuzilmalar, turli maqsadlarda tuzilgan shtatdagi bo'linmalar, zaruriyat tug'lsa obyektning ishchi-xizmatchilari, shuningdek, yaqin atrofda yashovchi aholi ishtirok etadi. Qutqaruv ishlariga jalb etalganlarning barchasi o'z faoliyati davomida xavfsizlik qoidalari bilan tanish bo'lishlari va ushbu qoidalarga qat'iy amal qilishlari ila zarurligi haqida ogohlantiriladilar.

Avariya-qutqaruv ishlarini o'tkazish to'g'risida tezda qaror qabul qilish bilan birga vazifalarni ijrochilarga o'z vaqtida tezkor yetkazilishining ham, ular bajarilishini aniq tashkil etishning ham ahamiyati katta.

Fuqaro muhofazasi vazifalarini organlariga, o'z tasarrufidagi tuzilmalar ushbu vazifalar komandirlariga, birlashtirilgan qismlar (bo'linmalar)ga fuqaro muhofazasi boshlig'ining shaxsan o'zi tomonidan yoki fuqaro muhofazasi organlari orqali buyruqlar yoki farmoyishlar shaklida beriladi. Fuqaro muhofazasi boshlig'i tasarrufidagi fuqaro muhofazasi kuchlarini boshqarish va ular tomonidan qo'yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi uchun to'la javobgardir. Fuqaro muhofazasi boshlig'ining qarorini to'la amalga oshirishga imkon yaratuvchi boshqaruv to'liq, samarali va moslashuvchan tizimga ega bo'lmasa, favqulodda vaziyatlar sharoitida murakkab vazifalarni bajarish mumkin emas.

**Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.** Favqulodda vaziyatlarda jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish eng zaruriy qutqaruv ishlarini tarkibiy bo'limidir.

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatishning asosiy yo'llari quyidagilar:

– jabrlanganning boshini yonboshiga burib, og'zini qum va loyqalardan tozalash. Oshqozon va nafas olish yo'llaridan suvni chiqarib tashlash. Ushbu ishlarni bajarish uchun 15 soniya vaqt ketishi zarur; jabrlanganning nafas olishini va pulsini aniqash. Pulsi yo'q bo'lsa, «og'izdan-og'izga» usuli bilan sun'iy nafas oldirish kerak bo'ladi;

– bo'yni ostiga to'p qilib o'ralgan kiyim qo'yiladi va jabrlanganning boshi maksimal darajada orqaga tushirilgan holda turishi talab etiladi. Qutqaruvchi chuqur nafas olib, bor energiyasi bilan jabrlanganning og'ziga nafas puflaydi. Nafas oldirish oralig'i bir daqiqada 12–15 marotaba.


– sun'iy nafas oldirish bilan birga yurak tashqaridan massaj qilinadi.

– jabrlanganning nafas olishi to'xtagandan keyin 6 minut ichida uni hayotga qaytarish mumkinligini esda tutish kerak.


Jarohat – organlar va to'qimalar (teri, shilliq, parda, ko'pincha muskul, nerv, yirik tomir, suyak, ichki organ va gavda bo'shliqlari) ning tashqi tasir natijasida anatomik butunligi yoki fiziologik funksiyalarining buzilishi, agar jarohatlar sanchilgan, kesilgan va majaqlangan bo'lsa, yiring bog'laydi. Yirtilgan, lat yegan, tishlangan va o'q tekkan jarohat katta jarohatga kiradi. Yirtilgan bunday jarohatlarda teri tagi bilan ko'chib ketishi, teri osti to'qimalari qattiq shikastlanishi mumkin.

Qon ketishi – qon tomirlari devori shikastlanishi yoki biror kasallik oqibatida yemirilishi, o'tkazuvchanligining oshishi sababli ulardan qon oqishi. Qon ketishini to'xtatish uchun turli vositalar qo'llaniladi. Vaqtinchalik va tamoman to'xtatish bir-biridan farq qiladi (28–29-rasmlar).

Arteriyani barmoq bilan bosish qon ketishini bir zumda to'xtatish imkoniyatini beradi. Bo'yinning yuqori va o'rta qismidagi, jag' osti va yuzdagi jarohlardan kuchli qon ketishida umumiy uyqu arteriyasini bosish qulay.



28-rasm. Arteriyadan qon ketishini burama solish bilan vaqtincha to'xtatish.



29-rasm. Arteriyadan qon ketishini vaqtincha to'xtatishda qo'l-oyoqni imkoni boricha bukish usuli.



Oyoqdagi jarohlardan kuchli qon ketganida son arteriyasi bosh barmaq yoki bint bilan bosiladi. Tashqi qon ketishini vaqtincha to'xtatish uchun bosuvchi bog'lamlar, asosan, maydaroq venalar va kapillarlar hamda kichikrok arteriyalardan qon ketishida filtrlash. Jarohat ustiga steril doka yopiladi, uning ustidan dumaloq qilib o'ralgan paxta yoki steril bint qo'yiladi, keyin bint bilan qattiq qilib o'raladi.

Suyak singanida singan suyakni o'rninga qo'yishga urinish, ya'ni suyak yopiq singanda o'zgargan oyoq yoki qo'l shaklini to'g'irlashga, ochiq singanda esa chiqib turgan suyakni o'rninga solib qo'yishga harakat qilish mutlaqo yaramaydi. Shikastlangan odamni iloji boricha tezroq davolash muassasasiyaga yetkazib borish zarur. Suyak qanday sinmasin, birinchi galda uni qimirlamaydigan qilib qo'yish kerak. Suyak singan joyga har qanaqa qattiq narsa (yog'och, metall, plastmassa)dan darrov taxtakach quyish lozim. Hassa, soyabon, tayoq, taxta, chizg'ich va boshqalar taxtakach bo'lishi mumkin. Taxtakach singan qo'l yoki oyoqqa bir necha joyidan, yaxshisi bint bilan, bint bo'lmasa kamar, gazlama, tizimcha va boshqalar bilan bog'lab qo'yiladi. Taxtakach qilishga hech narsa topilmasa, shikastlangan oyoqni son oyoqqa bog'lab qo'yish mumkin. Yelka suyagi singanda shikastlangan qo'lni uzatilgan holicha gavidagi bog'lab qo'ysa bo'ladi.


Suyak ochiq sinib, suyak singan joyda jarohat ham bo'lsa, uning atrofidagi teriga yod surtib, jarohatga toza paxta-doka bog'lamidan qo'yib bog'lash lozim (30–31–32–33-rasmlar).



30-rasm. Kalla suyagi singan odamning boshi ostiga yumshoq yostiqcha qo'yib transport vositasida tashish.




*31-rasm.* Umurtqa pog'onasi shkastlangan odamni transport vositasida tashish.



*32-rasm.* Yelka suyaklari singanda immobilizatsiya qilish.





33-rasm. Son suyagi singanda qo'llanadigan Diterexs shinasi.

Kuyganda birinchi yordam ko'rsatish uchun tezlikda tez yordamni chaqirish va kuygan joyga ho'llangan ochiq yoki boshqa bironta matoni bosish lozim, bu kompress ustiga suv quyib, uni doim sovuq tutib turing.

I darajali kuyishda birinchi tibbiy yordam ko'rsatganda kuygan joyni sovuq suv oqimi ostida 20–25 daqiqa davomida og'riq to'xtaguncha ushlab turish lozim. Kaliy permanganatning hushsiz eritmasi shimdirilgan doka, so'ngra steril bog'lam qo'yish zarur. Kuygan joyga spirt, atir, krem, yog' surtish yaramaydi.

II, III, IV darajali kuyishda kuygan joyga steril bog'lam kuyish va tezlikda vrachga murojaat qilish kerak.

Kislotadan kuyganda zararlangan joyni avval 20 daqiqa davomida sovuq suv oqimida tutib turish, keyin sovun eritmasi bilan yuvish kerak.

Ishqor bilan zararlanganda sovuq suv oqimida yuvib, toza mato bilan yopish kerak. So'ndirilmagan ohak bilan kuyganda zarar ko'rgan joyga yog', moy surish kerak.

Quyosh nurlaridan kuyganda organizmda yuz bergan o'zgarishlar o'tib ketgunicha bir necha kun davomida quyosh nurlaridan saqlanish lozim. Qisqa muddatli quyosh vannasi qabul qilsa bo'ladi. Birinchi yordam ko'rsatish uchun terini spirt, odekolon bilan artiladi.

*Birinchi yordam* – kimyoviy moddani kuchli suv oqimi bilan tez yuvib tashlashdan boshlanadi. Modda qoldiqlarini esa neytrallash kerak. Kislotalarni neytrallash uchun 2% li ichimlik soda-eritmasi qo‘llaniladi. Qattiq kuyishda bu sohaga bo‘r kukuni sepiladi. Ish-qorlarni 2% li sirka kislota yoki limon kislota eritmasi bilan neytrallanadi. Teriga yonib turgan fosfor bo‘lakchalari tushganda, gavdaning bu qismini suvga botirib turish va fosfor qoldig‘ini pinset bilan olib tashlash kerak. Shikastlangan sohaga 5% li mis kuprosi eritmasiga ho‘llangan bog‘lam qo‘yiladi yoki talk kukuni sepiladi. Fosforqa qarshi turli pastalar yaxshi naf beradi.

*Zaharlanish* – zaharli modda organizmga me‘da-ichak, nafas yo‘llari orqali kirganda, teridan surilganda, teri ostiga, muskul orasiga, venaga yuborilganda ro‘y beradigan kasallik holati.

Maishiy-kimyoviy vositalar bilan zaharlanish sodir bo‘lsa, darhol «Tez yordam»ni chaqirish lozim, tibbiyot xodimlari yetib kelgunga qadar birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish zarur. Buning uchun, avvalo zaharlanishga qanday vosita sabab bo‘lganligini aniqlash kerak. So‘ngra zaharni organizmdan chiqarib yuborish yoki uni kuchsizlantirish choralarini ko‘rish lozim.

Agar zahar organizmga teri yoki tashqi shilliq pardalar orqali kirgan bo‘lsa, uni ko‘p miqdordagi suyuqlik – fiziologik eritma, ichimlik sodasi yoki limon kislotasi qo‘shilgan eritma bilan yuviladi. Oshqozondagi zaharli modda, oshqozonni yuvish yoki qo‘shish orqali chiqarib tashlanali. Jabrlanuvchini qustirish uchun unga 0,25–0,5 foizli ichimlik sodasi– eritmasi yoki kaliy permanganat (margansovka) ning nim pushti rang yoki osh tuzining iliq eritmasi (1 stakan suvga 2–4 choy qoshiq)dan bir necha stakan ichiriladi. Jabrlanuvchi ko‘p miqdorda suyuqlik ichishi lozim.

Zaharli moddalar bilan birlashib, uni zararsizlantiruvchi moddalarga zahar kuchini kesuvchi moddalar deyiladi. Bunday xossaga faollashtirilgan ko‘mir, tanin kabilar ega.

Kislota bug‘idan zaharlanganda bemorni ochiq havoga olib chiqib, tomoqni suv yoki 2% li ichimlik sodasi eritmasi bilan chayish yordam beradi. Ichimlik sodasi qo‘shilgan iliq sut ichirish lozim.

Ko'zni yuvish kerak va zahar organizmga og'iz orqali kirganida ko'p miqdordagi suv bilan oshqozonni yuvish lozim. Tuxum oqsili, kraxmal, kisel, 100 g o'simlik yog'i yoki sut ichirish tavsiya etiladi.

O'tkir zaharlanishda avvalo zaharning organizmga to'plashini cheklash va organizmga tushgan zaharni chiqarib tashlash choralari ko'rish lozim. Nafas yo'llari zaharlanganda jabrlanuvchiga gazniqob kiydirish va zararlangan hududdan olib chiqish kerak. Gazniqobni yechgach, ko'zlarni suv bilan yuvish, halqumni chayish kerak. Zahar teriga tushganda terini sovunlab yuvish kerak. Zahar ko'zga tushganda 10–15 daqiqa davomida ko'zlarni yuvish lozim. Zahar ichga ketganida oshqozonni yuvish zarur.

Ishqorlar (kaustik soda, novshadil spirti, so'ndirilgan va so'ndirilmagan ohak va h.k.) dan xo'jalikda foydalanganda xavfsizlik qoidalariga rioya qilinmasa ulardan zaharlanish mumkin. Bunday holda og'iz, qizilo'ngach, oshqozon shilliq pardalari kuyishidan qattiq og'riq turadi. Chanqov ko'chayadi. Tomir tortishib qolishi mumkin.

Tezlik bilan oshqozonni yuvish, 0,5% li limon kislotasi eritmasi, apelsin yoki limon sharbati ichirish zarur.

Uxlatadagin va tinchlantiradigan dorilar ko'p dozada ichilganda kishida holsizlik, mudrash, bosh og'irlashishi kuzatiladi. Bemorning og'zi va burnida ho'l so'lak yig'iladi, avval tez-tez nafas oladi, keyin esa nafasi siyrak va yuza bo'lib keladi, tomir urishi sezilmaydi. Bemor uxlab qoladi, hushdan ketishi mumkin. Bunday zaharlanish hayot uchun juda xavflidir. Shu boisdan tezda vrach chaqirish, u yetib kelgunga qadar bemorni yotqizib, boshini ko'tarib qo'yish zarur. Yoqa va kamarini yechish, 1–2 l iliq suv ichirib, me'dasini yuvish, keyin og'ziga qoshiq solib qustirish lozim. So'ngra achchiq choy yoki qahva ichirib, 100 g qotgan non yediriladi. Bemorga aslo sut ichirmaslik kerak. Chunki, sut zaharlanishga sabab bo'lgan preparatning ichakka o'tishini tezlashtirib, uning organizmdan chiqib ketishiga yo'l qo'ymaydi. Hushidan ketgan bemorlarga sun'iy nafas oldiriladi.

Xlor bilan zaharlanganda birinchi yordam ko'rsatish uchun jabrlanuvchiga I gazniqob kiydirish va tezda gaz ta'siri ostida bo'lgan hududdan olib chiqib ketish zarur. Gazniqob bo'lmagan hollarda nafas olish organlarini nam ro'molcha bilan berkitib olish zarur. Nafas olishni qiyinlashtiradigan kiyimlarini yechish, yoqalarini bo'shatish lozim. Jabrlanuvchini faqat yotqizgan holda olib chiqish kerak.

Nafas olmayotgan bo'lsa, sun'iy nafas oldirish, yaxshisi bu ishni «og'izdan og'izga nafas yuborish» usulida amalga oshirish kerak. Ko'z va teri achishsa, og'riq o'tib ketmaguncha suv bilan yuvib tashlash, iliq ichimlik berish zarur.

Ammiak bilan zaharlanganda, gazniqob kiydirish va zudlik bilan xavfli hududdan olib chiqish zarur. Iliq suv bug'ida nafas oldirish kerak. Bunda sutga sirka yoki limon kislotasining bir nechta kristallarini qo'shib yuborish yaxshi samara beradi. Ko'zlarni yaxshilab suv bilan yuvish lozim. Ammiak teriga tushganda, ko'p miqdordagi suvda yuvish, teri kuygan bo'lsa, bog'lab qo'yish zarur.

Nafas olish to'xtab qolgan bo'lsa, «og'izdan og'izga nafas yuborish orqali» usulida nafas oldirish lozim.

Elektr toki urgan kishiga yordam berishda dastavval uni elektr toki ta'siridan qutqarish kerak, chunki tok urgan kishi hushidan ketgan bo'lishi yoki yuqori kuchlanishli elektr simidan o'zini uzib olishga majoli yetmasligi mumkin. Bunday hollarda elektr manbaini o'chirish, buning iloji bo'lmasa quruq tayoq bilan simni yoki quruq arqon bilan shikastlangan kishini tortib olish kerak.

Badanning tok tegib yaralangan joyiga quruq sterilangan bog'lam qo'yish lozim. Agar tok urgan odam hushidan ketmagan bo'lsa, osmonga qaratib, oyoqlarini yerdan 30 sm ko'tarib yoki yonboshi bilan boshini biroz ko'taryab yotqiziladi. Elektr tokidan kuyganda sovuq suvdan foydalanmang va tezda «Tez tibbiy yordam» xizmatini chaqiring.

Oftob urgan yoki issiq elitgan kishini darhol toza havoga olib chiqib soyaga o'tkazib qo'yish, tanasini siqib turgan kiyimlarini yechib, yelpigich yoki choyshab bilan yelpish, badanini sovitish,

boshini sovuq suv bilan namlash kerak. Unga suyuqlik tuz qo‘shilgan sovuq suv, sovuq choy va qahva ichirish tavsiya etiladi.

Nafas olishni kuzatish uchun shikastlangan kishining yuzi sovuq suvga ho‘llangan sochiq yoki dastro‘mol bilan shappatilanadi. Bemorning boshiga va yirik qon tomirlari o‘tadigan joylar – bo‘yining ikki yoni, qo‘ltiq va chotiga muz solingan xaltacha yoki sovuq suv solingan idish qo‘yish mumkin. Bemorni ho‘l choyshabga o‘rab qo‘yish ham yaxshi samara beradi.

Issiq urgan kishiga novshadil spirta hidlatiladi, badani uqalanadi. Bemorning nafasi qiyinlashib yoki to‘xtab qolgan bo‘lsa, sun‘iy nafas oldirish kerak.

Hushdan ketgan bemorni hushiga keltirish uchun sof havо bilan ta‘minlanadi. Siqib turgan kiyimlari bo‘shatiladi, bosh tomonini pastroq qilib chalqanchasiga yotqiziladi. Yuzi va ko‘kragiga sovuq suv purkaladi, sochiq ho‘llab bosiladi. Novshadil spirti hidlatiladi yoki burun chekkasiga surtiladi. Novshadil spirti bo‘lmasa, sirka yoki odekolon ishlatasa ham bo‘laveradi. Oyoqlari dag‘alroq mato bilan ishqalanadi yoki issiq suv solingan idish qo‘yiladi, bemor hushiga kelgach issiq choy yoki qahva beriladi.

Jarohatlanganlarni ko‘chirishda qo‘l ostidagi vositalardan foydalanish. Odam to‘satdan kasal bo‘lib qolganida, turli baxtsiz hodisalar ro‘y, berganida, albatta, tez yordam mashinasini chaqirish zarur. Noiloj qolgan hollardagina kasal yoki shikastlangan kishini duch kelgan transportda davolash muassasasiga olib borishga to‘g‘ri keladi. Tibbiyot muassasasi yaqinroq bo‘lsa, shikastlangan kishini ikki kishi qo‘lga, sutulga o‘tqazib yoki zambilda ko‘tarib olib borsa ham bo‘ladi.

Engil va o‘rtacha og‘ir darajada jarohatlanganlarni yaqin masofaga ryukzak va tayoq yordamida olib borish mumkin. Buning uchun bo‘sh ryukzak tasmalari orasidan uzunligi taxminan 1 m keladigan tayoq tiqiladi va ryukzak orqaga osiladi. Jabrlanuvchi orqa tomondan tayoqda o‘tiradi va yordam beruvchining yelkalaridan quchoqlab oladi.

Tayoqning jabrlanuvchining sonlari va yordam beruvchining orqasiga tushadigan bosimini kamaytirish uchun uni biror yumshoq narsa, masalan, kostyum bilan o'rash kerak.

Ryukzakning o'zidan foydalanib ham jabrlanuvchini tashish mumkin. Buning uchun yo'lxaltaning yon choklari tubidan boshlab 30 santimetrccha so'kiladi. Jabrlanuvchining oyoqlarini maxsus teshiklarga tiqib, ryukzakni shimga o'xshab kiydiriladi va ko'krak qafasi ustidan bog'lab qo'yiladi.

Jabrlanuvchini ikki kishi bo'lib tayoqlar va kurtka yordamida ham olib borish mumkin. Buning uchun ikkita ryukzak, uzunligi 2 m keladigan ikkita tayoq yoki chang'i, 3–4 ga kurtka kerak bo'ladi.

Kurtkalarining yenglari ichidan tayoqlar o'tkaziladi, tugmalari taqiladi. Tayoqlarning uchlari yordam beruvchilarning orqalariga osilgan ryukzaklar tasmalari orasidan o'tkaziladi. Jabrlanuvchini yotqizib ham, yarim o'tqazib ham olib borish mumkin.

Tayoq yordamida olib borishning yana bir usuli uchun uzunligi 3 m keladigan tayoq, qop yoki zambil, 60–70 sm uzunlikdagi cho'p kerak bo'ladi. Qop yoki zambilni tayoq uchlaridan oldinda boruvchi ushlashi uchun 45–50 sm, orqada boruvchi ushlashi uchun 65–70 sm joy qoldirib tayoqqa bog'lanadi. Ko'tarish oson bo'lishi uchun qopni tayoqqa yaqinroq qilib bog'lanadi. Jabrlanuvchining ko'kragi ro'parasida tayoqqa ko'ndalang qilib cho'p bog'lanaadi. Cho'p qop yoki zambil chetlarini ochilgan holda ushlab turish uchun kerak.

#### *Nazorat savollari:*

1. *Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik usullari necha xil?*
2. *Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik shakllarini ayting?*
3. *Ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik vositalari nimalardan iborat?*
4. *Fuqaro muhofazasi vazifalarini amalda bajarish chog'ida, o'qitish jarayoni, asosan, necha xil shaklda olib boriladi?*
5. *Signalizatsiya turlari necha xil bo'ladi?*

*VII BOB*  
**AHOLI EVAKUATSIYASINI  
TA'MINLASHNING ASOSIY  
TADBIRLARI**

Favqulodda vaziyatda aholini muhofaza qilish yo'nalishi; usullaridan biri, ularni evakuatsiya qilishdir, aholini turli xususiyatlardagi favqulodda vaziyatlarda evakuatsiya qilish, barcha obyektlar, tashkilot va muassasalar rahbarlarining eng asosiy vazifalaridan bo'lib, bu haqida O'zbekiston Respublikasi «Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonunining 11-moddasida bayon etilgan. Shuningdek, bu borada belgilangan tartibda evakuatsiyaga oid tadbirlarni o'tkazish va odamlarni joylashtirish maqsadida oldindan bazalar tayyorlab qo'yish lozimligi qayd etilgan.

Aholini evakuatsiya qilish, favqulodda vaziyatning ko'lamiga qarab muhofaza qilishni eng yaxshi usullaridan biri, imkon darajasida aholini xavfli joylardan olib chiqib ketish, ya'ni evakuatsiya tadbiri hisoblanadi. Lekin bu tadbir ancha murakkab bo'lib, barcha evakuatsiya organlarni tayyorgarlik ko'rishlarini, fuqarolarni qanday harakat qilishga o'rgatishga ahamiyat berishni talab etadi.

Chunki ofat ro'y bergan joyga maxsus xizmat tizimi bo'limlari va boshqa hududlardan asosiy yordam kuchlari yetib kelguncha bir necha muddat vaqt kerak bo'ladi. Tezlik bilan harakat qilinmasa, favqulodda vaziyatlar ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Misol uchun 1999-yil Turkiyaning ayrim hududlarida sodir bo'lgan zilzila tufayli 30 ming odam halok bo'lgan. 1995-yilda Yaponiyaning Kobe shahrida bo'lgan zilzila oqibatida 60 mingdan ortiq odam nobud bo'lgan, ko'rilgan moddiy zarar 100 mlrd AQSH dollariga teng deb baholangan, Ruminiyaning Baya – Borla shahri yaqinida joylashgan yarim metall tog'-jinslarini qayta ishlash korxonasida sodir bo'lgan favqulodda vaziyat tufayli 20 ming tonna o'ta

kuchli zaharlovchi moddalar Visheu va Tisa daryolari irmog'iga oqib ketgan. Yevropaning bir qator davlatlarida sodir bo'lgan suv toshqinlari, o'rmonlarning yonishi, kuchli shamollar ko'lami har xil bo'lgan favqulodda vaziyatlarni sodir bo'lishiga olib kelgan. Pirovardida tinch aholining yashash sharoiti nihoyatda yomonlashib, odamlarni xavfsiz joylarga ko'chishiga sabab bo'lgan. Bunday holatlar xavfni oldini olishga tayyorgarlik, aloqa va axborot vositalarining doimiy shayligini nazorat qilishga, takomillashtirishga, evakuatsiya rejalaridagi tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazishga, tibbiy yordamni ko'rsatishga tayyor bo'lishlikka chorlaydi. Bundan tashqari, tayyorgarlikni yuqori bo'lishi, aholini va mas'ul shaxslarni evakuatsiyaga tayyorlash va malakasini oshirishga, qutqarish kuchlarini xavf tug'ilganda, falokat vaqtida tezlik bilan to'g'ri harakatlar qilish ishlarini muvaffaqiyatli ta'minlaydi.

Avvalo, aholini ko'chirish ishlari oldindan tayyorlangan reja asosida olib boriladi.

Aholini evakuatsiya qilish (ko'chirish), bu tabiiy, texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlar yuz berganda va harbiy harakatlarni sharoitida aholini muhofaza qilishning eng samarali usulidir. Ya'ni, aholini xavfli hududlardan xavfsiz hududlarga olib chiqish (ko'chirish) demakdir.

Xavfli hudud – bu katta vayronaliklar (zilziladan va boshqa favqulodda vaziyatlardan) kimyoviy, radiatsiyaviy zaharlanish, halokatli suv bosish, sel kelish, yer silkinish, qor ko'chkilari va boshqa hodisalar bo'lishi ehtimoli bor hududlardir.

## **7. 1. Aholini evakuatsiya qilish asoslari**

Aholini ko'chirish tadbirlarini favqulodda vaziyatlar boshqarmalari va bo'linmalari, ijroiya idoralari, shuningdek, iqtisodiyot obyektlarining hay'atlari rejalashtiradi.

Ko'chirish rejaları tinchlik davrida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni tugatish rejaları tarzda rasmiylashtiriladi. Tegishli ko'chirish hay'atlari Favqulodda vaziyatlar boshqarmalari va



bo'limlarining, shuningdek, mahalliy o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari va iqtisodiyot obyektlari ma'muriyatlarining ishtirokida tuziladi. Ushbu reja ko'chiriladigan aholini qabul qilish, joylashtirish va uning kun kechirishini birinchi galda ta'minlash kabi tadbirlardan iborat bo'ladi.

Aholini ko'chirishni rejalashtirish oldidan ko'chirish tashkilotlari, favqulodda vaziyat boshqarmalari va bo'limlari ko'rsatmalarini o'rganib chiqadi, kerakli, dastlabki ma'lumotlarni yig'adi va tayyorlaydi, ko'chiriladigan aholi joylashadigan joylarni tanlaydi va sharoitni o'rganib chiqadi.


Hududida turli favqulodda vaziyatlar: zilzila, sel, yer ko'chkisi xavfi bor, suv bosish ehtimoli bo'lgan hududlar, kimyoviy va radiadion xavfli obyektlar mavjud bo'lgan ma'muriy-hududiy bo'limlarda ishlab chiqiladigan aholini ko'chirish rejalarining matn qismida quyidagilar ko'rsatiladi:

- ko'chirish boshlangani haqida aholini xabardor qilish;
- ko'chiriladiganlarning toifalarga bo'lingan soni;
- ko'chiriladigan aholini joylashtirish joylari;
- ko'chirish tadbirlarining bajarilish muddatlari;
- tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda vaziyat hududlaridan aholini transportda olib chiqish tartibi;
- ko'chirish yo'llarida jamoat tartibini va yo'l harakati xavfsizligining ta'minlanishini tashkil etish;
- ko'chiriladigan aholini shaxsiy muhofaza vositalari bilan ta'minlanishini tashkil etish;
- yig'ilish joylarida va ko'chirish yo'nalishlarida aholi muhofazasini tashkil etish;
- ko'chirilgan aholini xavfsiz joylarga joylashtirish va uning turmush kechirishini birinchi galda ta'minlash tartibi va shu kabilar.


Aholini evakuatsiya, ko'chirish, turli omillarni hisobga olgan holda bir necha turga bo'linadi (34–35-rasmlar).

FV miqyosi va ko'chiriladigan aholi soniga qarab:

1. Lokal (cheklangan);
2. Mahalliy;



*34-rasm.*



*35-rasm.*

3. Mintaqaviy ko'chirish, vaqtiga qarab: shoshilinch, oldindan o'tkaziladigan.

4. Oldindan o'tkaziladigan ko'chirish, favqulodda vaziyat (xavfli obyektlardagi falokatlar yoki tabiiy ofatlar) yuzaga kelish ehtimoli yuqori darajada ekani haqida, ishonchli ma'lumot olinganda o'tkaziladi. Bunga bir necha o'n daqiqadan, bir necha sutkagacha davr ichida favqulodda vaziyat sodir bo'lishi mumkinligi haqidagi oldindan taxminlash asos hisoblanadi.

5. Shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) ko'chirishlar odamlarning hayoti va salomatligiga xavf tug'iladigan darajada texnogen yoki tabiiy tusdagi favqulodda vaziyat yuzaga kelgan, aholining risolagidek kun kechirishi buzilgan taqdirda o'tkaziladi.

6. Umumiy ko'chirish – favqulodda vaziyat hududidan hamma toifa aholi olib chiqilishini nazarda tutadi.

7. Qisman ko'chirish – favqulodda vaziyat hududidan mehnatga aloqasi bo'lmagan aholi maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab,

kasb-hunar va boshqa o'tra-maxsus bilim yurtlari o'quvchilari olib chiqilishi zarur bo'lganda o'tkaziladi.

8. Transportda.

9. Piyoda.

10. Aralash.

## **7. 2. Evakuatsiya qilish. Hayot faoliyatini ta'minlash**

Evakuatsiya qilingan aholini belgilangan joylarga joylashtirish evakuatsiyaning eng muhim tadbirlaridan biridir. Ko'chirilgan aholini xavfsiz joylarda qabul qilinib, ular reja asosida tartib, qoidalar bo'yicha joylashtiriladi.

**Ko'chirilgan aholini xavfsiz joylarda joylashtirish evakuatsiyasi.** Ko'chirilgan aholini joylashtirish joylari 1:200 000 yoki 1:100 000 masshtabdagi topografik xaritaga tushiriladi. Undagi ma'lumotlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– ma'muriy chegaralar;

– favqulodda vaziyat manbayining (radioaktiv ifloslanish, kimyoviy zaharlanish, zilzila xavfi bor joylar, sel, yer ko'chkisi hududlari, suv bosish hududlarining) shikastlovchi omillar ta'sir hududlarining oldindan taxminlangan chegaralari;


– aholini ko'chirish (piyoda va transportda olib chiqish) yo'nalishlari, har bir yo'nalishdagi transport miqdori, piyoda (transportda) olib chiqiladigan aholi soni, ko'chirish oraliq joylari;

– obyektlar, muassasalar va tashkilotlarga birkirilgan aholi yashash joylari:

– obyektning shartli tartib raqami, ko'chiriladiganlar soni, ko'chiriladigan aholi zichligi va boshqalar.

Tabiiy va texnogen tUSDagi favqulodda vaziyat yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan hududlardan tashqaridagi o'zini o'zi boshqarish mahalliy tashkilotlari, ko'chirib keltirilayotgan aholini qabul qilish

va joylashtirishga tayyor bo‘lishlari kerak. Buning uchun quyidagi (36-rasm) ishlar amalga oshiriladi:



36-rasm. Aholining hayot faoliyati ta'minoti.

- ko‘chirish boshlangani va ko‘chirilganlar yetib keladigan vaqt haqida xabarlashni tashkil etish;
- ko‘chirish davomida boshqarish va aloqani tashkil etish;
- ko‘chirib keltirilayotganlarning toifalari va miqdori bo‘yicha aniqlashtirish;
- ko‘chirilganlarni joylashtirish uchun rejalashtirilgan xizmat binolari, ma‘muriy, madaniy-maishiy va boshqa imoratlarni tayyorlash;
- ko‘chirish-oraliq joylarini yo‘lga qo‘yish tartibi, ko‘chirilgan aholini ko‘chirish-oraliq joylaridan joylashish joylariga yetkazish

tartibi va muddatlari, shu maqsadlarga ajratiladigan transport vositalariga aniqlik kiritish;

– joylashish joylarida ko‘chirilganlarni turmush kechirishlarini ta‘minlashni tashkil etish;

– mahalliy va ko‘chirib keltirilgan aholiga yo‘riqnoma va axborotlar berishni tashkillashtirish va shu kabilar.

*Nazorat savollari:*

1. *Avariya-qutqaruv ishlar paytida tibbiy xizmat turlari necha xil bo‘ladi?*
2. *Toksonamiya nima ?*
3. *Bosh jarohat olgan paytidag qanday choralar ko‘railadi?.*
4. *Infeksiya tushganligining klinik ko‘rinishi qanday?*
5. *Jarohat turlarini ayting?*
6. *Qon ketish turlari necha xil?*
7. *Yurak faoliyatining to‘xtab qolishi sabablari nima?*
8. *Suvdan qutqarilgan kishiga qanday birinchi yordam ko‘rsatiladi?*
9. *Zaharlangan kishiga, dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatish qoidalarini ayting?*

---

---

**FANGA DOIR BILIMLARNI MUSTAHKAMLASH  
UCHUN TEST SAVOLLARI.**

**1. ASV-2, AVM-5 apparatlarining nafas olish sxemasi?**

- A) Ochiq holda
- B) Regenerativ
- D) Yopiq holda
- E) Sirkular holda

**2. 45 metrdan ortiq bo'lgan suv ostiga tushish kimning nazoratida bo'lishi shart?**

- A) Yo'riqchi-g'avvos
- B) Suvda qutqaruv guruhi boshlig'i
- D) Shifokor
- E) Feldsher

**3. Korxonalardagi baxtsiz hodisalar qanday usullarda tahlil qilinadi?**

- A) Monografiya usulida
- B) Statistik, monografiya topografiya usullarida tahlil qilinadi
- D) Statistika va sistema usullarida
- E) Tahliliy va monografiya usulida

**4. Odamga elektr toki urishi natijasida...**

- A) inson organizmida biologik ta'siri yuzaga keladi
- B) Odam organizmining ma'lum bir qismiga elektr toki oqib o'tadi
- D) Elektrolitik tok ta'siri deyiladi
- E) inson hushidan ketib qolishi deb tushuniladi

**5. Baxtsiz hodisalarni tekshirish muddatlari?**

- A) 72 soat
- B) 24 soat
- D) 48 soat
- E) 4 hafta

**6. Zilzilaga qarshi qurilishlarda qanday choralar ko'riladi?**

- A) Seysmik kamar bilan kuchaytirish
- B) Armatura turlari bilan kuchaytirish

D) Antiseysmik chok bilan ajratish

E) Seysmik kamar, armatura bilan kuchaytirib, antiseysmik ip ajratish

**7. Toshkentda qachon oxirgi marta kuchli yer silkinishi yuz bergan?**

A) 1958-y.

B) 1960-y.

D) 1972-y.

E) 1966-y.

**8. Favqulodda vaziyatda necha soatga mo'ljallangan suv, oziq-ovqat va boshqa zarur narsalar bilan ta'minlanadi?**

A) 72 soat

B) 36 soat

D) 48 soat

E) 24 soat

**9. Fuqaro himoyasi haqida qonun qachon qabul qilingan?**

A) 1995-y.

B) 1998-y.

D) 1997-y.

E) 2001-y.

**10. Bofart shkalasi necha qismdan iborat?**

A) 10

B) 15

D) 12

E) 8

**11. Toksonomiya nima?**

A) Qator va tartib

B) Tizim

D) Tartib, qator, tizimlar joylashish qonuni

E) Tizim va qonun

**12. Sayyoramizning necha foizi suv bilan qoplangan**

A) 50%

B) 90%

D) 70,8%

E) 69,1%

**13. Yer sharining necha foizi quruqlik?**

- A) 4,40 %
- B) 29,2 %
- D) 15,1%
- E) 35,4 %

**14. Chernobil AES da qachon fojiali falokat yuz bergan?**

- A) 1966-y.
- B) 1972-y.
- D) 1986-y.
- E) 2001-y.

**15. Seysmik to'liqlar necha turga bo'linadi?**

- A) 3 xil
- B) 4 xil
- D) 2 xil
- E) 5 xil

**16. Bosh jarohati paytidagi qanday choralar ko'riladi?**

- A) Qon ketishini nazorat qilib turish
- B) Jarohatni bint bilan bog'lash
- D) Bemorni bosh va yelkani ko'targan holda yotqazish
- E) Hamma javoblar to'g'ri

**17. Infeksiya tushganligining klinik ko'rinishi qanday?**

- A) Jarohat shishadi
- B) Jarohat qizaradi
- D) Jarohat og'riydi
- E) Hamma javoblar to'g'ri.

**18. Jarohat turlari qanday?**

- A) Ochiq
- B) Yopiq
- D) Katta
- E) Hamma javob to'g'ri.

**19. Qon ketish turlari**

- A) Arterial
- B) Kapillyar
- D) Venoz
- E) Hamma javoblar to'g'ri.



**20. Yurak faoliyatining to'xtab qolishi qanday kechadi?**

- A) Hansiraydi
- B) Hushidan ketadi
- D) Lablari ko'karadi
- E) Tomir urmaydi, bemor nafas olmaydi

**21. Quruqlik nechta qit'adan iborat?**

- A) 6
- B) 8
- D) 12
- E) 5

**22. avariya-qutqaruv ishlar paytida tibbiy xizmat turlari necha qismdan iborat?**

- A) 5 qismdan
- B) 7 qismdan
- D) 3 qismdan
- E) 2 qismdan

**23. Viloyat favqulodda vaziyatlar boshqarmasining avariya-qutqaruv xodimlarining soni necha kishidan iborat bo'ladi?**

- A) 10 kishi
- B) 12 kishi
- D) 15 kishi
- E) 17 kishi

**24. Avariya yoritgichlari nima uchun o'rnatiladi?**

- A) Halokat natijasida ish yoritgichlari o'chib qolganda ishni davom ettirish uchun
- B) Qutqaruv ishlari olib borish uchun
- D) Ish sirtlarini yoritish uchun
- E) Avariyalarni oldini olish uchun

**25. Atmosfera qaysi oraliqda joylashib, necha qismga bo'linadi?**

- A) 16 km li oraliqqa joylashib uch qismga bo'linadi
- B) 30 km li oraliqqa joylashib ikki qismga bo'linadi
- D) 15 km li oraliqqa joylashib to'rt qismga bo'linadi
- E) 25 km li oraliqqa joylashib besh qismga bo'linadi

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. *Karimov I. A.* O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997.
3. *Karimov I. A.* O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. – T.: O'zbekiston, 2005.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi PF-1378-sonli Farnoni. 1996-yil 4-mart.
5. O'zbekiston Respublikasining «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnologen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni. 1999-yil 20-avgust.
6. O'zbekiston Respublikasining «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi Qonuni. 2000-yil 26 may.
7. O'zbekiston Respublikasining «Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishining (OIV kasalligining) oldini olish to'g'risida»gi Qonuni. 1999-yil 19-avgust.
8. O'zbekiston Respublikasining «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida»gi Qonuni. 1999-yil 20-avgust.
9. O'zbekiston Respublikasining «Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risida»gi Qonuni. 2000-yil 31 avgust.
10. O'zbekiston Respublikasining «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Qonuni. 2000-yil 15-dekabr.
11. O'zbekiston Respublikasining «Xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi to'g'risida»gi Qonuni. 2006-yil 28-sentabr.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Toshqinlar, sel oqimlari, qor ko'chish va yer ko'chki hodisalari bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularning oqibatlarini tugatish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori (2007-yil 19-fevral, PQ 585-sonli).
13. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Favqulodda vaziyatlar vazirligining faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida»gi Qarori (1996-yil 11-aprel, 143-sonli).
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi gugrisida»gi Qarori (1997-yil 23-dekabr, 558-sonli).

15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi to'g'risida»gi Qarori (1998-yil 7-oktabr, 427-sonli).
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Texiogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida»gi Qarori (1998-yil 27-oktabr, 455-sonli).
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida odamlar va hayvonlarning quturish kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori (1996-yil 18-yanvar, 32-sonli).
18. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Ommaviy tadbirlarni o'tkazish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori (2003-yil 13-yanvar, 15-sonli).
19. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish va oldini olish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarori (2007-yil 3-aprel, 71-sonli).
20. O'zR FVV Fuqaro muhofazasi institutida ishlab chiqilgan davlat standartlari.
21. *Abdullabekov K. N, Zufarov V. G.* Zilzilaning oldini olish mumkinmi? Fuqaro muhofazasi, №1, 2000, 12.
22. *Аллисон А, Пальмер Д.* Геология. – М.: Мир, 1984.
23. *Бедринцев А., Денисов Ю.* Химическая индустрия: пути повышения эффективности производства. Экономический вестник Узбекистана, №8, 1999.
24. *Берлянд М.Е и др.* Руководящий документ. Методика прогнозирования масштабов заражения сильнодействующими ядовитыми веществами при авариях (разрушениях) на химически опасных объектах и транспорте. – СПб.: Гидрометеониздат, 1991.
25. *Владимиров В.* XXI век: переход к устойчивому развитию // Военные знания. №3, 1999.
26. *Вознесенский В.* Прогнозирование аварийнон ситуации с аммиаком. // Военные знания. №5, 1999.
27. *Дзыбов М., Пучков В.* Оценка опасности чрезвычайных ситуаций. // Гражданская защита, №7, 1998.
28. *Зайцев А.П.* Защита населения в чрезвычайных ситуациях. Сб. метод, разработок. // Военные знания, №2, 1998.
29. *Зайцев А.П.* Чрезвычайные ситуации. Краткая характеристика и классификация. Пособие. // Военные знания, 1997.
30. *Зайцев А.* Нужна ли эвакуация? // Военные знания, №4, 2000.
31. *Касимов С.М.* Инженерно-геологическая основа детального сейсмического и микросейсмического туманирования. – Т.: Фан, 1979.

32. *Каримов Х., Эргашев А.* Радиационная обстановка в Узбекистане. // Экологический вестник. № 1–2, 1999.

33. *Кирилов Г.* Защита населения в тумане АЭС // Гражданская защита. №4, 1997.

34. *Лыков С.М., Печеркин А.Г., Сидоров В.И., Сумской С.М., Ханин Е.В.* Оценка опасности производственных объектов, содержащих окисляющие вещества. // Химическая промышленность. №6, 1999.

35. *Медведев С.В., Шебакин Н.В.* С землетрясением можно спорить. – М.: Наука, 1967.

36. Мероприятия по предупреждению и ликвидации ЧС. Основы аварийно-спасательных работ. Меры безопасности. Эксплуатация защитных сооружений. Учебное пособие. – М.: 1998.

37. Международный программный форум «К партнерству за уменьшение катастроф в XXI веке». Женева, 5–9 июля 1999. // ОБЖ, №10, 1999.

38. *Моторный И.Д.* Защита гражданских объектов от терроризма. Научно-практическое пособие. – М.: Издательский дом Шумиловой И.И. 2005.

39. *Ниязов Р. А., Минченко В.Д.* Оползневые процессы. // Fuqaro muhofazasi, №1, 2000.

40. *Расулев А.Р., Савельев А.В., Трофимов Г.Н.* К оценке селеопасности и низкорослой зоны Республики Узбекистан. В сб. научн. трудов. Водные проблемы Арала и окружающая среда. – Ташкент, «Университет», 2000.

41. *Романченко Ю.* Терроризм: нынешнее состояние и проблемы противодействия. – Ж.: ОБЖ. Основы безопасности жизни. № 4, 2002.

42. *Рябка И. А.* Оценка уязвимости и повышение устойчивости работы объекта от чрезвычайных ситуаций природного, техногенного и военного характера. Военные знания, №2, 2000.

43. *Ульмасов А.* Моё мнение, или давайте поговорим о наболевшем. Ёнги хавфсизлиги, №2 (4), 2000.

44. *Филипп Л. Булле.* От Иокотгамской стратегии – к Женевскому мандату. Основы безопасности жизнедеятельности, №10, 1999.

45. Учебник спасателя. / Под общей редакцией Ю.Л. Воробьева. МЧС России, 2004.

46. *Ходжаев А.Р., Ниязов Р. А.* Оползни и проблема рационального использования геологической среды. – М.: Знание, 1985.

47. *Чугаев Р.Р.* Гидротехнические сооружения. – М.: Агропромиздат. 1985.

48. *Шевченко А.В., Леонов Н.М., Тарашенко Н.И. и др.* Руководство по эвакуации населения в чрезвычайных ситуациях природного и техногенного характера. – М.: ВНИИПОЧС. 1995.

49. *Шувалов М.Г.* Основы пожарного дела. – М.: Стройиздат. 1971.

50. Шпаковский О. Гидротехнические сооружения – объекты повышенного риска. Гражданская защита. №11, 1999.

51. Юлдашев О.Р. и др. Аварийно-спасательные работы. – Т., 2008.

52. Харитонов В.А., Шохолов В.А. Организация восстановительных работ после землетрясения. – М.: Стройиздат. 1989.

53. Qudratov O. Q., G'aniyev T. Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi. – Т.: Yangi asr avlodi, 2005.

54. Qudratov O. Q. va boshqalar. «Hayot faoliyati xavfsizligi». Ma'ruzalar kursi. – Т.: Aloqachi, 2005.

55. Yong'in xavfsizligi. 2-nashri. /A. E. Xudoyev tahriri ostida. – Т.: O'zR IIV yong'in xavfsizligi oliy texnik maktabi. 2007.

56. Salomatlik ensiklopediyasi. – Т., 1985.

57. Yunusov M. Y., Ikromov E. J. Fuqaro muhofazasi – doimiy zarurat. – Т., 2002.

58. «Muhofaza +» jurnali.

59. Nurxo'jayev A. va boshq. «Favqulodda vaziyatlar va muhofaza tadbirlari». – Т.: 2001.

60. «Shikastlangan kishilarga dastlabki tibbiy yordam ko'rsatish» mavzusi-dagi tajriba ishini bajarishga mo'ljallangan uslubiy ko'rsatma. – Т., 1998.

61. [www.mchs.gov.uz](http://www.mchs.gov.uz)

62. [www.v.-nazor.uz](http://www.v.-nazor.uz)

# MUNDARIJA

So‘zboshi.....	3
Kirish.....	5
<b>I BOB. FUQARO MUHOFAZASINING ME’YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....</b>	<b>9</b>
1.1. Fuqaro muhofazasining me’yoriy-huquqiy asoslari .....	11
1.2. O‘zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va oqibatlarini bartaraf qilish tartibi .....	15
1.3. Favqulodda vaziyatlar, texnogen avariyaalar, halokatlar va tabiiy ofatlar tushunchalari, tavsiflari .....	24
1.4. Tabiiy ofatlar va halokatlarning oldini olish chora-tadbirlari .....	26
2.2. Texnogen avariyaalar turlari, kelib chiqish sabablari va muhofaza tadbirlari.....	41
<b>II BOB. AVARIYA-QUTQARUV VA BOSHQA KECHIKTIRIB BO‘LMAYDIGAN ISHLAR .....</b>	<b>50</b>
2.1. Favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etishning tashkiliy asoslari .....	53
2.2. Avariya-qutqaruv ishlarining tarkibi va ketma-ketligi .....	55
2.3. Insonlarni qutqarish borasida qo‘llaniladigan usullar.....	58
2.4. Avariya-qutqaruv ishlarini olib borayotgan tuzulmalarning hamjihatligi.....	68
2.5. Razvedka ishlari.....	77
2.6. Tibbiy ta’minotni tashkillashtirish .....	81
<b>III BOB. QIDIRUV-QUTQARUV ISHLARINI TASHKILLASHTIRISH VA OLIB BORISH .....</b>	<b>84</b>
3.1. Boshqarish, navbatchilik, xabar berish va aloqa ishlarini tashkillashtirish .....	85
3.2. Xabar berish turlari va usullari .....	91
3.4. Topografik xaritasida ish yuritish.....	100

<b>IV BOB. QUTQARUV VA KECHIKTIRIB BO‘LMAYDIGAN AVARIYA TIKLASH ISHLARINI OLIB BORISH VA FAOLIYAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH.....</b>	<b>111</b>
4.1. O‘ta zaharli kimyoviy moddalarni ishlab chiqarishda va saqlashda sodir bo‘ladigan avariyalarni bartaraf qilishda qutqaruvchilarning harakati .....	111
4.1. Hidrotexnik inshootlardagi avariyaalar. ....	116
4.3. Radioaktiv moddalarni ishlab chiqarish va saqlash obyektlaridagi sodir bo‘lgan avariyalarni bartaraf qilishda qutqaruvchilarning harakatlari.....	117
4.4. Epizootiya va epifitotiyalar paytida avariya-qutqaruv kuchlari va mablag‘larni tashkil qilish .....	123
<b>V BOB. MA‘NAVIY-RUHIY TAYYORGARLIK USULLARI VA SHAKLLARI.....</b>	<b>127</b>
<b>VI BOB. AVARIYA-QUTQARUV ISHLARI VA BIRINCHI TIBBIY YORDAM.....</b>	<b>132</b>
<b>VII BOB. AHOLI EVAKUATSIYASINI TA‘MINLASHNING ASOSIY TADBIRLARI .....</b>	<b>143</b>
7.1. Aholini evakuatsiya qilish asoslari.....	144
7.2. Evakuatsiya qilish. Hayot faoliyatini ta‘minlash .....	146
Fanga doir bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari.....	150
Foydalanilgan adabiyotlar.....	154

**Siddika Gazinazarova**  
**Orinboy Raxmonberdiyevich Yuldashev**

**AVARIYA-QUTQARUV**  
**ISHLARI**

*Oliy o'quv yurtlari talabalri uchun o'quv qo'llanma*

*Muharrir Sherzod Qurbonov*  
*Badiiy muharrir Sardor Kurbanov*  
*Texnik muharrir Yelena Tolochko*  
*Musahhah Zulfiya G'ulomova*  
*Sahifalovchi Sherali Rustamov*

Litsenziya raqami AI № 163. 09. 11. 2009. Bosishga 2014-yil 3-sentabrda ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 84 \frac{1}{16}$ . Ofset qog'ozi. «Times New Roman» garniturası. Shartli bosma tabog'i 9,30. Nashr bosma tabog'i 8,20. Adadi 300 nusxa. Shartnoma № 64-2014. Buyurtma № 834.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho'ipon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.  
Telefon: (371) 244-10-45. Faks: (371) 244-58-55.

«TOSHKENT TEZKOR BOSMAXONASI» mas'uliyati cheklangan jamiyati bosmaxonasida chop etildi. Toshkent, Radialniy tor ko'chasi, 10.